

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

AZMIDDIN NOSIROV

**ISTIQLOL DAVRI ADABIY JARAYONI
VA TANQIDCHILIK**

USLUBIY QO'LLANMA

SamDU o'quv-uslubiy kengashining
2015-yil 8-fevraldagi 3-raqamli
qaror bilan nashrga tavsiya etilgan.

SAMARQAND – 2014

УДК: 891. 709

ББК: 83. 3У3

183.

Azimidin Nasirov. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik. Uslubiy qo'llanma. –Samarqand, SamDU nashri, 2014 yil. –106 bet.

Istiqlol davri adabiyotining asosiy xususiyatlari, o'ziga xos tamoyillari haqida so'z yuritilgan. Mustaqillik yillariga kelib, tarixga, tarixiy shaxslar obraziga haqqoniy yondashish an'anasi yetakchilik qilmoqda. Bu davr adabiyoti insonning botiniy olamini badiiy talqin etar ekan, turfa xil ramzlar, majoziy talqinlar an'anasini ham yuksak darajaga ko'tardi. She'riyatda esa turfa xil ohanglar, uslubiy izlanishlarni kuzatishimiz mumkin. Uslubiy qo'llanmada mustaqillik davri adabiyotining turfa xil ohanglarda rivojlanib borayotganligi haqida so'z yuritilgan.

Mas'ul muharrir:

Taqrizchilar:

prof. H. Umurov

fil.fan.dok. A. Soliyev,

fil.fan.dok. Sh. Hasanov

KIRISH

Xalqimizning azaliy orzusi bo'lgan Mustaqillik juda ko'p jabhalarda bo'lganidek, ma'naviyat sohasida ham katta o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Millatimiz hayotida mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy muammolarga har qachongidan ko'ra ham diqqat-e'tibor kuchaydi. Istiqlof mafkurasi xalq va jamiyat hayotiga chuqur singib borayotganligining o'ziyoq bu fikrni isbotlaydi. Yurtboshimiz alohida ta'kidlaganidek: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zboshimchalikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha, qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi»¹. Qayd qilinganidek, ma'naviyatsiz inson tafakkurini, jamiyat taraqqiyotini tasavvur etish mumkin emasligi ayon bo'lmoqda.

O'zligini chuqur anglab etgan jamiyatning turmush tarzida ma'naviyat markaziy o'rinni ishg'ol etishi muqarrardir. Buni xususiyatini yaqin tarix, balki ko'hna tarix ham isbotlab turibdi. Shu asnoda Yurtboshimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganidek, «Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi»².

Bugungi kunda globalashuv jarayonida ma'naviy qadriyatlarning hayotiy zarurati oshib bormoqda. Mamlakatimiz milliy mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin, barcha sohalarda bo'lgani kabi, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikda ham jiddiy evrilishlar, o'zgarishlar yuzaga keldi. Adabiyot sobiq ittifoq davrida mafkura ta'sirida qolib ketganligi sababli jahon ma'naviyati va estetik madaniyati ta'sirida rivojlanmay, faqat bir tomondangina tahlil qilinadi, o'rganilganligi bugungi kunda ma'lum bo'lmoqda. Shuningdek, mustaqillik davri adabiyoti buyuk an'analarni davom ettirgan holda, Qodiriy, Cho'lpon kabi millat va ma'naviyat gultojulari ijodida shakllangan milliy an'analar yana o'z qiyofasiga ega bo'lganligini alohida qayd etmoq zarur. Adabiy tanqidchilik sof estetik nazariy ilmlar bilan badiiyat nuqtai nazarida tahlillarni yuzaga chiqarmoqda. Bu jarayonga bugungi kunda jahon adabiyotining nodir durdonalari ham o'z ta'sirini ko'rsatganligini ham qayd etmoq zarur.

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: «Маънавият», 2008. 116-бет.

² Каримов И. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: «Ўзбекистон», 1997. 37-бет.

Dunyo xalqlari adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, inson akteridagi va jamiyatdagi o'zgarish hamda evrilishlarni asrlar davomida badiiy talqin etganligini kuzatamiz. Shu ma'noda istiqloлга erishish jarayoni ham murakkab kechganligi natijasida, yillar davomida erk va ozodlikni ijodkorlarimiz tarannum etganligi ham bejiz emas. Mustaqillik yillariga kelib, esa adabiyotimiz turfa xil shakl va ohanglarda o'z aksini topmoqda. Keying yillar adabiyotida chinakam ijod qilish, haq so'zni, haqiqatni aytish erkinligi keng qamrovda rivojlandi. Shuning uchun O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov "Adabiyot va zamon" maqolasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Sho'rolar davrida milliy qadriyatlarimiz, moziydagi qahramonlarimiz qariyb qalamga olinmas, olinganda ham ular sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan tahlil etilar, qoralanardi, xalos. Diniy e'tiqod esa butunlay manfiy tushunchaga aylantirilgan edi. Bir yoqlamalik, yuzakilik adiblarimizni bir xil ovozda, bir xil ohangda kuylashga o'rgatib qo'ygan edi. Faqat baxtni va saodatni kuylash, aslida yo'q yorqin kelajakni ulug'lash odat tusiga aylangan edi. Inson hayotidagi turli iztiroblar, ziddiyatlar, mag'lubiyatlar qatag'on mavzu hisoblanar, ular also rag'batlantirilmas edi".³

Darhaqiqat, mustaqillik yillariga kelib, tarixga, tarixiy shaxslar obraziga haqqoniy yondashish an'anasi yetakchilik qildi. Chunki tuzumning o'zgarishi, jamiyat evrilishlari badiiylik mezonlarining yangilanishiga, obrazlar tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berishiga kuchli ta'sir ko'rsatganligini ham qayd etish lozim. Ijodkorlar olam, odam haqida avvalgidan o'zgacharoq fikrlash mumkinligini angladilar va shu yo'lda jiddiy o'zgarishlarning mahsuli bo'lgan badiiy asarlar maydonga keldi. "Davr va adabiyot muammosi g'oyat murakkab hodisadir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o'zgarib turishi bo'lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o'zi yaratilgan zamonga qaraganda ko'proq yashashga intilishi, barqaror bo'lishga urinishidir... Ayni vaqtda, o'tgan yillar shunday salmoqqa, shunday o'zgaruvchilik qudratiga egadirki, xalq psixologiyasi, dunyani idrok etish, tushunish va tushuntirish tarzida shunchalik katta o'zgarish yasadiki, avvalgi bir necha o'n yillarda ham bunday qilib bo'lmasdi"⁴, - deb yozadi adbiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev.

Insoniyat tarixida uzoq davrlar mobaynida yaratilgan badiiy asarlar hech qachon hamma uchun birday tushunarli bo'lmaydi. Shu jihatdan

³ Oripov A. Adabiyot va zamon. Mustaqillik davri adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar, badialar. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matba uyi, 2006. 5-bet.

⁴ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Adabiy o'ylar. – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006. 15-bet.

keying yillar badiiy adabiyotida sujet jihatidan murakkab aterga ega bo'lgan asarlar maydonga kelmoqda. Istiqlol davri adabiyoti inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni, qarama – qarhiliklarni, botiniy olamidagi ziddiyatlarni aks ettirish bilan bir qatorda, inson tafakkuridagi evrilishlarni, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlarni haqqoniy aks ettirish an'anasini yuzaga chiqardi. Istiqlol davri badiiy – estetik tafakkuridagi bunday o'zgarishlar olam va odamga teranroq nazar solish va globallashuv jarayonida kechayotgan o'zgarishlarni badiiy talqin etar ekan, estetik ideallarning, yoki jahon adabiyotidagi yetakchi tamoyillarni badiiyat tarkibiga kirib kelishi bilan ham uzviy bog'liqdir.

Shuning uchun adabiyotshunos N. Rahimjonov istiqlool davri adabiyotining akterli jihatlarini quyidagicha izohlagan edi: “Istiqlol adabiyotining muhim fazilatlarini, o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beruvchi bir qator yetakchi tendensiyalar ko'zga tashlanadur. Chunonchi, millatning o'z o'zini anglashida, o'zlikni qadrlashi va ulug'lashida, milliy iftixor tuyg'ularining shakllanishida badiiy tafakkur madaniyatining sifat o'zgarishlari namoyon bo'layotir. Yana bir yetakchi tamoyil – bu adiblarimiz xoh tarixiy voqelikka, xoh diniy g'oyalarga, xoh bugungi kunga murojaat etishadimi, mohiyat ham millat birligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy – falsafiy konsepsiyasi bilan ajralib turadi”.⁵

Yuqorida qayd qilingan fikrlarga tayangan holda bugungi badiiy adabiyot tarkibida an'anaviylik va noan'anaviylik xususiyatlari ham yetakchilik qilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, ijodkorning erkin fikrlashi, hayot haqiqatiga monand bo'lgan voqealar tasviri bilan birgalikda shaxs akteridagi turfa xil o'zgarishlarni talqin etish jarayonida, haq so'zni aytish an'anasi kuchaydi. Shu bilan bir qatorda ijodkorning falsafiy tafakkuri hayotiy mushohadasi turfa xil obrazlar, ramzlar asosida yuzaga chiqmoqda. Istiqlol davri adabiy jarayondagi bunday o'zgarishlarga bog'liq holda adabiy tanqidiy qarashlar, mulohazalar zamirida ham xuddi shunday holatlarni kuzatamiz.

Darhaqiqat, istiqlool davri adabiy jarayoni va tanqidchilik taraqqiyotidagi o'zgarishlar bugungi kunda so'z san'atkorlarining badiiy obraz yaratish jarayonidagi o'ziga xos uslubiy o'zgarishlarni va tanqidchilik taraqqiyotidagi turfa xil qarashlarning yuzaga chiqishiga ham asos bo'lmoqda.

⁵ Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot (Adabiy – estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari). –T., “O'qituvchi”, 2012. 11-bet.

ISTIQLOL DAVRI ADABIY JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TANQIDCHILIK TARAQQIYOTI

Reja:

1. Istiqlol davri adabiy jarayoni haqida umumiy tushuncha.
2. Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik fanining maqsadi va vazifalari.
3. Istiqlol davri badiiy adabiyotidagi poetik o'zgarishlar haqida umumiy tushuncha.
4. Bu davr adabiyoti haqidagi turfa xil qarashlar.

Tayanch so'z va iboralar: *Istiqlol davri, adabiy jarayoni, shakllanishi, taraqqiyoti, tanqidchilik, poetik o'zgarishlar.*

Istiqlol davri badiiy adabiyotidagi o'ziga xos o'zgarishlar bugungi adabiy jarayonda tahlil etilmoqda. Istiqlol adabiyoti inson hayotidagi turfa xil iztiroblarni, ziddiyatlarni, inson tafakkuridagi o'zgarishlarni haqli ravishda tasvirlash an'anasini yuzaga chiqardi. Fikr va ruhning yangilanishi estetik qarashlarning ham bugungi kun nuqtai nazaridan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Istiqlol davri adabiyotining akterli jihatlari haqida bir qator ijodkor va adabiyotshunoslar asosli mulohazalarini qayd qilgan: "Istiqlolga erishilgandan keyin yaratilgan ko'pgina asarlarda oliy rutbaga ko'tarilgan, dunyo yaralishining sababi, adoqsiz ilohiy nur ila yo'g'rilgan zot deb qaralgan insonning hayvoniy va shaytoniy nafsı bois gunohga moyil hamda o'sha gunohlar tufayli qabihliklar ham qilishga qodir, ayni paytda qilgan gunohlari sabab qiynaladigan o'ta murakkab mavjudod ekani tasvirlanmoqda. Istiqlol adabiyoti insonni jo'nlikdan, to'porilikdan, anchayinlikdan qutqardi. Uni murakkablashtirdi, noziklashtirdi, bir xil qarashlar tizimi bilan tushunib ham, tushuntirib ham bo'lmaydigan injiqroq ekanligini ro'y rost aks ettira boshladi".⁶

Qayd qilingan tushunchalarga asoslanadigan bo'lsak, istiqolol adabiyoti o'zlikni anglashga intilayotgan shaxs obrazini badiiy talqin etish jarayonida uning o'ziga xos olami, unda vujudga kelgan turfa xil qarashlarning yuzaga chiqishi bejiz emasligini asoslamoqda. Shu jihatdan "Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik" fanining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

⁶ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T., "Yangi asr avlodi", 2006. 16-17-betlar.

1. Istiqlol davri adabiy jarayonidagi poetik o'zgarishlar haqda so'z yuritish;
2. Davr adabiyotining turfa xil ohanglarda yuzaga chiqish sabablarini istiqol davri tufayli yuksalib borayotganligini badiiy talqindagi o'zgarishlar bilan asoslash;
3. Mafkuradan holi bo'lgan badiiy adabiyotning o'zgarishida jahon adabiyotidagi yetakchi tamoyillarning ta'siri mavjudligini badiiyatdagi o'zgarishlar bilan qiyoslash;
4. Istiqlol adabiyotida inson botininy olamidagi falsafiy – psixologik tahlillarning kuchayib borishi natijasida, shaxsning o'zligini anglash yo'lidagi murakkab qirralarini ifodolovchi obrazlar galereyasini tahlili misolida ko'rsatib berish;
5. Mohiyatan o'zgarib borayotgan badiiy adabiyot haqida so'z yuritilgan adabiy-tanqidiy fikrlar taraqqiyotini o'rganish;
6. Talqinlar va qarashlarning turfa xilligi badiiy adabiyotdagi o'zgarishlar bilan bir qatorda istiqol yuzaga chiqargan so'z erkinligi insonni marifatli, yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi o'rnini asoslashdan iborat;
7. Badiiy tafakkur samaralari hamma davrlarda millat ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilganligini asoslash bilan bir qatorda, jamiyatdagi ezgulik, adolat, go'zallik singari bashariy qadriyatlarga tayangan gumanistik prinsiplarni qaror topib borayotganligini hozirgi adabiy jarayondagi badiiy asarlar bilan ko'rsatib berish;
8. Insonparvarlik, vatanparvarlik, millatsevarlik g'oyalarini shakllantirish singari tushunchalarni badiiyat mezonlari asosida tahlil qilishdan iborat. Shu ma'noda badiiy asarlarning shaxs va jamiyat ma'naviy kamolotida tutgan o'zni va ahamiyatiga munosib baho berish, yaratilajak asarlarning barkamol saviyada bo'lishini ta'minlash kabi vazifalar adabiyotshunoslik oldida hamisha ko'ndalang turadi. O'zbek adabiyotshunosligi insonning ma'anaviy-intellektual saviyasini yuksaltirishga qaratilgan o'z ma'sul vazifasini munosib ado etishga intilib kelayotganligini ko'rsatishdan iboratdir.

Adabiyotshunos N. Rahimjonov istiqol davr adabiyoti va adabiy jarayoni haqida so'z yuritib quyidagi tushunchalarni qayd qilgan: "Istiqlol davri adabiy jarayoni bir necha ming yillik Sharq madaniyati, mumtoz adabiyotimiz taraqqiyotining tarkibiy qismi, turkiy ulus ma'naviyatining

uzviy bo'g'ini sifatida baholanmoqda".⁷ Bu fikrlarda adabiy jarayonning o'ziga xos xususiyati mavjudligi e'tirof etilgan. Shuning uchun istiqolol adabiy jarayoni va tanqidchiligi fikr va mulohozalarga boy bo'lganligi sababli, mavjud an'analar bilan bir qatorda turfa xil tahliliy o'zgarishlarni haqli ravishda yuzaga chiqardi. Istiqololga erishganimizdan so'ng ma'naviy qadriyatlarga, madaniyatga so'z san'atiga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi. Bu davrning eng akterli xususiyati faqat adabiyotimiz tarixiga emas, balki zamonaviy adabiy-badiiy jarayonga ham yangicha badiiy estetik mezonlar bilan yondashishni talab etmoqda.

Adabiyotshunos H. Karimov ta'kidlaganidek: "Bugungi kun adabiyoti kechagi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan farq qiladi. Ya'ni odamning qalb iztiroblari, quvonchlarning betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko'rinishlari inkishofi hamda voqea hodisalar tasvirining batafsilligi, ularning har biri maqsad sari yo'naltirilganligi, qahramonlarning o'ta milliy va individuallashtirilganligi, bozor iqtisodining mohiyatini ochib berishi ila o'ziga xoslikka ega... voqea hodisadan ko'ra, insonning uning qalbi tahlili birinchi o'ringa chiqqanligi bilan ajralib turadi".⁸

Haqiqatdan ham, hayotdagi har bir o'zgarish inson tafakkuriga chambarchas bog'liqdir. Inson tafakkurida o'zgarishlar bo'lmas ekan, jamiyatda ham hech qanday o'zgarish bo'lmaydi, chunki inson tafakkuridagi o'zgarish davr va jamiyatdagi o'zgarish bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun bugungi adabiy jarayonda voqea hodisalar emas, insonning o'zi, uning o'y fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiy olami yetakchilik qilayotganligini adabiy jarayonda vujudga kelayotgan badiiy asarlar tasviri misolida isbotlash mumkin. Istiqolol adabiy jarayonida inson taqdirini badiiy-falsafiy tarzda tadqiq etish an'anasi yuksalib borayotganligi bu davr adabiyotining eng akterli xususiyatidir. Hozirgi adabiy jarayondagi turfa xil mushohadalar asosida yuzaga chiqayotgan adabiy tanqidiy qarashlar zahirida badiiy adabiyotga ma'lum bir mezonlar asosida emas, badiiyat nuqtai nazaridan baho berish an'anasi kuchaydi. "Milliy tafakkuridagi tub yangilanishlar adabiy hodisalarni qayta idrok etish va uni ijtimoiy ongning bugungi darajasiga muvofiq adabiyotshunoslik ilmining taraflari asosida baholash zaruriyatini taqozo etadi. Badiiy asarga, adabiy jarayonga baho berishda filolog olimlar o'rtasida shu vaqtga qadar ham umumiy bir ilmiy to'xtam mavjud emas.

⁷ Rahimjonov N. Istiqolol va bugungi adabiyot (Adabiy – estetik, tanqidiy tafakkur tamoyillari). –T., "O'qituvchi", 2012. 54-bet.

⁸ Karimov H. Istiqolol davri adabiyoti. –T., "Yangi nashr", 2010. 4-bet.

Haqiqatan, adabiyot va davr munosabatini to'g'ri aniqlash oson bo'lmaydi. Chunki davr – vaqt deb atalmish adabiy hodisaning o'tkinchi bir bo'lagi, adabiyot esa ana shu o'tkinchi lahzalarni abadiytaga muhrlashni da'vo qiladigan san'at turidir”.⁹

Qayd qilingan tushunchalarda ham adabiyotshunoslik tarkibidagi o'ziga xos o'zgarishlar, badiiy adabiyotga, adabiy jarayonga munosabat bildirishda turfa xil qarashlarning mavjudligi e'tirof etilmoqda. Istiqlol adabiy jarayoni va tanqidchiligi yuqorida qayd qilinganidek turfa xil ohanglarda talqin etilganidek, turlicha adabiy – tanqidiy qarashlarni ham shakllantirdi.

Adabiyotlar:

1. Boltaboyev H. Istiqlol imkoniyatlari: yangilangan an'analar va postmodernizm. Qarang: mustaqillik davri adabiyoti. –T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 238-bet.
2. Q. Yo'ldoshev. Yoniq so'z. Adabiy o'ylar. – Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006. 15-bet.
3. O. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. –T., ”Sharq”, 2004. -640 b.
4. U. Normatov. Ijod sehri. –T., “Sharq”
5. D. Qur'onov. Mutolaa va idrok mashqlar. –T., “Akademnashr”, 2013. -336 b.
6. H. Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. –T., ”Yangi nashr”, 2010. - 364 b.
7. N. Rahimjonov. Istiqlol va bugungi adabiyot. –T., “O'qituvchi”, 2013. -328 b.

MAVZU: SHE'RIYATDAGI POETIK O'ZGARISHLAR (GO'ZAL BEGIM, OYDINNISO, XOSIYAT RUSTAMOVA, VAFO FAYZULLO IJODI MISOLIDA)

Reja:

1. She'riyatdagi uslubiy izlanishlar.
2. Istiqlol davri she'riyatidagi poetik o'zgarishlar.
3. Vafo Fayzullo she'riyatining o'ziga xosligi.
4. Bahrom Ro'zmuhammad she'riyati haqida.
5. A. O'ktam, Chori Avaz, S. Sayyid she'riyatida lirik qahramon va kechinma talqini.

⁹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T., “Yangi asr avlodi”, 2006. 48-bet.

Tayanch soʻz va iboralar: *Sheʻriyatdagi oʻzgarishlar, noanʻanaviy talqin, moderen sheʻriyati, talqin xususiyati, lirik qahramon, kechinma.*

XX asr keskin burilishlarga boy boʻlgan davr sifatida tarix sahnasida alohida qayd qilingan. Adabiyot, xususan, sheʻriyat ham turli oʻzgarish va yangilanishlarga uchradi. Adabiyot tarixini chinakam ijod ahlining betakror ijod namunalarini bunyodga keltirganligi kabi, sheʻriyatdagi yangi bir toʻlqin uni yana yuksak darajaga koʻtardi. Oʻzbek sheʻriyatida ham muayyan oʻzgarishlar asr boshlarida vujudga kelgan boʻlsa, yillar davomida u yoki bu darajada rivojlanib keldi. Ayni chogʻda 60-yillarga kelib, oʻzbek adabiyotiga yangi koʻrinishdagi sheʻriyat namunalari ham boʻy koʻrsata boshladiki, bu esa sheʻriyatimizdagi yangicha talqinlar bilan yuzaga chiqqanligidan dalolat beradi. Bu davrda sheʻriyatimizda A.Oripov, E.Vohidov, R.Parfi kabi ijodkorlar qalam tebratgan boʻlsa, keyinchalik esa Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Qutlibeka kabi bir qator soʻz sanʼatkorlaridan keyin yangi bir avlod sheʻriyatni yangilashga intildi. Bular qatorida Ikrom Otamurod, Bahrom Roʻzimuhammad, Goʻzalbegim, Xosiyat Rustamova kabi ijodkorlar qalam tebratmoqda. Lirika davr muammolarini qahramon shaxsiyati orqali talqin qilishda, zamonda boʻlayotgan voqealarga uning tuygʻusi orqali munosabat bildirishda eng hozirjavob adabiy janrlardan biri sifatida koʻz oʻngimizda namoyon boʻladi. Lirik sheʻriyat tabiatidagi ana shu oʻziga xoslik fikrlar silsilasida qahramonining zamon va makon voqealariga boʻlgan tuygʻularini bera olish mahorati shoir lirik qahramoni orqali namoyon boʻladi.

Badiiy ijodda, xususan, lirika inson tafakkuri va va dunyoqarashi tez hamda sezilarli taʼsir etuvchi qudratli vositadir. Shuning uchun boʻlsa kerakki, sheʻr ehtiros ziynati, maʼnaviyat mulki va tafakkur mahsuli sifatida eʼtirof etilishi bejiz emas. Sheʻriyat- inson ichki olamini, ruhiyat dunyosini namoyon qiladi. Adabiyotshunos Izzat Sulton sheʻriyat haqida soʻz yuritib quyidagilarni qayd qilgan: “Lirik asarda borliq ijodkorning ichki dunyosi orqaligina oʻz ifodasini topadi... Shuning uchun lirikada shoir shaxsiyati birinchi planda namoyon boʻladi. Biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul etamiz va anglaymiz”.¹⁰

Shu oʻrinda savol tugʻiladi: hozirgi kunda shoirlar inson koʻnglini ruhini, dardini, armonini, orzu- istagini qay yoʻsinda ifoda etmoqda?

Agar 80-yillarning oʻrtasiga nazar tashlasak, hayotdagi oʻzgarishlar kabi adabiyotda ham juda katta “silkinish” vujudga keldi. Maʼlum bir

¹⁰Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T., “Oʻqituvchi”, 2005. 173-bet

qoliplarga, mezonlarga sig'maydigan she'riyat yuzaga keldi. Bunga sabab, adabiyotga, she'riyatga bir qator ijodkorlar kirib kelishi bilan izohlanadi. Masalan: Qo'chqor Norqobil - hayoti foydaga qolgan shoir uning she'rlarida ko'pincha "Urush sado"lari yangraydi. Ba'zan, shukronaliik, hayotsevarlik tasvirini kuzatish mumkin.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida esa, Ona- Vatan , betakror qishloq hayoti, go'zal bahor fasli, tog'-u dashtlari-yu, yomg'irlarini jo'shqinlik bilan kuylovchi shoir.

Zebo Mirzayeva- nafis tuyg'ular kashfiyotchisi, ishq va iztirob kuychisi. U – so'lim tabiatni shaydo shoirasi. Salim Ashur- esa oddiy hodisalarni falsafiy haqiqatlar pardasida taqdim etish holatini kuzatamiz.

Abduvali Qutbiddin – mantiq va ruhiyat dunyosini she'rga solishga intiladi. Eshqobil Shukur, inja tuyg'ular, rang-barang shakllar kashfiyotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Ulug'bek Hamdam – Iztirob iskanjasida qolgan lirik qahramonini yuzaga chiqarishga, tasvirlashga harakat qiladi. Yoki shoir shaxsiyatining olami emas balki taxayyul olamining cheksiz, chegarasiz ruhiy manzaralari butun murakkabligi bilan namoyon bo'ladi.

Xosiyat Rustamova 1971 - yilning 19-mart sanasida Namangan viloyati, Chust tumanidagi Olmos qishlog'ida tavallud topgan. 1998-yili o'rta maktabni tugatib Toshkent Davlat Universitetiga o'qishga kirgan. 1993-yilda ushbu ilmiy dargohni tugatgach, turli gazeta va jurnallar tahririyatida foliyat yuritgan. Shoira ning ilk she'ri talabalik yillaridayoq, mahalliy matbuotlarda dunyo yuzini ko'radi. Hozirgi kunga qadar "Osmondagi uy" (1997), "Najot" (2003), "Rido" (2004), "Devor" (2006) kabi she'riy to'plamlari nashr etilgan. M. Svetayeva, A. Axmatova ayrim she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Shoira 2004-yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan. Xosiyat Rustamova so'zlari haqiqatda rost, dardli va ajabtovur tarzda samimiy, eng muhimi, mukammallikni cheksizligini anglagan va ijod ilohiy ish ekanligini tushungan ijodkor. Uning deyarli barcha she'rlari hozirning o'zida o'nlab xorijiy tillarga tarjima qilinib, o'quvchini uyg'oqlikka, rostgo'ylikka chorlamoqda. Adabiyotimizning qutlug' dargohiga XX asrning 90-yillari so'nggida bir qator iste'dodli nihollar bilan kirib kelgan. Xosiyat Rustamovada esa fikrdan ko'ra his-tuyg'u ustuvor ijodkorning xayolat olami siqiq, ishq va ishqsizlik, go'zallik va fojealik, hayot va o'lim talqinini kuzatamiz.

Oydinniso she'riyatida esa – Ona ruhiyati, uning iztiroblari talqini yetakchilik qiladi. Xullas, keyingi yillar she'riyatida mavzular, shakllar rang-barangligi yetakchili qiladi. Adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev

qayt qilganidek: “Olamni yangicha his etish samarasi bo’lishi hozirgi o’zbek she’riyatida turg’unlik emas, doimiy o’zgarishlar an’anaga aylandi. Ya’ni o’zgarishlarning tinimsizligi an’ansi paydo bo’ldi, birovni takrorlamaslikning takrorlanishi qaror topdi va bugunga kelib har bitta chinakam shoir nafaqat birovni hatto o’zini ham qaytarmaslikka harakat qilayotir. Bu holat bugungi she’riyatning yetakchi belgisiga aylandi”. (1, 315-bet).

Darhaqiqat, she’riyatdagi tasvir an’anaviylikdan noan’anaviylik sari qadam tashladi. Fikr va ruhning yangilanishi estetik qarashlarning ham tozarishiga olib keladi. Bu esa inson didi va qarashlarining mahsuli sifatida yuzaga chiqdi.

Yo osmonning ustida yasha,
Yo yashagin ostida yerning.
O’rtasiga tushib o’tirma –

Yer va osmonning, - deb yozadi X. Rustamova

Bu o’rinda ham shoira qalbini titrabayotgan narsa ham tirikchilik, hayot murakkabliklarini, zahmatlarini tatish, “yer va osmon” ning o’rtasiga tushib qolish hayotiy qiyinchiliklargina emas, ramziy ma’no mavjudligini anglashga intilamiz. Inson ruhiyatidagi o’ziga xos xususiyatlarga mantiqiy urg’u beradi. “yashagin ostida yerning”, - deya ko’pchilikning butun – murakkabliklariga chizishga intiladi. Obrazli tashbehtar yetakchilik qiladi. Yoki,

Aslida yo’llar ko’p –
Eshiklar ochiq,
Xoh peshin bo’lsin-u va yo ertalab.
Men xamon kimgadir achchiqma-achchiq,
Dunyoga boraman teskari qarab,
Odamlar qaygadir borishar shoshib,
Ertangi kunlarga qo’ygani qadam,
Men esa hovliqib, tog’lardan oshib –
Kechagi kunlarga ketgan bo’laman.

Shoira she’riyatining o’ziga xosligi bu misralarda yanada yorqinroq namoyon bo’ladi. Misralar tarkibidagi Yo’l, Eshik, Dunyo, Kun, Tog’ kabi poetik obrazlar o’ziga xos tanbehona ifodalaganini kuzatamiz. Shu o’rinda iste’dodli shoirlardan biri Ashir Xudoyberdining quyidagi misralariga hamohangdek taassurot uyg’otadi.

Men olamdan o’tmadim, balki olam
Mendan o’tdi. Endi mening zuvalam
Buyuk kulol ilkidadir, xohlasi,

Ko'za yasar, xohlasa yana odam (3, 146-bet).

E'tibor beradigan bo'lsak, "Men olamdan o'tmadim, balki olam mendan o'tdi"- ya'ni hayotiy o'limni yenga olgan lirik qahramon jonlanadi, ko'z o'ngimizda.

Shoira X.Rustamovadagi "Kechagi kunlarga ketgan bo'laman"- deganida she'rdagi voqelik hayot haqiqatiga mutlaqo teskari shaklda tasvirlangan. Axir, ertangi kunga borish mumkindir, ammo kechagi kunga, o'tgan biror daqiqaga qaytish mantiqsizdir. Lekin shoira o'ziga xos tasvir usuli, xuddi ma'nosizdek tuyulgan tushuncha yuksak ma'no ifodalaydi. Ko'rinayaptiki, shoir shaxsiyati yuqoridagi misralarda ham go'zal tashbehlar orqali tasvirlanadi.

Shuningdek, Sirojiddin Sayyid she'riyati ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Adabiyotshunos N.Rahimjonov shoir ijodi haqida so'z yuritib yozadi: "Chinakam shoir uchun so'z- bu fikr aytish, kechinmalarni ifodalash vositasigina emas, balki yashash tarzi, yashash shaklidir. Har bir so'z badiiy asardagi g'oyaviy estetik maqsadga ko'ra muayyan ma'no kasb etadi".

Darhaqiqat, har bir ijodkor so'zni teran ma'nolarda qo'llashga intiladi. Tasvirda esa uning shaxsiyatini namoyon etadigan o'zigagina xos didi, hissiyoti, ko'ngil tebranishlari mavjud bo'ladi:

Yurtim! menga zar kerakmas zarlaringdan,
Kipriklarim o'psalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo'lib keldim, men bir nasim,
Aytib o'tsam deyman ko'hna dardlaringdan.

Shoir she'riyatida ijtimoiy estetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning o'ziga xos bir qirradi Vatanga bo'lgan muhabbat namoyon bo'ladi. Lirik qahramon birgina shamol bo'lib kelgani, unda ham bir dard borligini ilg'ab olamiz:

Almashdilar seni nomu rutbalarga,
Munglug' bo'lib qolding botib shubhalarga.
Hilolarining qaytar yana qubbalarga,
Moziylarga so'ylab-so'ylab zarlaringdan.

Yoki,

Menga dunyo kerak emas, bir xas yetar
Yassaviylar yozgan aziz yerlaringdan

"Ilinj" nomli she'rdagi gard, nasim, sas, xas, barg, buloq detallari lirik qahramonining mehr-muhabbatini tiniqlashtiradi. Ona-Vatanga

bo'lgan mehrini, sadoqati “menga dunyo kerak emas, bir xas yetar” misralarida mujassamlashgan.

Dastlabki to'plamlaridan “Kuydim”, “Vatanni o'rganish”, “Ko'ksimdagi zangorlarmi”, “Ko'ngil sohili”, “Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni” saylanmasiga shoir ijodi yuksalib, o'sib ketganligini kuzatamiz. Chunki Vatan mavzusida she'r yozmagan shoir yo'q. – desak, mubolag'a bo'lmas. Ammo S.Sayyib betakror ovozga ega ekanligini shu mavzuni yoritishda ham ko'ramiz, u ifodaning mutlaqo o'ziga xos, oharli usulini topa olgan. Shoirning hamdardlik she'rida xalqning mashaqqatli mehnati, hayot tiriklik saboqlari, iztiroblari, yoki umrining mohiyatini, jannatdagi o'rnini anglay boshlagan tirik qahramon kechinmalarini kuzatamiz:

O'zdan chiqqan balolarmi yo kimlar,
Sening rizqu nasibangni qiyqimlar?
Yetimning ham haqqin yulib taqsimlab
Chirqiragan tana-tillo, pulim-ay,
Voy elim-ay, voy elim-ay, elim-ay!
Boshqa bir o'rinda esa:
Qishin yozin tinmay mehnat aylagan,
Mehnatini na bir minnat aylagan.
Shu Vatanni sha'nu-shavklat aylagan,
Obod bo'l qurimay ham so'nmay.
Osh-u noni doim halol elim-ey!

She'r – cheksizlikning chekida tug'ilgan dunyo. Shoir ko'nglini o'rtagan og'riqli so'roqlarga voqelikdan, jamiyatdan javob izlaydi. Shaxs erki, ko'ngil hurriyati odam bilan tug'iladi, erkinlik boy berilgan joyda fojia yuzaga keladi. Shoirlar hayotni, inson dunyosini, ruhiy olamini, zamondoshlarimizning o'y-fikrini, dardi-yu quvonchlarini “tuproqdan ham xoksorroq elim”ning g'am-anduhlarini, armonlarini aks ettirishga qaratilgan. Adabiyotshunos N.Rahimjonov qayd qilganidek: “shoirning lirik qahramoni mustaqillik sharofati bilan atrof – tevaragimizda kechayotgan hayot buxronlarini, voqea-hodisalar mohiyatini ko'ra biladi; millat va Vatan manfaatlari, shaxsning ma'nan va fikran kamoli nuqtai nazaridan baholay oladi”, – deb yozadi.

Ota bu dunyoda har so'z sotiladi,
Begona sotiladi, ham do'st sotiladi.
Yaxshilik istabon o'tgan umrimiz,
Choponday eskirdi, to'zdi sitildi.

Lirik qahramonining krchinmalari xalqona hikmatlarga yo'g'rilganligini kuzatamiz. Inson va jamiyat, tiriklik va hayot ularning ma'no mohiyati yangicha mazmunda talqin etiladi. Jiddiyroq e'tibor berilsa, inson ruhiga zug'um qiluvchi, tazyiq o'tkazuvchi holat tasviri kuchayib boradi. Erkin ruhdan mahrum, imondan, e'tiqoddan adashgan shaxslar qiyofasi ko'z o'ngimizda jonlanadi, ma'lum bir xulosalar chiqarishga undaydi. Tasvirda ularning achchiq qismati ifodalanganligi o'z-o'zidan anglashilib turadi.

Adabiyotda ham xuddi hayotdagi singari har kimning o'z yo'nalishi va manzili bo'ladi. Yozuvchi asar yaratish jarayonida o'zi belgilagan mezondan kelib chiqib, manzil sari harakat qiladi. Bu yo'lda u nimalarga e'tibor beradi, nimalarni oladi, qaysi so'qmoqlardan qanday yurib o'tadi albatta yozuvchining shaxsiy ishi. Bu yozuvchining iqtidoriga bog'liq.

She'riyat esa inson qalbi kechinmalarini sof tuyg'ular, nafis ifodalar, his hayajon bilan musiqiylikka yo'g'rilgan holda manzil sari yetaklab boradi. She'riyat dag'allikni ko'tarmaydi. Qachonki inson yuragining g'alayoni, botinidagi sarhad bilmas hayqiriq ko'ngildan quyilsa, hech qanday andozaga sig'masa- poeziyada dag'allikni, ehtirosli talotumni tushunish mumkin, hatto tabiiy holda qabul qilish ham mumkin. Xosiyat Rustamova she'riyatidagi sehr shundaki shoira qalbini qo'lga olib kuylay bildi. Natijada, poeziyada jahon she'riyatida ko'ngil va botinning mulki sifatida jaranglagan yana bir ovoz paydo bo'ldi. Har bir o'quvchi she'riyat haqida o'ylar ekan, ezgulik, yorug'lik va hayajon kabi tushunchalari insoniyat uchun eng muhim tarbiya vositasidir. Insonning hayrati sevgisi iztirobi hamma tillarda bir xil ma'no bilan talqin etiladi.

Men ham Jarayonning porloq yo'llarini sinchiklab kuzatayotgan o'z qalbi va tafakkuri to'qnash kelganda lahzalar suratini iqtidor chizayotgan iste'dodli shoira "Turkiston" gazetasida chop qilingan she'ridan parcha keltiramiz.

Shamol daraxtlarni soldi larzaga,
Tunga qorong'ulik kelganda malol.
O'lim muhabbatga tashna lahzada-
Sochim gullayotgan bo'lsa ehtimol.

Yuragimda kechgan og'riqni sizga qanday tushuntirib bersam ekan? Qani endi tadqiqotchi bo'lganimda edi, buni o'ylab o'tirishga hojat qolmagan bo'lardi. Shoira "Tiriklikka maktub" she'riy turkumida shunday hikoya qiladi: "Kasalxonaning sovuq derazalariga o'ychan tikilarkanman, tashqarida egasining tepkisidan faryod ko'targan itning ayanchli vovullab qochgani eshitildi..."

Yotib birdan xo'rligim keldi,
Shu xonaning chiroqlariga.
O'zim borar edim...
It bo'lsam —
Shu odamning oyoqlariga.

Biz birda yetib, birda yetmagan tiriklik qadri – tepki yeb qochayotgan itga havas qilish uchun esa odam shoir bo'lishi kerak. It bo'lib, o'sha odamning oyoqlariga tepki yeyish uchun borishni o'limdan afzal bo'lish uchun odam – katta shoir bo'lishi kerak. Ba'zan inson ruhiyatida shunday kechinmalar bo'ladiki, hamma narsa seni ermaklayotganga, ustingdan kulayotganga o'xshaydi. Xosiyat Rustamova shunday holatga tushganda yozganga o'xshaydi bu she'rni.

Yashash o'zi shumi?
Nahot –
Ermak bo'lib tunlarga
Meni boshlab ketdi hayot –
Ertasi yo'q kunlarga....

Xosiyat Rustamova tuyg'ulari she'rlarida mavjlanib oqadi. U so'zni shunday yorqin tarzda ko'ngilning izmidan kelib chiqib mahorat bilan ishlatadi. Unda zo'rma –zo'rakilik yo'q. Unda shoirning dunyosiga, shoirning qalbidagi mo'jizakor ummonga hech qachon quruq va hissiz so'zlar mayib-majruh satrlar, qolaversa , haddan tashqari quyuqlashtirib rang berilgan, ilojsizlikdan, badiiylik yarataman deb, aslida alahsirashdan boshqa narsa emas yolg'on oh-vohlar yo'q. Xosiyat Rustamovaning she'riyati-tuyg'u, qalbidagi og'riq, borliqni badiiy obrazlar orqali so'zlatib , shoirning “Meni ”bilan munosabatga doimiy ravishda kirishadi. U mayda-chuydalar ikir –chikirlarga o'ralashib qolmaydi. Insonni o'yg'a toldiradigan, bu dunyoning deysizmi, bu hayotning deysizmi mohiyatini anglashga urinayotgan, izlanayotgan, bezovta bo'layotgan shoira. Shuning barobarida Xosiyatning she'riyatda yuksalib borayotgani, uning ham anchagina yuksak ekanligini ko'rishimiz mumkin.

She'riyat insonning ichki olamini, ruhiyat dunyosini namoyon etuvchi, ko'rsatuvchi ko'zgu. U xolis tarbiya vositasi, oliyjanob tanqid quroli. Xosiyat Rustamova modernistik she'rlarida inson botinining jilvalari, uning tuyg'u va kechinmalari tabiat manzaralari bilan hamohang tarzda tasvirlanadi. Modern she'r ma'nosi siyqa, jo'n va oddiy fikrlar tizmasidan iborat emas. Bunday she'r bag'rda kitobxon didini, saviyasini, dunyoqarashini o'tkirlashtiradigan g'oyaviy tilsimlar yashirin yotadi. Modern she'r, ta'bir joiz topilsa, sinoatlar tilsimi. Uni idrok etish,

tushunish, tushuntirish mumtoz timsollar akterini ilg'ash va talqin etishdan og'ir va murakkab tadqiqiy hodisa. Modern she'rda fikrdan ko'ra his-tuyg'u ustuvor. Unda ijodkorning xayolot olami siqiq, lo'nda va ixcham bir tarzda ifoda etiladi. Xosiyat Rustamova she'rlarining mavzular olami rang-barang. Ularda shaxsiy hayot kechinmalari, hayot va o'lim, umr va vaqt, muhabbat, azob va iztirob axloq-odob, inson taqdiri va boshqa "ming bir" ma'nolar mujassam. Shu bilan birga alohida e'tirof etish joizki shoira she'rlarida tun va kun, zulmat va yorug'lik timsollari juda ko'p uchraydi. Ijodkor mahorati shundaki bu kabi ramzlarni uning har bir she'rda turlicha talqin qilish mumkin. Tun va kun manzaralari va fasllar nomi inson kayfiyati va qalb kechinmalarini obrazli ifodalab kelgan.

Tun nogahon ingradi cho'zib,
Birdan shamol ko'tardi faryod.
Yerdan bori ko'nglini uzib—
Telbalanar daraxtda hayot.
Hatto qushdan qolmagan asar,
Tun ko'nglini ko'tarmas sayrab.
Bu bog'larda shu kunga qadar —
Bo'lmaganday hech qachon bayram.

Ushbu she'rda inson hayotidagi murakkab va qiyin davr tunga mengzalmoqda. Tundan oldin yaxshi va baxtli kunlar ham bo'lganligi haqidagi fikr : "Bu bog'larda shu kunga qadar- bo'lmaganday hech qachon bayram" satrlari bag'riga yashiringan.

Tong
Yarador tun ko'karib,
So'ngra taslim qilar jon,
Miltig'ini ko'tarib —
Qayda izg'ib yurar tong?!

Ushbu o'rinda esa Tong va tun konflikt qo'yilgan bo'lib, yaxshilik va yomonlik ortasidagi kurash, yoki insondagi tushkunlik va ko'tarinkilik kayfiyati deya talqin qilish mumkin. Xosiyat Rustamovanning ijod ko'lami keng. U insoniy fikr tuyg'ularni falsafiy mushohada qobig'ida bayon qiladi. Shoira she'riyatining mavzusi, polifonik tabiati rang –barang. She'rlaridagi serqatlam ma'no va poetik ifoda uyg'unligi shoirning poetik mahoratidan darak beradi. Xosiyat Rustamova she'rlarida badiiy so'zning turli tovlanishlari, lirik obraz ko'lamining kengligi poetik tafakkuri betakrorligini kuzatish mumkin. Zotan, she'riyatda shoirning so'zi muhim, so'z shoir qiyofasi va "men" ligi, so'z — shoir badiiy g'oyasini ifoda

etadigan mo'jizaviy vosita. Shoir she'rlarida so'zlar tovlanishini kuzatamiz. Xosiyat Rustamova o'z individual poetik olami, original ifoda usullari bilan o'quvchilar qalbidan joy oldi.

She'riyat ijtimoiy hodisa sifatida insonning ruhiy mohiyatidan ibtido qilinadi. Har qanday she'r markazida o'zining quvonch tashvishlari, orzu armonlari bilan Inson turadi. She'rni tahlil qilar ekanmiz, biz xuddi shu insondan, uning tabiatidan, maqsad va intilishlaridan, shu asosda yaqinlashajagimiz inson mohiyati turli davrda turlicha jilo beradi. KO'NGIL SHE'RIYATI... bu olam badiiyat olamidir. Uning mohiyati xuddi kamalakning mazmuniga o'xshaydi, ya'ni ko'rish, zavqlanish, quvvat olish, nihoyat, idrok etish mumkin-u, biroq uni ushlash orqali his qilish imkonsiz. Chunki bu olam ruhoniyydir, aslo jismoniy emas. U ham o'z qiyofasiga ega, lekin biz ko'nikkan suratdan yiroq. To'g'rirog'i undagi obrazlar tizimidan iboratdir "San'at o'z mohiyatiga ko'ra zavqi tabiiydir". Shoir she'riyatida DARD bor. Dard insonni xuddi qo'shni kishanlagan qafas yanglig' qisadi. Shunda insonning ruhiyati parvoz etmoq uchun o'zini qafasning to'riga urgan o'sha qushdek oldinga intiladi, qutulmoq istaydi. Qafasni yorib chiqqan qush misol osmon bilan, hurlik bilan, hali bilmagan imkoniyatlar bilan to'qnashadi. She'r aynan shu mohiyatiga ko'ra tomon intiladi, talpinadi.

Tabiatning go'zal manzaralari, ramziy poetik obrazlarsiz she'riyat ham juda qashshoqlashib qolgan bo'lar edi. Shoiraning yil fasllaridan "kuz", "bahor", "yoz" oylardan esa "avgust", "mart" deb nomlangan she'rlari bor. Yil fasllari nomi bilan atalib she'rda ko'proq tabiat tasvirlangan bo'lishiga qaramasdan undagi lirik qahramon insondir.

ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. "Yangi asr avlodi", 2006. – B.548.
2. Rustamova X. Avgust. She'rlar. – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2008. – B.148.
3. Amir Xudoyberdi. Evrilish. Saylanma. – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2002. –B 24.
4. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, "O'qituvchi", 2006.
5. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati. – Toshkent, "Fan", 2007. – B. 300.

MODERNIZM VA POSTMODERNIZM XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Modernizm va uning xususiyatlari.
2. Postmodernizmning o'ziga xosligi.
3. Modernizm va postmodernizm adabiy oqimlari va o'zbek adabiyoti.
4. Bu oqimlarning talqin usuli va adabiy – tanqidiy qarashlar.

Tayanch so'z va iboralar: *Modernizm, postmodernizm, farqlanish xususiyati, adabiy-tanqidiy qarashlar, talqin va tahlil.*

Modernizm adabiy oqimi haqida istiqlol davri adabiy jarayonida bir qator fikrlar bayon etilgan. Uning o'ziga xos tasvir usuli, talqin jarayonidagi badiiyat mezonlari haqida qarashlar ham turfa xildir. Bu adabiy oqim haqida so'z yuritgan adabiyotshunos H. Boltaboyev shunday yozadi: "Hozirgi adabiy davralarda urf bo'lgan "modern" so'zining adabiy mohiyati haqida so'z yuritganda bizning sh'eriyatga g'arbdan yuqqan "epidemiya" debgina qarash nafaqat mantiqiy xatoga yo'l qo'yish, balki o'zbek she'rining bugungi mushohada tabiati va yangi shakllar ilinjidagi izlanishlarini imkon etish hamdir".¹⁶ Keyingi yillar she'riyati va nasrda ham modernizm adabiy oqimining o'ziga xos tarzda ta'sirini kuzatamiz. An'analar bilan bir qatorda, noan'anaviy asarlarning shakllanishida va yaratilishida bu adabiy oqimning sezilarli ta'siri mavjud. Nasrda Xurshid Do'stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton kabi bir qator ijodkorlarni ijodida modernizm adabiy oqimining o'ziga xos ta'siri kuzatilsa, she'riyatda A. Qutbiddin, B. Ro'zimuhhammad, Go'zal Begim, Xosiyat Rustamova kabi o'nlab ijodkorlarning she'riyatiga ta'sirini ham ko'rishimiz mumkin. "Modern oqimi adabiyot va san'at uslubi sifatida insonni o'rab turuvchi muhitni bezatishga, unga oro berishga harakat qiladi; hayotdagi jarayonlarni, mayda – chuyda ko'rinishlargacha tomosha, spektakllarga aylantirishga, rang – barang til, fikr bezaklari bilan o'rab – burkab, badiiy matnni murakkablashga intiladi. Buning sabablaridan biri G'arb jamiyatida yuksak ideallarning qadrsizlanishi va insonning huzur halovatsiz, bir zaildagi ma'nosiz hayoti, ruhiyatidagi parokandalik edi".¹⁷ Adabiy jarayondagi har bir yo'nalish ko'proq o'zi ommalashgan davr ruhi, ijtimoiy hayotning butun rang-barang kayfiyati

¹⁶ Boltaboyev H. Istiqlol imkoniyatlari: yangilangan an'analar va postmodernizm. Qarang: mustaqillik davri adabiyoti. –T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 238-bet.

¹⁷ Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti. Maqolalar to'plami. –T., "Mumtoz so'z", 2012. 18-19-betlar.

ifodasi uchun mos keladi. Xususan, postmodernizm 90-yillar ijtimoiy hayotida ijodkor e'tiborini tortgan bo'lsa, postmodernizm bugungi kun kishilari ruhiyatini belgilaydi. Yozuvchi va adabiyotshunos U. Hamdamov hayotni badiiy talqin etish jarayoni haqida so'z yuritar ekan quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Har qanday metodda yozilgan asarning uzoqroq umr ko'rishning sharti, fikri ojizicha, uning zamin bilan, undagi real hayot bilan, odamlarning taqdiri bilan qay darajada bog'langanligidadir. Ya'ni, asar – xoh u realistik, xoh u modernistik va hatto u xoh fantastik ruhda bo'lsin, o'z botinida shunday bir tuynik yashirgan bo'lishi kerakki, shu tuynik orqali biz o'z qiyofamizga, qalbimizga, qismatimizga nigoh tashlay olaylik".¹¹

Ammo o'tgan davr mobaynida postmodernizm borasidagi qarashlar xilma-xilligi, asosan, uning milliy adabiyotimiz namunalarida bor yo yo'qligi masalasi bilan cheklanadi. Mutaxassislarining aksariyat chiqishlarida postmodernizmnı o'zbek mentalitetiga yot hodisa sifatida talqin etish, bu yo'nalishni sharhlash yoki uni tasdiqlash va shakl xususiyatlariga mahliyolik ustuvor ekani kuzatiladi. Aslida, o'zbek postmodernizmi ham, xuddi G'arbdagi kabi o'zining ijtimoiy-ruhiy asoslariga ega estetik hodisa bo'lib, uning ortida 80-yillar oxiri 90-yillar avvalida mintaqamizda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning kayfiyati yashiringan edi. O'zbek postmodernizmining "qaynagan" vaqti 90-yillarga to'g'ri keladi. Bunga sabab ijodkorlarni birlashtirgan bir xil kayfiyat va shu kayfiyatni ta'minlab turgan "o'tish davri" edi. Nazar Eshonqul, Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdamning qissa va hikoyalari yaqin o'tgan tarixning butun kayfiyatini akslantiradi, axir. Chunki bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o'tish xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotida jiddiy qiyinchiliklar bilan amalga oshgani hech kimga sir emas. Shu ma'noda 90-yillar adabiy jarayonida bilibmi yo bilmay postmodernizm bayrog'i ostida birlashgan ijodkorlar avlodini bir xil kayfiyat umumlashtirib turardi. Lekin unga "sof", "ijtimoiylikdan holi" san'at sifatida qaraldi, uning ortidagi kayfiyat unutildi. O'tgan davr mobaynida nasr taraqqiyotida turfa xil o'zgarishlar yuzaga keldi: "... psixologik holatlarning eng teran qatlamlarda ro'y beradigan oniy o'zgarishlar, ruhiy po'rtanalar qay tarzda xatga aylanadi, uning texnikasi qanday sirliligicha qolaveradi, shu bois tafakkurning oniy lahzalarida bir silkinish tarzida yuz berayotgan, haqiqiy tushga o'xshash ruhiy holat qanday usullar bilan qog'ozga ko'chdi, nega u hozirgacha adabiyotimiz

¹¹ U. Hamdamov. Turfa ranglar uyg'unligi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 2000. 29-sentabr. 2-bet.

tasvirlab kelgan “soxta” tush tasviridan o’ta farqliligicha, noma’lumligicha qolaveradi”.¹²

Obyektiv hodisa sifatida, bizning postmodernizmga salbiy yo ijobiy munosabatda bo’lishimizdan qat’iy nazar, u madaniy hayotimizda mavjud bo’ldi va sezilarli iz qoldirdi. Faqat uni tahlilga tortganimizda milliy ruhni nazardan qochirmasligimiz, o’zbek postmodern adabiyotini G’arbdagisiga taqlid sifatida yoritmasligimiz talab qilinadi. Kezi kelganda ta’kidlab o’tish joizki, hozirda bu postmodernchilarning ko’pchiligi sust ijod qilmoqda yoki umuman yozmay qo’ygan. Yozayotganlari ham o’z uslubi, maqsad va g’oyalarini o’zgartirgan. Chunki 90-yillar sharoitida bu ijodkorlarni “qaynatgan” kayfiyat allaqachon so’nib ulgurgan. Bugungi kun esa kechagisidan tamomila farq qiladi. Fan-texnika, kommunikativ vositalarning hadsiz rivoji davr kishilariga tarqoq kayfiyatlarni ulashmoqda. Olam bugungi kun kishisi uchun turli rakurslardan akslanmoqda. Dunyoda sodir bo’layotgan tezkor o’zgarishlar, siyosiy-iqtisodiy vaziyat, o’ziga xos demokratik tamoyillar ortidagi ma’nisiz turmush kishi xayolini shoshiradi, uning maqsad va vazifalarini kichraytiradi. Adabiyotshunos Q. Yo’ldoshev qayd qilganidek: “Davr va adabiyot muammosi g’oyat murakkab hodisadir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o’zgarib turishi bo’lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o’zi yaratilgan zamonga qaraganda ko’proq yashashga intilishi, barqaror bo’lishga urinishidir... ayni vaqtda, o’tgan yillar shunday salmoqqa, shunday o’zgartuvchilik qudratiga egadirki, xalq psixologiyasi, dunyoni idrok etish, tushunish va tushuntirish tarzida shunchalik katta o’zgarish yasadiki, avvalgi bir necha o’n yilliklarda ham bunday qilib bo’lmasdi”.¹³

Darhaqiqat ijtimoiy hayotdagi jiddiy o’zgarishlar, inson tafakkurining teranglashuviga olib kelmoqda shuning uchun har qanday o’zgarish inson ruhiyatiga o’z ta’sirini o’tkazadi. Yangi fan olg’a surayotgan universal evolyutsionizm g’oyasi va sinergetika borliqning bir butunlik paradigmasini tasdiqlaydi. Unga ko’ra, olam – biosfera, noosfera, jamiyat, inson – yagona, yaxlit tizimda mujassamdir. Buning natijasi o’laroq ma’lum bo’ladiki, inson o’zi tadqiq etayotgan “obyektiv” voqelikdan aslo tashqarida tura olmaydi. Go’yo u futbol haqida tomoshabinday emas, balki o’yinchiday taassurotga ega, xalos. Demak, uning olamni bilish jarayonidagi tasavvur va xulosalari ham haminqadar...

¹² B. Nazarov, M. Tenglashov. Qismatga qastma-qast. O’zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi, 1989. 28-aprel. 4-bet

¹³ Q. Yo’ldoshev. Yoniq so’z. Adabiy o’ylar. – Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2006. 15-bet.

Albatta, fan taraqqiyotining xos tamoyillari o'z yo'liga. Ammo fan va madaniyat rivoji o'zaro bog'liq tendensiyalar asosida davomlidir. Shu ma'noda postmodernizm yo'nalishi bugungi ilm-fan, ijtimoy-siyosiy hayotning butun nozikliklari bilan ifodalovchi asosiy metodlardan biri sanaladi. Postmodernizm o'ta murakkab va serqirra yo'nalish bo'lib, u ifoda shakllari, mazmun-mohiyatiga ko'ra rivojlanib bormoqda. Uning asosida olamni xalos deb bilish, parokanda va bema'ni dunyoda inson mavjudligining ahamiyatsizligi ifodasi yotadi. Hamonki shunday ekan, san'atkor ham o'zi yaratayotgan asarda olamni bilish, uni tushunish va tushuntirishga bo'lgan ehtiyojini unutadi, dunyoni yaxlit, maqsadli "metarivoyat"lar o'rniga uzuq-yuluq, tartibsiz "rivoyat"lar asosida ifodalaydi. Postmodernizm bugungi kundagi omma madaniyati (popkultura) va ommaviy didsizlik istilohlari bilan ham uzviy aloqadagi hodisadir. "Ozod" romani haqida so'z yuritgan adabiyotshunos olimlar asar sujeti noan'anaviy talqindan iborat ekanligiga alohida urg'u beradi. Adabiyotshunos D. Quronov shunday yozadi: "Isajonning bitigi an'anaviy yo'lda yozilmaganligi aqlga tayin, lekin uni modernizm yo post modernizmga taalluqli etishga – da qiynaladi kishi. Modernistik asar deyil sa, unda ham turfa uslublar – ko'hna diniy rivoyatlardan tortib hozirgi "internet tili" gacha, ham turfa janrlar – qadim diniy didaktikadan tortib urfdagi "boyevik" kacha... quroq – qorishiq bir butunlik kasb etayotibdi".¹⁴

Yozuvchi romanlaridagi badiiy tasvir g'arb va sharq adabiy an'alarini o'zida mujassamlashtirganligi bilan alohida ajralib turadi. O'zbek adabiyotida postmodernizmning kurtaklari bundan yigirma yillar oldin, biz postmodernchi deb atayotgan shoirlar bisotida aks etgan bo'lsa-da, unga jiddiy qiziqish juda kech boshlandi. Aniqrog'i, adabiyotshunosligimiz postmodernizm va postmodernizmni o'zaro farqlash ehtiyojiga biroz keyinroq yetib keldi. Ayniqsa, Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanidan so'ng postmodernizmga qiziquvchilar yanada ko'paydi. Albatta, yangi roman yozilishida e'tirof etayotganimiz yo'nalishning ta'siri katta. Adib xuddi postpostmodernchilar kabi dunyo manzarasini kichik, uzuq-yuluq voqealar asosida chizadi. Zamon va makon uyg'unligi buzilgan roman ifodasida tarix, bugun va kelajak qorishib ketadi. Unda siz turmush hayotimizning kichik detallaridan tortib, zamonaviy ilm-fan yutuqlari, tarix solnomalari, afsona va rivoyatlardagi sujet motivlari, falsafa, siyosat, madaniyatga daxldor omillarning bevosita va bilvosita

¹⁴ D. Quronov. O'ylashga undovchi asar. <http://www.yozuvchi.uz>.

ifodasi, intertekstual o'yinga duch kelasiz. Ammo muallif postmodernizmning mana shunday shakliy xususiyatlariga murojaat etadi, xalos. Ya'ni postmodernizmga xos ifoda shakllari sharqona tafakkur xususiyatlari bilan payvandlanadi va mazmun-mohiyati bilan uni inkor etadi. Agar G'arb postmodernizmi olamni bema'ni deya hukm chiqarsa, Isajon Sulton romanida shu ma'nisizdek ko'rinayotgan dunyoda darbadarlikdan qochish kerakligi g'oyasi olg'a suriladi. Ahamiyatlisi, ijodkor mavjud sharoitning xatolik ifodasidan qochmaydi. Ya'ni roman qahramonlari o'z mavjudligidagi haqiqatni turli yo'llardan qidirarkan, muallif aniq bir hukm, idealni ko'rsatishga ojiz ekanligini yashirmaydi. Lekin uning qahramonlari ana shu idealni qidirishdan charchamaydi. "Romanda Ozod degan «nigohi tiniq» bir o'smir sevgilisiga tog'lar cho'qqilarida o'sgan baxt lolasini olib kelish uchun yo'lga chiqadi. Voqea oddiy va hammamizga juda tanish. (Bir mahallar bir to'p qush ham Semurg'ni izlab yo'lga chiqqan edi). Asar boshidanoq u chechakning sirayam lola emasligini anglab qolamiz. Nafaqat u, balki tevaragida ro'y bergan barcha hodisalar va narsalar boshqa mazmun kasb eta boshlaydi. Buni yozuvchi akslar falsafasi deb nomlaydi. Tevaragimizdagi dunyo sobitdir va o'zgarmasdir, undagi voqea – hodisalar sizda akslanadi, chunki siz ularga qiymat berasiz, deydi yozuvchi. Siz qiymat bergan narsa qadrli, qiymat bermaganingiz esa beqadru kambahodir. «Ozod» romani boshdan oyoq mana shu asosga qurilgan. Har bir narsa, voqea-hodisa muttasil akslanmoqda. Va tabiiyki, u holda biz bilgan olam ortida boshqa yana bir olam bor. Asardagi har bir detal, har bir qiyofa muttasil o'zgarishda", - deb yozadi adabiyotshunos olim A. Rasulov.¹⁵ Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'zbek adabiyoti, xususan, nasrida o'ziga xos bir yo'nalish shakllanib bormoqda. Albatta, u bugunning kayfiyati, ijtimoiy-madaniy hayotning ifodasi uchun juda mos keladi. O'zbek adabiyoti shaklda har qancha yangilanmasin, o'z mohiyatida sharqona yashash falsafasini saqlab qolaveradi. Shu bois ham ularda olamni anglash yo'lida inson irodasidan tashqaridagi kuchning bevosita ifodasi, insonni dunyo charxpalagining oddiy, ammo kuzatuvdagi yo'lovchisi sifatida tasvirlashga bo'lgan harakat mavjud. Ammo biz uni G'arbda shakllangan postmodernizm nuqtai nazaridan tushunishga harakat qilsak, postmodernizmga bo'lgan munosabat aynan qaytarilishi mumkin. Shu sababdan hozirgi kun adabiyotini tadqiq etayotganda dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlar va postpostmodern san'atining muayyan ta'sirini inkor etmay, uy o'nalishni

¹⁵ A. Rasulov. Akslar falsafasi. Qarang: Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent, "Sharq", 2012. 407-bet.

o'zbek postmodernizmi, deya atashimiz maqsadga muvofiq. O'zbek postmodernizmi yo'nalishida yozilgan asarlardan biri Isajon Sultonning "Ozod" romanidir. Isajon Sulton ijodi haqida so'z yuritgan bir qator adabiyotshunoslar yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi, tasvir jarayonidagi inson ruhiyati bilan bog'liq holatlarni yuksak darajada badiiy talqin etganligini asoslaydi. Adibning "Ozod" romani keyingi yillar badiiy adabiyotidagi o'ziga xos betakror tasvir usuliga ega ekanligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan yozuvchining bu romanida hayot voqeligi inson tafakkuridagi ma'naviy evrilishlar, ziddiyatlar orqali ramziy obrazlar asosida talqin etiladi. Shuning uchun ham roman jahon adabiyotidagi turli tasvir usullaridan oziqlangan asar sifatida baholanayotganligini alohida ta'kidlab o'tish zarurdir.

Isajon Sultonning "Ozod" romani o'zbek adabiy tanqidchiligida yuksak darajada baholangan keyingi yillarda yaratilgan romanlardan biri hisoblanadi. Yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi jahon adabiyotidagi mavjud yetakchi tamoyillarini asar sujetiga singdirishi bilan alohida ajralib turadi. Romanning akterli xususiyati insonning hayotdagi o'rnini tafakkur dunyosini boyitish bilan bir qatorda, o'zlikni teranroq anglashga undovchi asarlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Yangilanayotgan jamiyatda milliy istiqlol ta'sirida Inson ongida, ruhiyatida kechayotgan poklanish jarayoni romanda o'z in'ikosini topar ekan, tabiiyki, inson hayoti o'ziga xos murakkabliklari, ziddiyatlari bilan birgalikda talqin etiladi. Bu davr romanchiligi tahlili shuni ko'rsatadiki, nafaqat an'anaviy, balki noan'anaviy romanlarda ham romanga xos tafakkur mezoni o'ziga xos tarzda namoyon bo'lgan. Albatta, noan'anaviy roman ham badiiylik nuqtai nazaridan roman janri talablariga javob berishi shart. Ammo bunda roman qandaydir bir etalon sifatida yaratiladi degan noto'g'ri xulosa kelib chiqmasligi kerak. Har bir roman yaratilishi jihatidan usluban yangi, betakror bo'lishi bilan birga, o'zidan oldin yaratilgan roman janriga xos badiiy komponentlarni o'zgargan, rivojlangan yoki boshqa shaklda o'zida mujassam etib, romanning janr taraqqiyotini ham ta'minlashi kerak. Janr taraqqiyotining progressivlik yoki regressivlik xususiyati esa har bir roman individualligi bilan bog'liq. Romannavis yozuvchining vazifasi roman va badiiyatini ta'minlash bilan cheklanmaydi, u jamiyat taraqqiyot tadrijini falsafiy mushohada qilish va mantiqiy anglash orqali romanga badiiy talqin uchun jalb etilayotgan jamiyat tafakkuriga monand roman tafakkurini yaratadi. Isajon Sultonning "Ozod" romanini romanga olib kirilgan manba va unga nisbatan yozuvchi munosabati va talqin uslublari jihatidan tahlil etar ekanmiz, romanga xos

tafakkurni yuzaga keltirishda o'ziga xos roman janr xususiyatlari namoyon bo'lganini, badiiy talqin nuqtai nazaridan yozuvchi ijodida roman janrining ijtimoiy-falsafiy va ijtimoiy-psixologik tamoyillari shartli-ramziy yo'nalishda rivojlantirilganini ko'ramiz. Isajon Sultonning shartli-ramziy badiiy talqin yo'lida yaratilgan noan'anaviy romanlari milliy istiqlol davri romanchiligimizda shakllanayotgan va yangilanayotgan yangi roman janriga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan, zamon bilan hamnafas roman janr talabidan kelib chiqib, o'zbek romanchiligida noan'anaviy roman janri shakllanishini romanchiligimiz yo'lidagi ijobiy hodisa, deb baholaymiz.

Roman janridagi o'zgarishlar badiiy adabiyotning barcha janrlaridagi kabi jahon adabiyotidagi mavjud an'analarni o'zida mujassamlashtirdi. Shu jihatdan Isajon Sulton ijodining asosiy qismini tashkil etgan noan'anaviy yo'nalishda yozilgan "Ozod" romani tahlili jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi: G'arb adabiyotida yetakchi tasvir usuliga aylangan postmodernizm adabiy oqimining xususiyatlari, shakllanish jarayoni tasvir usuliga aylanish holatlari haqida tushunchalar bayon qilindi. Postmodernizm adabiy oqimining G'arb adabiyotidagi yetakchi namoyondalari yaratgan badiiy asarlarga ma'lum darajada to'xtaldi, ba'zi bir mulohazalar aytib o'tildi. G'arb va sharq adabiyotidagi o'zaro adabiy aloqalar uzoq tarixga ega bo'lib, XX asarning so'nggi choragida o'zbek adabiyotida yanada teranroq o'z aksini topa boshladi. Bu an'analarni kuzatish jarayonida yangicha tasvir usuligina emas, balki hayotni, inson botiniy olamini va shaxs konsepsiyasini ifodalashda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Yozuvchi hayotga bo'lgan munosabatini badiiyatga singdirish jarayonida ramziylik, falsafiylik kabi xususiyatlarni o'z uslubi nuqtai nazaridan barcha asarlari sujetiga singdira olgan. Adibning "Ozod" romanida insonning botiniy olami orqali hayot voqeligini aks ettirgan. Shu jarayonda g'arb adabiyotidagi xarakterli xususiyatlarni bu asar sujetiga singdirish bilan birgalikda olam va odam haqidagi tasavvurlarini ichki kechinmalar ong osti tasvirlari orqali yuzaga chiqarishga intilgan. Bu qissa tarkibidagi obrazlarda o'ziga xos xarakter yaratish an'anasini tahlil, qilish jarayonida inson ruhiyati, kechinmalari xayoliy tasavvurlar, mushohadalar asosida yuksak darajaga ko'tarilganligini kuzatdik. Adib ijodidagi bunday tasvir usuli, keyingi davr o'zbek adabiyotidagi noan'anaviy talqin tushunchasiga asos bo'lganligini alohida ta'kidlash zarur.

Adabiyotlar:

8. Boltaboyev H. Istiqlol imkoniyatlari: yangilangan an'analalar va postmodernism. Qarang: mustaqillik davri adabiyoti. –T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 238-bet.

9. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti. Maqolalar to'plami. –T., "Mumtoz so'z", 2012. 18-19-betlar.
10. U. Hamdamov. Turfa ranglar uyg'unligi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 2000. 29-sentabr. 2-bet.
11. Q. Yo'ldoshev. Yoniq so'z. Adabiy o'ylar. – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006. 15-bet.
12. A. Rasulov. Akslar falsafasi. Qarang: Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent, "Sharq", 2012. 407-bet.

NASRDAGI POETIK O'ZGARISHLAR

Reja:

- 1. Nasriy asarlarning hozirgi adabiy jarayondagi taraqqiyoti.**
- 2. Hikoyachilikda noan'anaviy talqin.**
- 3. Qissachilikdagi o'ziga xos talqinlar.**
- 4. Romanchilik taraqqiyoti va adabiy tanqidiy qarashlar.**

Tayanch so'z va iboralar: *Nasriy asarlar, hikoyachilik va qissachilik taraqqiyoti, turfa xil talqinlar, mulohazalar, ramzlar.*

Xalqimizning azaliy orzusi bo'lgan Mustaqillik juda ko'p jabhalarda bo'lganidek, ma'naviyat sohasida ham katta o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Millatimiz hayotida mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy muammolarga har qachongidan ko'ra ham diqqat-e'tibor kuchaydi. Istiqlol mafkurasi xalq va jamiyat hayotiga chuqur singib borayotganligining o'ziyoq bu fikrni isbotlaydi.

O'zligini chuqur anglab etgan jamiyatning turmush tarzida ma'naviyat markaziy o'rinni ishg'ol etishi muqarrar. Negaki, buni yaqin tarix, balki ko'hna tarix ham o'z isbotini berib turibdi. "Ozod" romanini o'qigan kitobxon uning tag zamiridagi g'oyani ilg'ab olishi, uni qalbiga singdirishi biroz qiyinroq. Chunki o'zbek kitobxon bunday asarlarga hali ko'nikma hosil qilgan emas. Roman markazida Ozod obrazi turadi. Shu bilan birga, unda Shamol (ramziy obraz), Toshkesar, Ko'r kishi, Ota, O'g'il, Mag'ribiy va yana bir necha ramziy obrazlar ham ishtirok etadi. Romandagi barcha voqea-hodisalar Ozod bilan bog'liq holda kechadi. Yuqoridagi obrazlar esa roman sujetida qatnashib, Ozodga aloqador voqelikning yuzaga kelishida muhim rol o'ynaydi. Romanda shunday yangicha usul qo'llanganki, uni o'qishga kirishgan kitobxon to'g'ridan-to'g'ri qahramon bilan muloqatda bo'lmaydi, balki uning ongi, tafakkuri bilan to'qnashadi. Boshqacha qilib aytganda, uning aql-idroki faoliyati orqali ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmas dunyo-insonning botiniy

olami bilan yaqindan tanishadi. Botin esa asar qahramoni yillab ko`rgan va kechirganlari -o`zlik sari yo`l ochadi.

“...Daraxtzor chayqalar, shovullar edi. Shovullagan tovushlar yosh novdalardan va barglardan chiqar, quruqshagan va qurigan shoxlar quruq, ingichka ovoz chiqarar, shabada ularni silkitib o`ynardi. Yigitcha daraxtlarning tanalarini ushlab-siypalab ko`rdi. Keksa daraxtlarning ba`zilari juda yuksaklargacha shoxlagan, ildizlari bu bahaybat tanani mahkam tutib tura oladigan darajada chuqur, ammo ba`zilarining tana po`stloqlari ko`chib, yaydoq tanasi ochilib qolgan... chandiqlari ham bor, qo`lga g`o`dirish bo`lib tegardi; yosh-yalang ba`zan o`ynoqilik yoxud sho`xlik yuzasidanmi, ismlarini tanaga o`yib yozishibdi; bundan tashqari, qay bir uquvsiz bog`bon urgan bolta chandiqlari ham boriydi”.¹

Inson tug`iladi, yashaydi, mehnat qiladi va o`ladi. Bu falsafa bizga yaxshi tanish. Masalaning boshqa bir tomoni insoniyatni yillab javob izlashga majbur qiladi. Inson tug`ilgandan keyin jamiyat uni shakllantiradi. Yosh bola go`yoki yangi o`sayotgan niholday. Uni qay yo`sinda parvarish qilish avvalambor oila keyin esa u yashab turgan jamiyat hisoblanadi.

Niholni parvarish qilish uchun usta bog`bon bo`lish kerak. Uni qayga yo`naltirsangiz shu tomonga qarab o`sadi. Yoshligida to`g`ri parvarishlangan daraxt qariganda “ildizlari bu bahaybat tanani mahkam tutib tura oladigan darajada chuqur” bo`ladi. Ildiz tanani tutib turuvchi, unga hayot baxsh etuvchidir. Mantiqan o`ylab qaraganda hayot manbai hisoblanadi. Insoniyatning ildizi esa ma`naviy xazinasini boyligidadir. Insonga ham yoshligida to`g`ri tarbiya berilmasa vaqti kelib daraxt kabi “tana po`stloqlari ko`chib, yaydoq tanasi ochilib qolgan... chandiqlari ham bor, qo`lga g`o`dirish bo`lib tegadi”. Inson va tabiat bir-biri bilan hamisha bog`liqdir. Shaxs ruhiyati esa ma`lum bir iroda yo`nalishini belgilab beradi. U iroda yo`nalishi bizni o`zligimizni anglashga undaydi.

Insonni anglash, inson shaxsini tahlil va talqin etishda bizda uzoq yillar ustivor bo`lgan ijtimoiy-axloqiy yondashish an`anasi davom etgani holda, XX asr jahon adabiyotida keng tarqalgan estetik falsafiy oqimlar tajribalariga astoydil qiziqish, qolaversa, sharq adabiyotining buyuk merosi diniy-islomiy aqidalar, tasavvuf falsafasi va estetikasiga qaytish hozirning o`zidayoq o`z samarasini bermoqda. Asar sujetida turfa xil ramzlar talqini orqali hayot voqeligini, inson qalbidagi iztiroblarni talqin etadi: “Yigitcha so`qmoqdan odimlarkan, boshi uzra ikki qushning

¹ Isajon Sulton. “Ozod” roman.—Toshkent. “Sharq” nashriyoti, 2012 yil, 22-bet.

qanotlarining tovushini eshitdi, bular boyagina, tandirga non yopayotgan ayol bilan gaplashib turganida tikkasiga ko'kka ko'tarilgan o'sha qushlar edilar.

– Bu yigitcha kim? – deb so'radi birinchi qush, sherigidan.

– Shu yerga kelishi taqdir qilingan bir banda, - deb javob berdi ikkinchi qush.

– Bu makonga kelishing boisi nima? – dedi birinchi qush.

– Taqdir lolasiyu baxt qushi sari borayotir, - deb javob berdi ikkinchisi.

– Bundan bolaga xayr bormi? – deb birinchi qush.

– Bizlar shu yergacha kela olamiz, u yog'iga o'ta olmaymiz, - dedi ikkinchisi”.²

Bu satrlarda majoziy obrazlarning o'zaro nutqi orqali inson tafakkuridagi evrilishlarni tasvirlashga va yoritishga harakat qilgan.

Xo'sh, o'zlikni anglash nima degani o'zi? O'zlikni anglash nafaqat adabiyotning, balki butun insoniyat hayotining bosh mavzusi bo'lib kelgan. Yaratish qobiliyati haddan tashqari quvvatlanib ketgan insoniyatga qarata “Men kimman?” deb savol beradi turli ilmiy tadqiqotlar natijasida bunyodga kelgan mukammal sun'iy jonzot “Boqiy darbadar”da. “Oting nima?” deya qichqiradi daydi manqurt uzra tinmay aylanayotgan to'rg'ay, Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanida. “Esla, esla” deyishini qo'ymaydi bo'm-bo'sh ko'zaga aylanib hayvonday sanqib yurgan Murtadga ortidan ergashgan soyasi, “Ozod”da.

O'tgan asrlar davomida ikkita ulkan urushlarni boshimizdan kechirdik. Global ijtimoiy kataklizmalar ro'y berdi, aql bovar qilmas kashfiyotlar yuzaga chiqdi. Mazkur pallada turli mavzularda juda ko'p asarlar yaratilgan bo'lsada, ulardan insoniyat tafakkur tarixiga yombi bo'lib kira oladiganlari barmoq bilan sanarli. So'ngi chorak asr ichida esa ana shu asarlarga tenglasha oladigan, insoniyat tafakkurini o'zgartirib yuborishga qodir asar yozilmadi.

Umuman, insonlar jamiyati modelini turli ramziy obrazlar orqali ifoda yetish adabiyot uchun yangilik emas. Lekin X.Do'stmuhammad bu borada orginal ramzga murojaat yetadi – insonlar ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutuvchi bozor timsolidan foydalanadi. Muallif o'zi bozorga shunday ta'rif beradi: «...Odamlarning ichini ko'rib, tomosha qilib yurish borasida bozordan qulayroq joy yo'q dunyoda... Bozor-dunyo...»

² Isajon Sulton. “Ozod”.–Toshkent. “Sharq” nashriyoti, 2012 yil, 24-bet.

Asarning soʻz oʻyiniga asoslangan epigrafidanoq roman mazmunidagi oʻziga xoslik, falsafiylikka ishora beriladi:

«...or
..zor
.ozor
bozor»

Bozorni biz hayot maketi deb atar ekanmiz, u hech qachon toʻxtamagan, hayot mavjud ekan toʻxmaydi ham. Uning hech qayerida yozilmagan qonun-qoidalari insonlar hayotida muhim oʻrin tutadi. Bu borada Fozilbekning bozor haqidagi mulohazalari eʼtiborga molik:

«...Bozorni anglab yetmgʻimiz darkor!... Bozor hech zamonda oʻzgarishdan toʻxtamagan, lekin bozorning oʻzgarishlariga yarasha odamlar ham oʻzgargan, oʻzgarishga moslashishag ulgurishgan. Endi esa oddiy odam tugul, sizni bizga oʻxshash yetti pushti bozorchi oʻtganlar ham oʻzgarishda, yaniglanishda bozordan anchagina orqada qolib ketyapti».

Koʻrinadiki, asar qahramonlari ham zamonga xos tafakkur yuritadi, yanigcha qarashlar bilan atrofiga bir qur nazar tashlaydi, mulohazalaydi, tushunganidek harakat qiladi. Badiiy asarda qahramonining ruhiyati tasvirisiz kitobxonning ishonch va yeʼtiborini qozonib boʻlmaydi. Ayniqsa, bugungi zamonaviy romanlarda «Bozor iqtisodi» davri shaxslarining xarakterini yaratish yozuvchidan alohida mahorat talab yetadi. Xalqimiz mustaqillikka erishgandan keyin adabiyotimizda avvalgi anʼanaviy psixologik tasvir vositalar yanada ramziylashtirilib, endi koʻproq qahramonining ichki olamini, u yashayotgan ijtimoiy muhit bilan bogʻlab oʻrganishga alohida yeʼtibor berila boshlandi. Inson va jamiyatga, oʻtmish tarixga yangicha nazar bilan qarayotgan bugungi asarlar bilan qondirib boʻlmaydi. Chunki, bugungi zamon kishisi qahramonining tashqi faoliyatigagina qiziqmaydi, balki uning ichki niyatini bilishg, anglashga intiladi. Bugungi inson ishonuvchan emas, balki mulohazakor, ongli fikr yurituvchi shaxsdir.

Yangi davr oʻzbek romanchiligi usluban va mazmunan yangilanayotgan bir davrda roman janri tadriji mantiqiga asosan yozuvchilarimizning roman janri poetikasi yangilanishi roman janrining ichki talabidan kelib chiqan zarurat boʻlib, uni roman janr dinamikasida kechadigan tadrijiy taraqqiyot yoʻli deb tushunish kerak. Inson ongida kechayotgan evrilishlar jamiyat tafakkuri evrilishi timsolida romanga talqin uchun jalb etilar ekan, eʼtirof etish kerakki, talqin markazi inson amalga oshirayotgan faoliyatdan faoliyatni yuzaga keltiradigan oʻy-xayollari, ruhiy iztiroblari, inson aql-idrok i tafakkur etgan olam va odam,

ilohiy yaralish sir-asrorlari, hayot falsafasi, hayot qonuniyatlari o'rtasidagi bog'liqlik va ziddiyatlar mantiqiy zanjiriga ko'chirilar ekan, romanga talqin uchun jalb etilgan, hatto ko'zga tashlanmas voqelik va roman g'oyasi o'rtasida uzviy mantiqiy bog'liqlik bo'lishi zarur. Jamiyat taraqqiyoti, badiiy-estetik hosilasi sifatida yuzaga kelgan roman poetikasida yuz berayotgan islohatlar – modern romanlarga xos sujetsizlik, murakkab, bir tizimga asoslanmagan kompozision qurilish aynan roman mohiyati – ong evrilishi talqini – janr shakl va mazmunan uzviyligini anglatadi. Shunday ekan, ushbu jiddiy evrilishlar o'zbek adabiyotida, xususan romachilikda Yangi bir sahifani ochib berdi. Bu esa noan'anaviy roman janri yo'nalishida yaratilgan, badiiy va falsafiy tafakkur uyg'unligi mujassam X.Do'stmuhammadning «Bozor» romani poetika talqiniga uslubiy janr o'zgarishlarini olib kirdi.

Yozuvchining ikkinchi romani “Isyon va itoat”da diniy va dunyoviy ilmlar jamlangan. Hajman ixchamgina ushbu asar 2003 yilda nashr etildi. Ushbu roman adabiyotshunos va munaqqidlar orasida hanuzgacha qizg'in bahs-munozaralar og'ushida kelmoqda. Asar xuddi “Muvozanat”ga o'xshab qo'llovchilar va qoralovchilar bo'lib ikki guruhda turganligining guvohi bo'ldik. Ayniqsa, taniqli adabiyotshunos olim N.Xudaybergenov “Insonlik – yuksak burch” maqolasida quyidagicha e'tirof etadi: “Roman – hayot va insonning ichki olamini, mohiyatini keng va atroflicha tadqiq etadigan salmoqli badiiy tafakkur maydoni. Ammo bu fazilat “Isyon va itoat”da ko'zga tashlanmaydi”.⁹ Holbuki, munaqqidning bu tahlili asar tabiatiga mutlaqo zid xulosa, u haqda buning aksi aytilsa to'g'riroq bo'lar edi. “Isyon va itoat”da aynan hayotni, insonni badiiy tadqiq etish maqsadi yetakchilik qiladi, ya'ni yozuvchi uchun u olam va odam “mohiyatini keng va atroflicha tadqiq etadigan salmoqli badiiy tafakkur maydoni”.

Badiiy asarga beriladigan baho, u yoki bu darajada tamomila boshqacha ahamiyat kasb etishi mumkin. Bu kabi fikrlarni nazariy jihatdan tahlil qiladi. “Isyon va itoat” romanida bosh qahramon Akbarning sayohatnoma sarguzashtlari orqali tasvirlanadi. U safarga chiqishidan asosiy maqsad, asar muqaddimasida keltirilgan parchada keltirilishicha maktabda o'z o'quvchisini bir shapaloq urib, uch yilga qamoq jazosini o'tagani, taqdirning nayranglari ila uzoq o'lkalarda savdo-sotiq bilan shug'ullangani hamda voqealar tafsiloti yozuvchi falsafasini teranroq dalillashni diniy-ilohiy kiritmalar ila ochib beriladi. Obraz atamasi adabiyotshunoslikda quyidagicha izohlanadi. Adabiyotshunos Hotam

⁹ Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2005 йил 15 июнь.

Umurovning “Adabiyotshunoslik nazariyasi” kitobdida “...obraz deganda inson ongida in’kos etilgan voqea-hodisalarnigina emas, balki shu bilan birga so’z vositasida san’atkor tomonidan anglangan, qayta ishlangan (bichib to’qilgan) va tasvirlangan hayot tushuniladi”.¹¹ Tahlil qilayotgan “Isyon va itoat” romanida obrazlar tizimini asar strukturasida namoyon bo’lishi bosh qahramon Akbar, Tabib, Larisa xola, Diana, Tursunboy jontalash va uning xotini o’g’li, Iskandar kabi personajlar orqali gavdalanadi. Roman voqea-hodisalari bosh qahramon Akbarning atrofida sodir bo’ladi. Romanda bir-biriga mantiqan bog’langan fasllarda goh diniy-ilohiy kiritmalar, shahar va qishloq manzaralari, Diananing hayoti, undan keyin tabibning mungli iztiroblari, Akbarning behalovat kezinishlari, Tursunboy jontalashning tinib-tinchimasligi yorqin bo’yoqlarda ifoda etiladi. Ushbu hol roman tabiatiga singdirilgan o’ziga xos falsafaning yorqinroq namoyon bo’lishini ta’minlaydi. Romanning mohiyatida isyon kimga qaratilganligi haqida ba’zi fikrlar muallif tomonidan nazorat qilinib, xarakter ruhiyatidagi evirilishlar ko’zga tashlanadi.

Asarda o’ziga xos badiiy priyomni qo’llashi orqali Akbarning hayoti va iztirobi yoritilib beriladi. Xususan, muammoni ilohiy nuqtai nazaridan talqin etish, romanda yashashning ma’nosi haqida, aniqrog’i isyon va itoat to’g’risida yaxlit bir falsafa yaratishga hamda uni badiiyat vositalari yordamida ifoda etishga qaratiladi. «Mustaqillik yillarida adabiyot bilan islom dini o’rtasidagi munosabatlarda ham keskin burilish yuz berdi. O’zbek adabiyotining islom falsafasidan va islom ta’minotidan o’zi ham unga muayyan ta’sir ko’rsatib rivojlanishi endi tan olingan fakt bo’lib qoldi». ¹² O’z o’quvchining g’oyaviy falsafasidan ma’lum bo’lishicha, inson erkinlikka, baxt-saodatga erishmog’i uchun, birinchi navbatda, Yaratganga itoat qilishi, tangriga qarshi isyondan saqlanishi zarur. O’z falsafasining o’zak g’oyasini muallif romandagi asosiy qahramonlardan biri bo’lmish tabib tilidan quyidagicha ifoda etadi: «Men, nihoyat isyon azobidan, forig’ bo’lib, ozodlikka chiqqandim. Ozodlikning ismi esa itoat edi. Va, men o’zimni u yon bu yonga urishni bas qilib... yo’q-yo’q, bunday emas, qirq-ellik yil davomida meni chirpirak qilib uchirib yurgan kuch asta-sekin orqaga chekindi-da, men o’zimga o’zim tegishli bo’lib qoldim, desam to’g’riroq bo’ladi. Shunda qarshimda hayotning mazmuni, tug’ilish va o’lishning ma’nisi yarq etib namoyon bo’lganday edi: u

¹¹ Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси, А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004. 32- бет.

¹² Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Т.: 2004, 181-бет.

itoatda, insonlik qismatiga ko'nikishda edi. Yo'q, bu shunchaki ko'rko'rona ko'nikma emasdi, balki anglash va tushunishdan keladigan buyuk Itoat – Yaratganga tobelik edi. Chunki mendagi Isyon Itoatimning ichiga, uning bir bo'lagiga aylanib o'zga ma'no kasb etgandi. Va, men xotirjam edim. Dunyo qayg'usi-ku ko'pdan beri bezovta qilmay qo'ygandi, endi hatto o'lim ham meni cho'chitmayotgan, qaytaga uni, mo'jizani kutgandek kutadigan bo'lgandim».¹¹

Yozuvchi falsafasiga ko'ra «Yaratganga tobelik»dan hayotdagi boshqa ko'plab omillarga itoat qilish zaruriyati kelib chiqadi. O'zining bu g'oyasini asoslash uchun muallif xalqning turli qatlamlariga, har xil millatga, kasbga, e'tiqodga mansub kishilar timsolini yaratadi va ularning hayot yo'lini, taqdirini alohida-alohida hikoya qiladi. Yozuvchi romandagi personajlarga aloqador sujet chiziqlarini ongli ravishda bir-biriga uzviy bog'lab yuborishga urinmaydi. Shu sababli ham har bir obrazga tizimli ravishda ruhiy tahlillar vositasida ochib berishni maqsad qiladi. Ko'rinadiki, romanda yozuvchi g'oyasini tabiiy tilidan keltirilgan birgina tafsilotda aniq-ravshan qilib tasvirlaydi. O'z navbatida Akbarning bir umr hayoti isyondan iborat bo'lib qolishini va bundan qutulish uchun safarga otlanishini, safar davomida uning hayotida nima, qanday voqea yuz bermasin, qalbidagi adolat tuyg'usini so'ndirmay, halovatini esa ta'min qilish maqsadida, shaharda Diana ismli qiz bilan tanishishi kitobxon tasavvurida uning yolg'izligiga nuqta qo'ygandek tuyuladi.

Bugungi romanchiligimiz taraqqiyotida tuyg'ular realizmi va ramzlar falsafasi yetakchilik qiladi. Oldingi davr romanlardan farqli o'laroq hayotni, insonni, tuyg'ulari kechinmalarini turli xil ohanglarda, tasvir vositalari asosida yoritilayotganligini kuzatamiz. Bundan bir necha yillar ilgari sotsiologik tahlil yetakchilik qilgan bo'lsa, bugunga kelib hayotni va insonni falsafiy – psixologik, ramziy – majoziy tushunish hamda tushuntirish badiiy adabiyotda yetakchilik qilmoqda. Buning natijasida iste'dodi yuksak adiblar o'z asarlarida davrning ma'naviy qiyofasini yaqqolroq aks ettirmoqda. Bu esa asar qahramonlarning xarakter xususiyatlari orqali yoritiladi. Shuning uchun adabiyotshunos olim H. Umurov shunday yozadi: “Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi omildir”.²⁴ Biz tahlilga asos qilib olgan «Ozod» romanida ham turfa xil

¹¹ Хамдамов У. Исён ва итоат. -Т.: «Янги аср авлоди», 2003 йил, 98-бет. (Бундан кейин романдан олинган парчалар «Ўша асар» деб кўрсатилади ва саҳифаси қайд қилиниб борилади.)

²⁴ H. Umurov. Adabiyot nazaryasi. – Toshkent, “Sharq”, 2002. 38-bet.

tasvir usullari yetakchilik qilsada, ruhiy tahlil va falsafiy ma'nodorlik, ramziy tasvirlar orqali xarakter yoritilishini va shakllanishini kuzatamiz.

Yosh avlodning qalban uyg'oq, ziyrak, bilim darajasi yuksak, dunyoqarashi keng, komil inson bo'lib shakllanmog'i uchun badiiy asarlarning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi adabiy yaratilayotgan asarlar kitobxonni chuqur mulohaza yuritishga, borliq jarayonda sinoatlarini anglab yetishga, inson ruhiyatini o'rganishga undaydi. Xususan, modernistik yo'nalishda yozilgan asarlarni tushunish va tahlil qilish uchun kitobxondan sinchkovlik va o'tkir zehn talab qilinadi. Hozirgi adabiy jarayonning rang-barang qiyofasi bugungi kunda barcha adabiyotshunoslar e'tirof etayotgan «postmodernistik» talqinlar o'ziga xosligi bilan ham e'tiborlidir. Adabiyotshunoslikka o'tgan davr mobaynida yangilik bo'lgan modernizm oqimining avlodi sifatida vujudga kelgan postmodernizm yo'nalishi yozuvchilar o'rtasida turli munozaralarga sabab bo'ldi. Adabiy «izm» larning so'nggi davomi sanalgan bunday asarlar inson ruhiyatini taftish etishga qaratilgan. Postmodernizm o'ta murakkab va serqirra yo'nalishdir, u ifoda shakllari, mazmun mohiyatiga ko'ra rivojlanib bormoqda. Shuni ham e'tirof etish joizki bu yo'nalish davr hayotini va umumbashariy muammolarni aks ettirishda keng imkoniyatlarga ega. Yangilanayotgan badiiy tafakkur sarhadlarini kengaytirishga sezilarli hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli yozuvchilardan biri Isajon Sulton «Boqiy darbadar» romanidan keyin adabiy jamoatchilikning diqqatiga sazovor bo'lgan «Ozod» romanlarini yaratdi. Shu o'rinda aytish joizki, ushbu asarda bir qancha izmlarning «qorishiq» ifodasini kuzatamiz. Ramziy ishoralar, falsafiy umumlashmalar yasay olgan Isajon Sulton uchta aksni keltirib o'tadi. Birinchi aks Ozodning lola izlab safarga chiqishi va yo'lda turfa taqdirlarni uchratishi haqidadir. Ikkinchi aks esa yo'lda barcha narsa va hodisotlarga ma'no berishi va tafakkuri chandon kengayishi xususidadir. Uchinchisi esa Lolaga yetishmoq va o'zligini anglab yetmoq ramziy aksidir. «Ozod» romanidagi deyarli obrazlar ramziy ma'noga ega. Ramz adabiyotning, ayniqsa, bugungi nasr mahsulotlarining yetakchi ifoda usuli bo'lib kelmoqda. Ushbu romanda ramziy-majoziy obrazlar va voqea hodisalar inson qalbiga safar deya talqin qilinadi. «So'qmoq o'ydim – chuqur, aravaning g'ildiragi o't – o'lanlarni ezib – yanchib o'tgan, iziga yomg'ir suvi to'planib, sarg'ish – qizg'imtir tus olgan, shu sath oynasida ham osmonning va ko'lmak chetidagi tuproq uyumining bir qismi aks etardi. Yo'l uzundan – uzoq, arava g'iyqillar, unga qo'shilgan qari bir ot horg'in odimlab borardi. Mehnatdan boshi chiqmagani shundoqqina ko'rinib turar, ko'lmaklardan ehtiyotlik bilan o'tar, biqinidan qay bir

suvoriyning poshnasidan qolgan chandiqlari ham bor, xullas, ko`pni ko`rgan ot edi bu. Arava esa juda ko`hna, yog`ochlari yorilib – yorilib ketgan, xom teridan ishlangan enli qayishlari vaqt o`tishi bilan qoraygan, katta g`ildiraklari g`ijirlab aylanar, qoldirgan iziga loyqa yomg`ir suvi oqib tushib to`ldirar, ularning yuzasida ham osmon xira akslanardi». ²⁵

Bu tasvirlarda ramziy ma`noda hayotning murakkab so`qmoqlarini, inson hali anglab ba`zan anglab ulgurmagan holatlarini tasvirlaydi. Roman sujetida bir qator ramziy majoziy xarakterdagi obrazlar tizimi o`z aksini topgan. «Ozod» romanida quyidagi obraz va timsollar ishtirok etadi. Ozod, shamol, toshkesar, uzumzorlar egasi, ota, o`g`il, xoin, yov, malomatchilar, murtad, qarg`a, bo`ri, qush, otlar obrazi, humo qushi va boshqalar. Ushbu majoziy obrazlar zamirida falsafiy ma`no mavjud. Bizningcha Lola – ma`nolar ramzi. Har bir inson bu dunyoga safar qilarkan ma`no va mazmun axtarib yashaydi. Ma`nolar sinoatidan xabardorlik esa uyg`oq qalblarni komillik sari yetaklaydi. Chunonchi, ma`no izlagan zotlar ham shu yo`sinda ish tutganlar. Birinchi aksda Ozod Toshkesardan lolaga eltuvchi yo`l haqidagi dahshatli taassurotlarini tinglaydi, uzumzorlar egasi ham unga yo`lning mashaqqati to`g`risida ma`lumot beradi. Eng qizig`i shundaki ularning har ikkalasi ham qahramon otlanayotgan yo`lni har xil ta`riflaydi. Nazariy manbalarda qayd qilinganidek: «Haqiqiy san`atkor qaysi davrdan yashashdan qat`iy nazar, hayotning taraqqiyot tendensiyalarini shunga qarab belgilashi uning birinchi darajali ijodiy yutuqlaridan hisoblanadi». <sup>26</sup> Isajon Sulton ijodiy izlanishlarida yuqorida qayd qilingan nazariy tushunchalarni amaliy tasdig`ini ko`rishimiz mumkin. Romanda falsafiy psixologizmning ramzlar orqali haqqoniy tasvirlanishi bu tushunchalarni yuzaga chiqardi. Shu jihatdan, asar sujetidagi Toshkesar yo`l haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Bu yo`lda xunobadan iborat daryolar bor, xunoba emas, balki zahar zaqqum, deyilsa yanada to`g`riroq bo`lar. Tog`lari ham osmonga tig` tortgan, u tig`larning barchasi shavqatsiz ravishda qon to`kaman deb turibdi. Har tomonida o`t tutashgan, dashtlar yolqinlanib, osmonga bosh uradi. O`rmonlari har xil dahshatli balolar bilan to`la, undagi har bir daraxtning shoxi g`amdan, bargi esa balodan iborat”. Uzumzorlar egasi esa Toshkesardan farqli o`laroq quyidagicha tasvirlaydi: “Lola ..... u yerda g`uvullab esayotgan shamoldan boshqa hech narsa yo`q. Bo`m-bo` sh kengliklarni keza-keza, charchab qaytib kelmasayding deb qo`rqaman”.

²⁵ Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent, “Sharq”, 2012. 26-bet.

²⁶ Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. II jild. – Toshkent, “Fan”, 1979. 162-bet.

Shu o'rinda kitobxon turfa xil qarama-qarshi ta'riflarni o'qib hayratlanishi mumkin. Romanni mutolaa qilgan o'quvchi Ozod safarga chiqqan yo'l odatiy yo'l emasligini anglashi muqarrar. Toshkesar va uzumzorlar egasi ta'riflagani haqiqiy yo'l emas, umr va hayot yo'lidir. Toshkesar chinakam baxtga erisha olmaganligi va hayot yo'li og'ir mashaqqatli kunlarga to'la o'tganligi sababli ma'no va manzilga eltuvchi taqdir yo'lini juda murakkab deya ta'kidlaydi. Uzumzorlar egasini esa farzandi yo'q bo'lib, hayoti mazmunsizdek tuyulardi. Shuning uchun ham u umrini ya'ni baxt lolasiga eltuvchi yo'lni kimsasiz kengliklarga o'xshatadi. Ikki qahramon bir shaklga ikki xil ma'no va baho berishgan edi. Demak, roman voqealaridan inson narsa va hodisalarga, hatto umrga o'zi ma'no va qiymat beradi degan falsafa anglashiladi. Bundan tashqari, asarda yov ramziy obrazi ham mavjud bo'lib, ularning tanasi xol-xol, ko'zlari ko'k hech narsadan hazar qilmaydigan maxluqlar deya ta'riflanadi. Yov insonlar bilan o'zlari o'rtasidagi baland Kufr tog'ini qulatib Ozodni mahv etish payida izg'ishadilar. Asarda insonlar gunoh qilishdan to'xtamasalar va qabih ishlarini davom ettiraversalar o'rtadagi tog' yemirilishi va insoniyat halokatga yuz tutishi mumkinligi tasvirlab berilgan. Yov hikoyasidagi quyidagi parchalarni keltirish mumkin: "Dala-yu qirlarda yoyilib yashayotgan odam bolalari bizlarning dushmanimizdir! Ular rohat-u farog'at ichida umr kechirishadi, yer-u mulklarni egallashadi, qaldirg'och singari loy cho'p tashib o'ylar qurishadi, to'p-to'p bo'lib kezib yurishadi, behisob-u besanog'-u behuda so'zlar aytishadi. Ana shu aytganlari o'ziga kushanda bo'lib qaytib kelishining timsoli sifat turamiz tog' o'ngirlarida, tubsiz qorong'uliklar ichida... Bir kuni bir odam bolasi bir nojoiz so'z aytadi, u gunohga aylanadi- shunda tog' darz ketadi. Yana bir so'z aytadi darz kengayadi. Keyin esa darz yoriqqa aylanadi"... Meva pishsa, uni cho'qiydigan qush allaqachon yaralgan. Bir tosh bino bo'lsa, uni yemiruvchi suv albatta mavjud. Biz esa odam bolasini yemiruvchimiz".²⁷

Yozuvchi bashariyat qilgan gunohlarni obrazli tarzda yov deya ifodalaganligini kuzatamiz. Yov aslida insonning ichida, ya'ni botinidadir. Odamzotning xatolari o'zini abgor qilishi mumkin. Bu dushman insonning insoniyligini va eng yaxshi sifatlarini yemiradi. Yov aytayotgan yoriq ma'naviy darz ketishdir. Asarda qilgan gunohining jazosini olayotgan xoin obrazi bor bo'lib, u o'z qavmdoshi bo'lgan Eranni dushmanlarga sotadi va umri mana shu gunohining tovonini to'lash bilan o'tadi. "Uchyong'oq tagida tuyqusdan to'xtab qoldi. Uchyong'oq tagida

²⁷Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent, "Sharq", 2012. 98-bet.

jasadlar bor edi. Biri ellik yoshlardagi kuchli va baquvvat kishining, boshqalari bir necha o'spirinning jasadlari bo'lib ular betartib yotishar, yuraklari so'rib olingan edi. Kuchukni to'xtatgan narsa jasadlar emas, balki notanish kimsalar bo'ldi. Oppoq bu kimsalar jasadlar ustida muallaq turar, oyoqlari yerga tegmas edi. Kuchuk o'tishi mumkin bo'lmagan g'alati cheagaraga kelib qolganini payqadi, g'ingshib – ozorlanib yerga yotib, mo'ltiragancha ortga tisarila boshladi, shu tariqa o'n – o'n besh quloqch tisarila bordi... darhaqiqat u qo'rqib ketgan, egasi tomon borishga botina olmay, shunday demoqda edi: Egamni yov o'ldirdi. Ko'zimni ochganimdan beri unga shoyon sadoqatda bo'ldim». – Endi egam qolmadi. Egamning Egasigina qoldi”.²⁸

Asardagi ramzlar kitobxonni fikrlashga undaydi. Yozuvchi Isajon Sulton asarda keltirilgan har bir detalga ham ma'no yuklaydi. Biz uning bu mahoratini «Uch yong'oq» manzili haqidagi suhbatda kuzatamiz. Qahramonlardan biri Ozoddan qayerga ketayotganligini so'raydi. Ozod tog'lar cho'qqisidagi lolani olish uchun Uch yong'oq tomonga ketayotganligini aytadi. Yozuvchi nega manzilni bunday nomlagan. Bilamizki aslida Ozod baxt ma'nosini anglash uchun o'zligiga safar qiladi. Bu jarayon tafakkurda ro'y beradi. Asardagi uch yong'oqni inson miyasi sifatida talqin qilish mumkin. Chunki yong'oq va inson miyasi o'rtasida shakliy analogiya mavjud. Asardagi ramziy obrazlardan yana biri shamol, u ma'lum shaklga ega emas, tabiat hodisasi. Shamol o'zgarish o'zgartirishlar timsoli. U taqdirlarni ham o'zgartirishi mumkin deydi yozuvchi. Asarning quyidagi parchasida bu fikrlar o'z tasdig'ini topgan va yozuvchi obrazli tarzda ifodalagan: “Shu tobda ko'kda oq bulutlar suzib bormoqda edi. Yuksaklarning shamoli ularni suruv-suruv haydab borar, bir ozdan keyin shakli o'zgarib, shiddat bilan oldinga intilayotgan yosh toylar to'dasi shaklini olmoqdaydi”. Demak, romanda shaklning ma'no berilgandan keyin o'zgarishi haqida gap borar ekan, yo'l davomida Ozodga ma'nolar falsafasi haqida hikoya qilib beruvchi hodisa sifatida bejizga shamol tanlanmagan. Ushbu ramziy obraz orqali fikrlar izchillik bilan davom ettirilgan. “Endi Ozod qirning tepasi dedi. Yuqoriga ko'tarilgan sari so'qmoq siyrak tumanlararo ko'zdan yo'qolib borgan, shu bois uch qirning orasini qoplagan oqish parda ostida hech narsa ko'rinmas, katta xarsanglarning uchlari qorayib ko'zga tashlanadi, xalos. – Bu yerlarni nega uch yong'oq deyishlarini bilansanmi? – deb so'radi shamol... Hozir ular yo'q, allaqachon chaqmoq urib yondirgan, - dedi Ozod. –

²⁸Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent, “Sharq”, 2012. 28-bet.

Demak, kamida yuz yil avvalgi narsalar ekan. – Kim aytdi ularni yo`q deb? – Dedi shamol. Ana, qirning uchida uchalasi ham shoxlarni yoyib turibdi-ku? Istasang, qarg`aning o`zidan so`ra”.²⁹

Asarda ma`nolar to`qnashuvi, ularning bir-biridan quvvat olish hollari anchayin o`ziga xos tarzda talqin qilingan. Ozod yo`l-yo`lakay barcha jonli-yu jonsiz jonzotlarga va hodisalarga ma`no baxsh etadi. Ozod oddiy lolaga emas, eng bebaho hikmatga, hayot ma`nosiga yetdi va o`zining kimligini shu tariqa angladi. Yozuvchi romanda Ozod tiynatiga badiiy chizgilar berar ekan, qahramon har bir narsa - hodisani diqqat bilan kuzatadi. Qahramon o`ziga qunt bilan «narsa-hodisalar» tilini singdira boradi. Shuningdek, oldida son-sanoqsiz yo`llar bo`lsada, o`zi talpingan ideallar og`ushida sarosar kezadi va uning qalbida LOLAga ehtiyoji o`shandayligicha qolaveradi. Lolaga qaysi yo`llar bilan yetishmoq mumkin? Bu Ozodning savoli. Javob esa - moddiy havaslardan balandda turgan, ma`naviy orzularni qalbiga joylagan inson borki, hayotda o`z lolasiga erishadi-degan fikr umumlashgandek ta`ssurot uyg`otadi.

Adabiyotshunosligimizning hozirgi imkoniyati yangi yo`nalishlar borasida, ko`proq, chet el mutaxassislari tadqiqotlaridan foydalanishga yaramoqda, xalos. Bu esa masalaning ikkinchi bir nozik jihatini yuzaga keltiradi. Ya`ni adabiyotimizdagi o`zgarishlarga G`arb postmodernizmi nuqtai nazaridan yondasharkanmiz, ular haqida birmuncha sun`iy, ayni damda, noto`g`ri xulosalarga kelishimiz turgan gap. Chunki, sog`lom fikr yuritilsa, postmodernizm ijobiy hodisa emas. Ayni shunday postmodernizm ham. Yana shunday fikr yuritilsa, bu yo`nalishlarning muayyan ta`sirini ham inkor etib bo`lmaydi. Boisi, G`arb va Sharq kishisi o`rtasidagi farq katta bo`lmasin, jahonda hukm surayotgan globalizatsiya, madaniy, iqtisodiy-siyosiy hayotning umumiy jihatlari talaygina topiladi. Shu sababdan yangicha yo`nalishlarga munosabat bildirilayotganda ularning ta`sirini inkor etmay, adabiyotimizda yaratilayotgan asarlarga umumjahon kayfiyatining milliy zamin tayangan qadriyatlar bilan o`zaro sintezi sifatida qarash o`rinli bo`ladi. Adabiy jarayondagi har bir yo`nalish ko`proq o`zi ommalashgan davr ruhi, ijtimoiy hayotning butun rang barang kayfiyati ifodasi uchun mos keladi. Xususan, postmodernizm 90-yillar ijtimoiy hayotida ijodkor e`tiborini tortgan bo`lsa, postmodernizm bugungi kun kishilari ruhiyatini belgilaydi.

²⁹Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent, “Sharq”, 2012. 29-bet.

Ammo o'tgan davr mobaynida postmodernizm borasidagi qarashlar xilma-xilligi, asosan, uning milliy adabiyotimiz namunalarida bor yoki yo'qligi masalasi bilan cheklanadi. Mutaxassislarning aksariyat chiqishlarida postmodernizmnı o'zbek mentalitetiga yot hodisa sifatida talqin etish, bu yo'nalishni sharhlash yoki uni tasdiqlash va shakl xususiyatlariga mahliyolik ustuvor ekani kuzatiladi. Aslida, o'zbek postmodernizmi ham, xuddi G'arbdagi kabi o'zining ijtimoiy-ruhiy asoslariga ega estetik hodisa bo'lib, uning ortida 80-yillar oxiri 90-yillar avvalida mintaqamizda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning kayfiyati yashiringan edi. O'zbek postmodernizmining «qaynagan» vaqti 90-yillarga to'g'ri keladi. Bunga sabab ijodkorlarni birlashtirgan bir xil kayfiyat va shu kayfiyatni ta'minlab turgan «o'tish davri» edi. Nazar Eshonqul, Isajon Sulton va Ulug'bek Hamdamning qissa va hikoyalari yaqin o'tgan tarixning butun kayfiyatini akslantiradi. Chunki bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o'tish xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hayotida jiddiy qiyinchiliklar bilan amalga oshgani hech kimga sir emas. Shu ma'noda 90-yillar adabiy jarayonida bilibmi yo bilmay postmodernizm bayrog'i ostida birlashgan ijodkorlar avlodini bir xil kayfiyat umumlashtirib turardi. Lekin unga «sof», «ijtimoiylikdan holi» san'at sifatida qaraldi, uning ortidagi kayfiyat unutildi. Ta'kidlash joizki, o'zbek postmodern adabiyotida shu nuqtai nazar o'z tahlilini hamon kutib turibdi. Obyektiv hodisa sifatida, bizning postmodernizmga salbiy yoki ijobiy munosabatda bo'lishimizdan qat'iy nazar, u madaniy hayotimizda mavjud bo'ldi va sezilarli iz qoldirdi. Faqat uni tahlilga tortganimizda milliy ruhni nazardan qochirmasligimiz, o'zbek postmodern adabiyotini G'arbdagisiga taqlid sifatida yoritmasligimiz talab qilinadi. Kezi kelganda ta'kidlab o'tish joizki, hozirda bu postmodernchilarning ko'pchiligi sust ijod qilmoqda yoki umuman yozmay qo'ygan. Yozayotganlari ham o'z uslubi, maqsad va g'oyalarini o'zgartirgan. Chunki 90-yillar sharoitida bu ijodkorlarni «qaynatgan» kayfiyat allaqachon so'nib ulgurgan.

Adabiyotlar:

1. O. Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. –T., "Sharq", 2004. -640 b.
2. U. Normatov. Ijod sehri. –T., "Sharq"
3. D. Quronov. Mutola va idrok mashqlar. –T., "Akademnashr", 2013. - 336 b.
4. H. Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. –T., "Yangi nashr", 2010. -364 b.

5. N. Rahimjonov. Istiqlol va bugungi adabiyot. –T., “O’qituvchi”, 2013. -328 b.

ISAJON SULTON ROMANLARI TAHLILI

Reja:

- 1. Isajon Sultonning o’zbek romanchilik taraqqiyotidagi o’rni.**
- 2. Adib romanlari va adabiy tanqidiy qarashlar.**
- 3. “Boqiy darbadar” romanida obrazlar tizimi.**
- 4. Romanda falsafiy talqin.**
- 5. “Ozod” romanida ramziylik.**
- 6. Romanda o’ziga xos tasvir usulining ifodalanishi.**

Tayanch so’z va iboralar: *Adib ijodi, romanchilik taraqqiyotidagi o’rni, ramziy talqin, obraz yaratish, tasvir usuli.*

Istiqlol davri romanlari yangi ohanglar hisobiga boyidi. Uning ifoda tarzi jahonning ilg’or an’analarini o’zlashtirishi va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirishi natijasida o’zgacha usullar sintezini barqarorlashtirdi. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamliligi, mazmun, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni badiiy tadqiq etishga an’anaviy usullar (bayon, ifoda etish, ko’rsatish, tasvirlash)ning o’z o’rnini bo’shatib berayotganligi bilan alohidalik kasb etadi. Bugungi kundagi o’zbek nasrining taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shayotgan iste’dodli ijodkorlardan biri Isajon Sultondir. Adibning asarlari o’ziga xos badiiyati bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan yozuvchining “Ozod” romanidagi o’ziga xos badiiy talqin va falsafiylik haqida so’z yuritiladi. Bunday asarlarning vujudga kelishiga esa mustaqilligimiz alohida ahamiyatga ega. Istiqlol o’zbek olimlarini dunyo adabiyotshunosligi yutuqlari bilan tanishtirib, ijodiy jarayonga holisona hamda samarali yondashuv tarzini shakllantirdi. Xususan, o’zbek nasrida postmoderncha kayfiyatlar, postpostmoderncha yo’sinlar, o’zgarishlarni o’rganishga qaratilgan tadqiqotimizning mavzusi ana shu omillarga tayanilib ish ko’rilishi jihatidan mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo’nalishlariga mos keladi. Adabiyotshunoslik badiiy asarda tasvirlangan alohida shaxs, qahramon ko’nglidagi ruhiy tovlanishlar ildizini topa bilgandagina chinakam ilmiy xulosalar chiqara oladi. O’zbek nasri bugungi kunda yangilandi, bir qadar noziklashdi. Endilikda epik asarlar hayotning oddiy nusxasi yoki odamlarga qanday yashashni o’rgatadigan jo’ngina ijod mahsuli emas, balki alohida odam,

uning his-tuyg'ulari, orzu-o'ylari bilan shug'ullanishga urinayotgan ko'ngil rozi sifatida bo'y ko'rsatmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan o'zbek adabiyoti mafkuradan xoli bo'lib, ijod erkinligi bo'y ko'rsatgach, adabiyotda shakliy-ifodaviy eksperimentlar ko'lamini kengaytdi. Qalam ahlining ijodiy izlanishlari uchun katta ufqlar ochildi. "Istiqlol va mustaqillik ma'naviyati tozarish faslini boshladi. Barkamol inson yaratishning miqyosi va mazmuni kengaydi: islom yuksak madaniyat va ma'naviyatimizning asosiga aylandi".³

Yuqoridagi fikrlarni bir maxrajga umumlashtiradigan bo'lsak, o'zbek adabiyotida yangicha yo'sindagi asarlarning namoyon bo'lish yo'llarini, badiiyatini, estetik ahamiyatini, umuminsoniy va milliy ildizlarini, taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish dolzarbdir. Shu ma'noda, Isajon Sulton asarlarida yangicha talqin masalasini o'rganish adib ijodi xususida muayyan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi shu jihati bilan dolzarb hisoblanadi. Jamiyatshunoslarning uqtirishicha, axloq-axloqiy ong va axloqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Odatda insonning olamga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati axloqiy ong doirasida yuz ko'rsatadi. Bu munosabat kishilarning xulq-atvori, urf-odatlarini, xarakteri, imon-e'tiqodiga yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baho berishda ko'rinadi. Zotan, axloqda tiriklik mazmuni, insonning nazaridan yorug' dunyodagi burchi va or-nomusi o'z ifodasini topgan bo'ladi.

Bugungi kunda globallashtirish jarayonida ma'naviy qadriyatlarining hayotiy zarurati oshmoqda. Afsuski, XIX asrdan boshlab G'arbiy Yevropa adabiyotidagi ayrim oqimlarda ezgulikka bepisand qarash, jamiyatning axloqiy-etik me'yorlarini oyoqosti qilish kabi noxush hollar uchray boshladi. Bu esa o'z navbatida har qanday axloq-odobni inkor etishgacha borishga bo'lgan urinishlar samarasida vujudga kelgan oqim sifatida namoyon bo'la boshladi. Sharqda esa buyuk an'analarni tadrijiy davom ettirilib, asosiy galda axloq normalari ustunligi bilan qadrli bo'lishi, birinchidan, insonning shaxs sifatida kamol topishiga zamin hozirlasa, ikkinchidan, shu mavjud jamiyatning muvozanati odob-axloq, insoniy burch, mehribonlik va shafqat tuyg'ulari bilan ushlab turilar va hozirgacha bu tushuncha bizning butun vujudimizning yashash a'moliga aylanganida ko'rinadi. Vaholanki, jamiyat tartib-intizom masalasida yozilmagan qoidalarni inson ruhiga qanday singdiradi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaysi yo'sinda ish tutmog'i lozim degan savol tug'ilishi,

³ H. Umurov. Tahlil chizgilari. – Toshkent, "Muharrir", 2013. 239-bet.

tabiiydir. Bunga javoban inson ruhiyatini parvarishlovchi birdan-bir yuksak soʻz sanʼati vositasida erishilishi, yaʼni badiiy kitob mutolaasi jarayonida qoʻlga kiritiladi. Oʻzining bir qator hikoya va qissalari bilan oʻquvchilarini topa bilgan ham adabiyotshunoslik ilmi sohasida ham muayyan tadqiqotlar olib borayotgan yozuvchi, shoir, munaqqid binobarin, yangi asr ostonasida adabiyot maydonida shakl va mazmun qamrovi, maʼno-mohiyati bilan badiiy tafakkur olamida turli xil mavzudagi asarlar boʻy koʻrsata boshladi. Ayniqsa, yangilanayotgan badiiy tafakkurga sezilarli hissasini qoʻshib kelayotgan Isajon Sulton izlanishlarida buning yorqin ifodasini kuzatamiz. Shunday ekan, bugungi adabiyotimiz qiyofasini jiddiy tadqiq etishga boʻlgan saʼy-harakatlarimiz natijasida nafaqat maʼnaviy-axloqiy masalalarni tahlil qilish, balki adib yaratayotgan bir-biridan farq qiluvchi xarakterlar, aniqrogʻi zamondoshlarimiz ong va qalbida kechayotgan ziddiyatlarni, orzu armonlarini oʻrganishni maʼqul topdik. Shu bilan bir qatorda adib romanlaridagi oʻziga xos tasvir usulini, poetik olamini romanlari asosida tahlil qilamiz. Salkam bir asrlik tarixga ega boʻlgan romanchiligimiz keyingi yillarda jiddiy oʻzgarishlarga uchraganligini alohida taʼkidlash zarur.

Adabiyotshunos Hotam Umurov taʼkidlaganidek: “Barcha milliy adabiyotlardagi romanning tugʻilishi, shakllanishi va psixologizmning rivojlanishi, avvalambor, inson hayotini badiiy jihatdan haqqoniy tasvirlashni taʼminlovchi realistik uslub bilan chambarchas bogʻliqdir. Ayni paytda milliy adabiyotlarda ruhiy tasvir va psixologik tahlil oʻziga xosligi va shakllanish darajasiga qarab turlicha rivojlanmoqda”³

Darhaqiqat, keyingi yillar badiiy adabiyotida tasvir usulining oʻziga xos tamoyillari vujudga kelganligini ham milliy adabiyotimiz misolida kuzatish mumkin. Binobarin, Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» va «Ozod» romanlari nazariy-metodologik yaxlitligi aspektida oʻrganish, badiiy butunlik va ijodiy aʼzo munosabati oʻziga xosligini belgilash, muallif adabiy konsepsiyasi va muvozanatini asoslash, estetik xususiyatlarini, tamoyillarini tavsiflash, voqelik ruhiyatini anglash va ijtimoiy muhit va badiiy xarakter birligini tahlil qilish, adib uslubiy oʻziga xosligini oydinlashtirish, ijodiy aloqa talqini hamda ifoda davomiyligini yoritish tadqiqot mavzuining dolzarbligidan dalolat beradi.

“Boqiy darbadar” romanida oʻziga xos ramziy obrazlar talqini yetakchilik qiladi. Har bir davr oʻziga xos obrazlar tizimini yuzaga chiqaradi. Ramziylik orqali fikrlashga, mulohaza yuritishga undash

³ H. Umurov. Qahramonining maʼnaviy olami va epiklik. – Toshkent, “Fan”, 1995. 42-bet.

an'anasi ko'zga tashlanadi. Noan'anaviylik talqin tasviri roman kompozitsiyasida o'z ifodasini topgan. Shuning uchun bo'lsa kerakki yozuvchi va adabiyotshinos Ulug'bek Hamdam shunday qayd qiladi: "Bilasizmi, hozir shunday bir davrda yashayapmizki, bu davr yozuvchisi o'zigacha bo'lgan hamma "izm"larning o'zi tanish bo'lgan, ma'qul bo'lgan jihatlarini qabul qilib olayapti. Bu nafaqat Isajon Sultonda, balki ko'plab boshqa yozuvchilar ijodida ham ko'rinayapti. Ya'ni o'zigacha bo'lgan oqimlarni analiz qilib, sintez qilib ularning ma'qul, yashovchan, hayotchan jihatlarini qabul qilib olayapti. Va bu narsa ijodda ilg'or zamondosh yozuvchining, shoirning, umuman, ijodkorning ijodida aks etayapti".⁴

Romanning o'ziga xos talqin usulida ham biz yuqorida qayd qilingan fikrlarning mavjudligini anglaymiz, his qilamiz. Asarda obyektiv, ya'ni mavjud borliq, voqea va hodisalar, tashqi tasvir, qahramon xatti-harakatlari, uni o'rab turgan muhit va sharoit, zamon va makon endi to'g'ridan –to'g'ri badiiy to'qimaga aylantirilmay, balki ularni inson tasavvuri, shuuriga ta'siri, qahramonining hayotga va olamga munosabatini teranlashtirmoqda. Badiiy qahramon muallif yaratgan xarakter emas, balki o'zini-o'zi "ixtiro" qilgan, o'z tasavvurlari, ong oqimi asosida shakllanayotgan personajga aylanib bormoqda. Endi kitobxon qahramon bilan emas, balki uning ma'naviy olami "tafakkuri" bilan muloqotga kirishadigan, uning tafakkur jarayoni bilan bahslashadigan holatlar yuzaga chiqayotganligini ham alohida ta'kidlab o'tish joizdir. So'nggi paytlarda ba'zi ijodkorlar, masalan: To'xtamurod Rustam, Salomat Vafo, Isajon Sulton kabi yozuvchilar oddiy tasvir uslubidan emas, aksincha, biz ko'nikib qolgan sujet, kompozitsiya qurilishlari xronologik mutanosiblik asosida hikoya qilinadigan voqea-hodisalar silsilasi, ya'ni an'anaviy tasvir usuli o'rniga qahramon ong oqimini aks ettirish, buning uchun esa o'zgacha tasviriylilik yo'llarini tanlash ko'zga tashlanmoqda. Bu tasvir usuli o'zbek adabiyotiga 80-yillarning ikkinchi yarmida yuzaga kelgan edi. "... psixologik holatlarning eng teran qatlamlarida ro'y beradigan oniy o'zgarishlar, ruhiy po'rtanalar qay tarzda xatga aylanadi, uning texnikasi qanday siriligicha qolaveradi, shu bois tafakkurning oniy lahzalarida bir silkinish tarzida yuz berayotgan, haqiqiy tushga o'xshatish ruhiy holat qanday usullar bilan qog'ozga ko'chdi, nega u hozirgacha adabiyotimiz tasvirlab kelgan "soxta" tush tasviridan o'ta farqliligicha,

⁴ Hamdamov Ulug'bek. "Ozod" romani – o'zbek adabiyotida yangi hodisa.

noma'lumligicha qolaveradi".⁵ O'tgan davr mobaynida nasr taraqqiyotida bu tasvir usuli yetakchilik qilmoqda. Shuning uchun ham "Boqiy darbadar" romanida dardli holatlarning, iztirob to'la kechinmalarining o'ziga xos, yozuvchi uslubi orqali aks ettirilganini kuzatish mumkin.

"Shakllar, qiyofalar, g'oyalar va obrazlar yoritilar ekan, tobora shiddatli tus olib borayotgan zamonaviy dunyo yana yangi ruhiy tayanchga ehtiyoj tuya boshlagan edi. Badiiy asar xayol mahsuli, xayol esa kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea hodisalarni oldindan jonlantirib ko'rish deganidir. Butun olamda adabiyot Yangi Yo'l izlay boshladi".⁶

Darhaqiqat, keyingi yillarda adbiyot turfa xil ohanglarda shakllanib, rivojlanib jahon adabiyotida yetakchi tamoyillarini, tasvir usullaridan unumli foydalanilmoqda. "Boqiy darbadar" romanida ham noan'anaviy talqin usulini, ong oqimi xususiyatlarini ramziy xarakterdagi obrazlar tizimi orqali tushunchalar yig'indisi, falsafiy mushohadalar aks etgan. Bu esa romanning o'ziga xosligini ko'rsatadi.

"Qatl uchun tepalikda maxsus joy tayyorlab qo'yilgan, mahkumning oyoqlariga, qo'llariga yelkasi aralash zil- zambil kishanlar urilgan bo'lib, zalvoridan juda qiynalib qadam tashlar, hansirab nafas olar, tevarakdagi odamlarning hazil –mazah aralash aytgan so'zlari qulog'iga goh kirib, goh eshitilmay qolar edi. Qizil dengizning chuchuk suvli oqimlari uzra bino bo'lgan oq bulut parchasi ana shu mahkumning boshi uzra soya tashlab kelayotgan edi.

Mahkum- bir Muborak Kishi edi.

Kim bilsin, balki hozir unga Iloh farishtalari yordamga kelgan-u cho'yan kishanlarning og'irligini balki sezmayotgandir ham? Tevarakdagi olamon "Qani sening xudoying? Nega u senga madad bermayapti?"- deb qichqirar va kular edi. Kulayotgan bu badbaxt olomon orasida bir etikdo'z ham bor edi".⁷

Tasvirlardan ko'rinadiki, asarda yaxlit an'anaviy shakldagi obrazlar tizimi mavjud emas. Yuqoridagi parchada Muborak Kishi va etikdo'z obrazlarini kuzatish mumkin. Mahkumning oyoqlariga, qo'llariga urilgan kishanlar og'irligidan bazo'r qadam tashlardi. Undagi xususiyatlar xuddi oldindan bashorat qilganday taassurot uyg'otardi. Etikdo'zning bolalik xotiralari orqali ifodalangan tasvirlarda ham bu talqin xususiyatini ko'rish

⁵ Nazarov B., Tenglashev M. Qismatga qastma-qasd. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 1989. 28-aprel.

⁶ Rasulov A. Asrlar falsafasi. So'ngso'z o'rnida. Isajon Sulton. Ozod. Roman va hikoyalar. – Toshkent, "Sharq", 2012. 406-407-betlar.

⁷ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. Roman. Qissa. Hikoyalar. – Toshkent, 2011. 5-6-betlar. (Bundan keyingi iqtiboslarda muallif, roman nomi va sahifasi ko'rsatilgan)

mumkin: “Etikdo’z bugun azonda kulbasining yonidagi daraxt shoxlarida qop- qora chumchuqlar to’planib olganini ko’rdi. Boshqa daraxtlarda chumchuqlar yo’q edi. Bular esa aynan uning loysuvoq uyining yoniga to’planishgan, na ovoz chiqarar, na don-dun terar, faqat sinchiklab boqishar va nimanidir kuzatishardi”.⁸ Oradan ancha yillar o’tgandan so’ng Etikdo’zning bolalik xotiralari xayolida qayta jonlanadi. Uning qalbi nimanidir sezar, anglab, anglamay hayotning murakkabliklarini xayolan qayta jonlantiradi. O’sha bolalik yillarini, unda yuz bergan voqealarni uzoq yillar unutib yubordi-yu, nimagadir o’sha kuni, o’sha lahza yana botiniy olamida qayta tiklanadi. Buning boisini o’zi ham anglay olmasdi. Xuddi nimadir ro’y berayotganday atrofga alanglab qaraydi, chunki bolaligida qo’y boqib yurganda bir voqea ro’y bergan edi. Bu voqeani ko’z o’ngida qayta jonlantirar ekan, hazratning bundan o’ttiz uch yil oldin uchratgani, u yolg’izoyoq yo’ldan hassasini tutgancha kelib, nay yasab o’tirgan bolaning oldiga keladi. Hazrat qarasaki, daraxt shoxlarida qora chumchuqlar turar, ular oddiy qushlardan farq qilib, na don- dun terar, na sayrar, na shoxdan- shoxga uchib- qo’nar, faqat, kichkina sarg’ish ko’zlarini tikkancha nimanidir sabr-toqat bilan kutishardi. Bundan Hazrat hayratga tushadi va yosh va beg’ubor bolaga qarab, o’g’lim oting nima,- deb so’raydi: “– Bu chumchuqlar ko’pdan beri shu yerdami?-deb so’radi Hazrat. Bolakay yelka qisdi.

– Himm... Bugun juma, oyning o’n uchinchisi...- nimanidir o’ziga hisob-kitob qildi Hazrat. So’ng bolaga aynib qarab turdi-da: - O’g’lim gapimga diqqat bilan quloq sol, - dedi. – Oyning o’n uchichi kunida, juma kuni uchib keladigan qora chumchuqlar aslida mudhish va qattol bir qarg’ishni olib keladilar. Shu gapimni zinhor yodingdan chiqarma”.⁹

Ana shu voqeani yodga olar ekan, o’z qalbining bezovtaligini bejiz emasligini anglaydi. Oradan o’ttiz uch yil o’tib, nima uchun aynan shu damda bu voqealar xayolida qayta jonlanganini hech anglay olmasdi. Insonning bolalik damlaridagi beg’ubor onlarida yuz bergan bu uchrashuvning sabablarini anglashdan ojiz edi. Oradan o’ttiz uch yil o’tadi. Negadir erta tongdan qalbidagi bezovtalik o’sha xotirani xayolida jonlantiradi. O’shanda yosh bola bu gaplarni hazm qila olmagan edi. “Xudoning dargohi keng, o’g’lim, tavba qil, - dedi, og’ir tin olib. - Aslida kim o’ylabdi, senday ma’sum, ishonuvchan bir bolakayga shunaqa taqdir nasib etishini... Bu qismat endi

⁸ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. 6-bet.

⁹ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. 8-bet.

o'zgarmaydi, chunki bugun dengizning sohiliga yaqin yerda, suv ostida yangi bir buloq ko'z ochdi, uning suvlari sho'r suv bilan aralashmasdan, qirg'oq yaqinida chuchuk oqimlarni paydo qildi. Tongda esa muborak bir kishi dunyoga keldi, unga soya solish uchun yaratilgan daraxt meva tugdi...".¹⁰ Bu tushunchalar etikdo'zning taqdirida qandaydir o'zgarish yuz berishidan dalolat edi, ammo u taqdiri azaldan darak beruvchi bu insonni juda ko'p xayolida jonlantiradi-yu, asosli xulosa chiqara olmas edi. Taqdir hukmidan qochib qutulib bo'lmasligini anglab ulgurgan edi. Shu o'rinda nima uchun "suv ostida bir buloq ko'z ochdi, uning suvlari sho'r suv bilan aralashmasdan," - degan ta'svirlarda falsafiylik tushunchalari mujassam edi. Etikdo'z bu gaplarning mag'zini chaqa olmadi. "– Sen-ku avomning ko'zida zohiran bir duo tufayli shunday qismatga mahkum etilasan. Ammo umring mobaynida o'z hayoti davomida ilohiy mujdani rad etib darbadarlikni bo'yinlariga olgan sanoqsiz kishilar olomonini ko'rasan. Ularning hayoti senikidan zarracha ham o'zga bo'lmaydi, biroq sendan farq qilib, og'ir va azobli o'lim topadi. Lekin tarixda sening noming qoladi, boshqalar esa aynan shu qismat bilan yashasa-da, yer yuzidan benomu nishon supurilib ketishadi... siz kimsiz, ota? –deb so'radi bolakay. – Mening otim – Hazrat, -dedi chol".¹¹

Hazratning bu gaplarini juda ko'p o'ylardi, ammo nima uchundir taqdirning murakkabliklarini, hali bolalikning beg'uborligini unutmagan bolakay fikrlarning sababini anglay olmaydi. Hazrat obrazida mujassamlangan bu xususiyat uning o'ziga xos xarakter egasi ekanligini kuzatamiz. Axir odam va olam o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarning sabablarini Hazrat sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Asardagi obrazlar tizimi shu darajada murakkab xarakterga egaki, uni kitobxon hazm qilishi juda og'irdir. Ammo an'anaviy talqindan, noan'anaviy talqin sari siljiyotgan bugungi adabiyotimiz betakror obrazlar olamiga ega ekanligidan dalolatdir. Adabiyotshunos va yozuvchi Ulug'bek Hamdam "Turfa ranglar uyg'unligi" maqolasida shunday fikrlarni qayd qilib o'tgan: asar xoh u realistik, xoh u modernistik va hatto u xoh fantastik ruhda bo'lsin o'z botinida shunday bir tuynuk yashirgan bo'lishi kerakki, shu tuynuk orqali biz o'z qiyofamizga, qismatimizga nigoh tashlab olaylik. Aks holda u qaysi "izm"ga tegishliligidan qat'iy nazar hech narsaga

¹⁰ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. 8-bet.

¹¹ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. 9-bet.

arzimaydi. Demak, ayni tuynuk bizni real dunyo bilan bog'laydi".¹²

Ko'rinayaptiki, asar sujetidan o'rin olgan obrazlar tizimi, voqealar talqini zamin bilan, undagi real hayot bilan bog'langanligi bilan izohlanadi. Shu jihatdan roman tarkibidagi obrazlar o'z olami bilan kurashadi, ziddiyatlar to'liqligini orqali ularning xarakteri yorqin aks etgan.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. Adabiy o'ylar. –T., “Yangi asr avlodi”, 2006. -548 bet.
2. Mustaqillik davr adabiyoti. Adabiy-tanqidiy maqolalar, badiyalar. – T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2006.- 288 bet.
3. Krimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. –T., “Yangi nashr”, 2010. -364 bet.
4. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti. Maqolalar to'plami. –T., “Mumtoz so'z”, 2012. -308 bet.
5. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. Roman. –T., “O'zbekiston”, 2011. - 280 b.
6. Isajon Sulton. Ozod. Roman va hikoyalar. –T., “Sharq”, 2012. - 432b.

JAHON ROMANCHILIK TARAQQIYOTI (F. KAFKA, P. KOELO, J.JOYSS)

Reja:

1. F. Kafkaning romanchilik taraqqiyotida o'rni.
2. “Jarayon” romani tahlili.
3. J. Joysning “Uyills” romani haqida ba'zi mulohazalar.
4. P. Koelo ijodi va “Alkimyogar” romani haqida.
5. Umumiy xulosalar, tahlil va topshiriq.

Tayanch so'z va iboralar: *Jahon romanchiligi, taraqqiyoti, modern romanlar, badiiy uslub, ramziy talqin.*

Jahon adabiyotining eng nodir asarlarini o'rganish va tahlil qilish bugungi jarayondagi badiiy asarlarni qiyosan tahlil qilish an'anasi ham kuchayib bormoqda. Globallashuv jarayoni yuksak darajaga ko'tarilgan davrda ham badiiy adabiyotning insonlar hayotidagi o'rni katta bo'lib bormoqda. Dunyodagi turfa xil o'zaro kurashlar, ekalogik falokatlar kabi

¹² Hamdamov Ulug'bek. Turfa ranglar uyg'unligi. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2000. 29-sentabr.

holatlar bir millat yoki mamlakat miqiyosida hal etilishi mumkin bo'lmagan holat ekanligi ayon bo'lmoqda. Xususan adabiyot borasida esa jahon adabiyotidan boxabar bo'lib turish va jahon adabiyotidagi turli uslub va an'analarni sintezlashish jarayonini hamda inson tafakkuridagi evrilishlarni, hayot muammolarini, inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni badiiy talqin etuvchi jahon adabiyotining yetuk asarlarini o'rganishni bugungi davr talab etmoqda.

Bu asarlarni o'qishdan maqsad hayotning jamiki ranglarini va jilvalarini kitobxon o'z tafakkurida qayta sintezlab xulosalar chiqarishga harakat qilmog'i zarur. Har bir o'quvchi badiiy asarlarni o'zicha tanlaydi, har bir insonning adabiyotga bo'lgan munosabati ham o'ziga xosdir. Bu jarayonning murakkabligi shundan iboratki jahon adabiyotining nodir durdonalarini tarjima qilish va uni kitobxonga yetkazish kabi qirralar ham mavjud. Bugungi kunda tarjimachilik taraqqiyoti ham yuksak darajada ko'tarilib borayotganligi bejiz emas. Bugungi kunda o'nlab asarlar o'zbek tiliga tarjima etilmoqda shuning uchun Paulo Koeloning "Alkimyogar" romani bir yuz yigirma mamlakatda sevib o'qilayotgani bejiz emasdir. Jeyms Joysning "Uylliss" romani modernizmning yorqin namunasi sifatida dunyo xalqlari tomonidan e'tirof etilishi bejiz emasdir. Qayd qilingan bu asarlar bilan bir qatorda Ernest Xemenguy, U. Folkner, F. Kafka, X. Kortasar, G.G. Markes, M. Prust, Agata Kristi, Chingiz Aytmatov, Muxtor Shag'anov, Nodar Dumbadze, Rashod Nuri, Aziz Nesin, Charlz Dikkins, Mark Tven, Teador Drayzer, Jek London, Onore De Balzak, Jonatan Svift, Albert Kamyu, A. de. Sent-Ekzyuperi kabi ijodkorlarning yaratgan badiiy asarlarisiz bugungi adabiy jarayonda tasavvur etib bo'lmaydi.

Adabiyotshunos olim Fozila Sulaymonova Sharq va G'arb adabiy an'analari haqida so'z yuritib quyidagi fikrlarni ilgari surgan edi: "Ispaniyada shakllangan tarjimonlar maktabi nafaqat "grek-arab fani" gina emas, balki Movorounnahr olim – faylasuflari Muhammad Muso Xorazmiy, Forobiy, Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi o'nlab olimlarning asarlaridan ham G'arbiy Ovropani bahramand qildi. Sharq olimlari merosini tarjima etish borasida Ovropa mamlakatlarida mingga yaqin tarjimonlar mehnat qildilar. XI-XIV asrlarda Ovropa xalqlari ziyolilari uchun arab tilini bilish, sharq madaniyati, ilm-fani, adabiyoti bilan yuzaki bo'lsa-da, tanish bo'lmoqlik shart hisoblangan".¹³ Davrlar o'tib bugungi kunga kelib, jahon adabiyotini o'rganish zarurati tug'ilmoqda. Shuning uchun tarjimashunoslik yo'nalishlarining Oliy ta'lim tizimida ochilishi

¹³ Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –T., "O'zbekiston", 1997. 5-6-betlar.

ham bejiz emas. Chunki badiiy adabiyot yuksak darajada ko'tarilgan bugungi kunda mavjud an'analarni va noan'anaviy talqinlarni qiyosiy tahlil qilish zarurati maydonga kelgan. XX asr Yevropa adabiyotining uch nahang Jeyms Joys, Paulo Koelo, Frans Kafka ko'tarib turadi, - deb qayd qilishadi. Frans Fafka bor yo'g'i 41 yil umr ko'radi. U Avstriya imperiyasining Chexiya hududiga Praga shahrida 1883 (vafoti 1924) yilda yahudiy oilasida tug'iladi. U murakkab va mashaqqatli hayot kechiradi hatto unga biron mamlakatning fuqarosi bo'lish ham nasib etmagan. Adib tug'ilib o'sgan va yozuvchi sifatida shakllantirgan Avstriya-Vengriya imperiyasi ham parchalanib ketgan bo'lsa-da u hayotining asosiy qismini Pragada yashab o'tkazdi. Uning ijodi haqida German Gesse, Stefan Sveyg kabi o'z davrining buyuk ijodkorlari asosli fikrlarni qayd etgan. Bu haqida so'z yuritgan adabiyotshunos M. Xolbekov quyidagi fikrlarni qayd qiladi: "Kafka turfa tusdagi jumboqlarga boy adabiy merosni qoldirib ketdi. Tadqiqotchilarning yozuvchining u yoki bu adabiy yo'nalish odoirasiga tiqishtirishlari uni faqat ekspressionizm, suyralizm yoki absurt namoyondalari qatoriga qo'shib qo'yishlari ijobiy natijaga olib kelmadi. Falsafa, teologiya, psixologiya, sotsiologiya, formalizm g'oyalari bilan sug'orilgan estetika nuqtai nazaridan yondashish, Kafka ijodining u yoki bu jihatlarini yoritishga imkon bersa-da, yozuvchi individualligining muhim qirralarini chetda qoldirib ketar edi. Bir butun yaxlit holdagi mohiyat, tugal ma'no kasb etuvchi ta'riflarga, tush ta'birlari va alahsirash, uyqudagi ko'rinishlar mantiqiy tushunib yetishga osongina tutqich bermas edi. Buning sababi balki Kafka yashagan yuz yillikning mazmun va mantig'i o'zining asosliligini, hayotga yaqinligini, turli sinovlarga bardoshliligini namoyon qila ololmaganidadir".¹⁴ F. Kafka ijodi, u yaratgan asarlar nafaqat Yevropani, balki Osiyoni ham larzaga solgan. Adib ijodi haqida so'z yuritgan olim va ijodkor X. Do'smuhammad shunday yozadi: "Frans Kafka qahramonlari o'zini qayta yuritishga muhtalo insonlar obrazi. Uning qahramonlari uchun o'z "men"idan o'zga dunyo yo'q, ular dunyoni faqat o'z "men"lari orqali ko'radilar, dunyo savdolarini o'z "men"lari manfaatiga bo'ysindiradilar va shu yo'l bilan dunyoni, inson haqidagi shu vaqtgacha bo'lgan tushuncha va bilimlarini o'z "men"lari hisobiga boyitadilar", - deb yozadi.

Asar bilan tanishar ekanmiz shunday boshlanadi: "Aftidan kimdir Yozeif K.ga muhlat qilgan chog'i, birovga yomonlik qilmagan, biron-bir

¹⁴ Xolbekov M. XX asr moderen adabiyoti. Maqollar to'plami. -T., "Mumtoz so'z", 2012. 151-152-betlar.

nojo'ya ish sodir etmaganiga qaramay, uni hibsga olishadi. Har kuni soat sakkizga yaqin unga nonushta olib kiradigan hizmatchi ayol ijaraxona bekasi Frad Grubaxning oshnasi ham bugun negadir qorasini ko'rsatmaydi" (2,12betlar). Voqealar tasviri xuddi shu tasvirdan, ya'ni tugundan boshlanadi. Adib qahramonlari Fedor Dostoevskiyning asarlaridan o'rin olgan qahramonlarga o'xshab ketadi. Buning bosh xususiyati qalbi sof insonning tengsiz dardi, unga tevarakdagilarning munosabati edi. Knyaz Mishkinning botiniy ohu-nolasi, zohiriy oftoda ahvoli Yozer K.ga makondir, - degan tushuncha uyg'onadi. Masalan: "- Siz qattiq yanchilayotirsiz, - cho'rt kesdi u. - Men ham, mana bu janoblar ham - hech qaysimiz sizning ustingizdan qo'zg'atilgan jinoiy ishga aloqamiz yo'q. Qolaversa, biz bu haqida qariyb hech narsa bilmaymiz. Haqiqiy formada kelsak ham ishimiz og'irlashmasdi. Men hatto nimaga ayblanayotganingizni aytib berish.... Dushvor, to'g'risi, bu haqida menga hech narsa ma'lum emas. Gapning po'stkallasi, qamoqqa olinganingizni bilaman, xalos, boshqasi menga qorong'u" (2,27 bet).

Agar jiddiyoq nazar solinsa, asar qahramonining boshiga tushgan tashvish olamshumul muammo emas, ko'rsatadigan qahramonliklari muhokama qilib o'tirishga arzimaydi ham. U bor yo'g'i hibsga olingan, o'zi shuni tushina olmay, garangsib yuribdi, xalos, - deb xulosa chiqarish ham mumkin. Eng karakterli tamaki Yozef K. qamoqqa olinganu hizmat vazifasini davom ettirishiga hayron qolasiz?! Mantiqqa murojaat qilasiz: "- Hibsga olingan ekanman, qanday qilib bankka boraman?"

- Voy buni qaranglar! - qariyb eshik oldiga borib qolgan nazoratga taajjublandi. - Aftidan, siz meni umuman tushunmabsiz. Ha, sizning hibsga olinganingiz rost, ammo bu xizmat vazifangizni ado etishga xalaqit bermasligi kerak. Va, umuman, bu sizning kundalik hayotingizga monelek qilmasligi lozim... Demak, unda bu hibsga olishning hech qanaqa dahshatli joyi yo'q ekan, - K. shunday deb nazoratchiga astoydill yaqinlashdi.

Asarda qahramonlar Yozef K. Frau Grubax (xazayn), frayldyn Byurstner, qoqchakak Rabenshteyner, ko'zlari ichiga botgan malla Kullix, yuzining eti titrab turadigan Kauener, Elza, qo'riqchi va nazoratchilarni kiritish mumkin. Bu obrazlarning barchasi o'z olami bilan yashaydi.

XX asrning ulkan faylasuflaridan Erix Fraim Iozef Kning hibsga olinishini ramziy ma'noda "to'xtab qolish" deb talqin etadi, ya'ni Yozif K jisman emas fikran to'xtab qolindi. U juda hayotiy jarayondan ajralib qolayotgandek o'zini his qiladi. Aslida u o'ta ketgan diqqanafas hayot kechirayotgan edi. Kunora tuzsiz, befayz-nomigagina yotib turishlar,

nomiga ishga borib kelishi, kelajak haqida, orzularini yuzaga chiqarishga, umuman, imkon yo'q edi.

Uning naznida hamma narsa tugab qolgandek, edi, Yozef K. ham to'xtadi, uni to'xtatib qo'yishadi.

Shuning uchun, X.Do'stmuhammad xuddi shu fikrlarni quyidagicha talqin etadi: "Frans Kafkaga xos achchiq va tagdor hikoya, romanning atamasida mujassam, ya'ni, garchi asar "Jarayon" deb atalsa-da hayotda hech qanday jarayon alomati sezilmaydi. Jarayon degani harakat deganiku, romanda esa butkul harakatsizlik, mahdudlik. Fikr o'lgan, mushohada cheklangan, tuban muhitda jarayon kechmoqda deyishning o'zi borib turgan surbetlik".¹⁵

Yozuvchi asar sujetida o'z davrining murakkab qirralarini badiiy talqin etar ekan, bir xillikdan yuksalish va rivojlanishdan to'xtagan holatdan bezgan inson qiyofasini aks ettiradi. Romanda ana shunday jarayonsizlik, ya'ni, tugatib qo'yilgan vaqtning, to'xtab qolgan voqelari tasvirlangan.

Erix From "Jarayon"ni eng uzun tush, deb ta'riflagan. Zero, Yozif K. to'xtab qolgan vaqtning harakatlanishi, ya'ni, jonlanib chinakkam jarayonga aylanishida najotni tushdan izlaydi va topadi. Frans Kafka ham uning qahramonlari ham tush va tush oralig'idagi reallikda yashaydilar. O'zining hibsga olingani "bu qanaqa mahbuslik?" deb to'la tushinib yetmagan asar qahramoni o'zida tug'ilgan bu savolga javobni hayot realligidan emas, tush realligidan izlaydi. Ammo asar matnida esa o'ziga xos tasvir usulini beradiki: "Mayli men bu taklifingizga roziman, ammo maslahatchingiz bo'lishimdan oldin nimadan iboratligidan xabardor bo'lishim kerak-daJumboq shundaki, - dedi K. – bu haqida o'zim ham hech nima bilmayman", - deb javob berdi Yozif K. Froylyayn Byustner bilan suhbatda.

Jeyms Joys ijodida ramzlar katta o'rin tutadi. U yaratgan asarlarning murakkabligi oddiy tasvir usulidan uzoqlashganligi bilan izohlanadi. Bu haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Tilavoldi Jo'rayev shunday yozadi: "Uning asarlarida biz o'zimiz ko'nikkan sujet, kompozitsiya qurilishlari, xronologik mutanosiblik asosida hikoya qilinuvchi voqea – hodisalar silsilasi, an'anaviy tasvir usullarini uchratmaymiz, balki qahramon "tafakkur oqimi", personajlar fikriy jarayoni ifodasiga duch kelamiz. Ularda barcha detallar – xoh ular maishiy – naturalistik, xoh jug'rofiy,

¹⁵ X. Do'stmuhammad Harakatdan to'xtagan jarayon qissasi. Qarang: Frans Kafka. Jarayon. Roman (tarj: Vafo Fayzullo). – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. -288

iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, diniy, tarixiy, ilmiy bo'lsin, ana shu fikriy oqimga singdirilgandir".¹⁶ "Uylliss" romanidagi voqealar 1904-yil 16-iyun kuni sodir bo'ladi. Asarda Lepold Blum uning xotini qahvaxona qo'shiqchisi Merion, tarix muallimi Stiven Dedalus, maktab direktori Dizi, Sayman Dedalus, Merionning jazmani Boylen singari o'nlab qahramonlar uchraydi. "Endi yulduzlar im qoqan osmon ostida huvullagan ovloqda qizil tulki mo'ylari tikka-tikka bo'lib, ko'zlari rahmsiz yonib yerni tatalab qaziydi, qulog'ini ding qiladi, tatalab qaziydi, qaziyveradi. Stiven uning yonida o'tirb masalani yechardi. U algebra vositasida Shekspirning ruhi Hamletga ajdod bo'lishini isbotlaydi. Sarjet qiyshiq qo'ndirilgan ko'zoynagidan unga g'ilaylanib qarab o'tiradi. Omborxona tomonida tayoqlarining qarsillashi, qiyqiriqlar, maydonchaga koptokning gursillab urilishlari eshitiladi".¹⁷ Asardagi voqealar silsilasi muallifning hayotga bo'lgan munosabatidan dunyoga kelgan. Asarning sujet qurilishi o'ta murakkab, muallifning xoxish irodasi va fikriga qarab shakllanib boradi. Roman qahramonlari "botiniy monologlarga", "ong oqimi" zamiriga kirib boradi va ularda murakkab dramatism ham mavjud. Romanda muallif otalar va bolalar munosabati muammosiga jiddiy e'tibor qaratadi, bu holatni Blum hamda Dedalus o'rtasidagi munosabatlarda ko'rish mumkin. Stivenning otasi Seyman Dedal dublinlik bo'lib badiiyat shaydosi, ajoyib xonanda so'zlarni chinniday jaranglatib yuboradigan suxandon, shu bilan birga omadi yurishmagan no'noq ishbilarmon, pivaxonayu barlarda umrini o'tkazuvchi beparvo shaxs sifatida ko'z o'ngimizda jonlanadi.

Roman haqida so'z yuritgan tarjimon va adabiyotshunos I. G'afurov shunday yozadi: "Voqealar Dublin yaqinidagi Martello qo'rg'on-qal'ada bo'lib o'tadi. Bir paytlar Joys ham bu qal'a-qo'rg'onda o'z do'stlari bilan birga yashagan edi. Martello qo'rg'oni roman qahramonlari uchun Yunonistondagi Delf ibodatgohi bilan barobar qimmatga ega. Asosiy qahramonlar shu yerdan inson ol sarguzashtlarini boshlaydilar. Stiven Dedal, Leopold Blum, Buqa Malligan bu ilk epizodlarda xuddi aql va ruhning stixiyasi kabi ko'zga tashlanadilar. Ularning o'ylari, kechinmalari, parodiyalar, taqlidlar fikrlarida poyonsiz kitoblardan poyonsiz iqtiboslar, poyonsiz tahlillar bir-biriga zanjidek ulanib boradi. Joys inson tabiati haqida to'la jismoniy, ruhiy, ruhoniylar yaratish yo'lidan boradi".¹⁸

¹⁶ Jo'rayev T. Ong oqimi modern. – Farg'ona, "Farg'ona" nashriyoti, 2009. 5-bet.

¹⁷ Jeyms Joys. Uylliss sarguzashtlari. Roman. Rus tilidan Ibrohim G'afurov tarjimasi. –T., "O'zbekiston", 2013. 53-bet.

¹⁸ Jeyms Joys. Uylliss sarguzashtlari. Roman. Rus tilidan Ibrohim G'afurov tarjimasi. –T., "O'zbekiston", 2013. 19-20-betlar.

Darhaqiqat, roman sujetidan o'rin olgan voqealar silsilasi ong oqimi, ichki monologlarda o'z aksini topadi. Asardagi Leopold Blum obrazi o'z qobig'iga o'ralgan tubanlikka sho'ng'igan, jirkanish hissini yo'qotgan, birovga zarari ham, nafi ham tegmaydigan, ba'zan xatti-harakatida mehr-muruvvat milt etib qoladigan kimsa obrazidir. Bu tushunchalar ichki monolog va dialoglarda namoyon bo'ladi. Xullas Jeyms Joys bu asar bilan ong oqimi xususiyatini yuksak darajaga ko'tardi.

P. Koelo ijodining asosida o'z taqdirini hal qilish uchun harakat qilgan shaxslar obrazi yetakchilik qiladi. Adibning "Alkimyogar", "Iblis va Primxonim" kabi asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Romanda ramziy obrazlar bilan bir qatorda realistik tasvir xususiyati ham yetakchilik qiladi. oddiy cho'pon yigit Santiyago barcha narsadan voz kechib o'zligini anglashga harakat qiladi. Uning nimanidir izlashga sababchi bo'lgan holatlari juda asosli talqin etiladi. U tinimsiz turfa hududlarni kezib chiqar ekan, turli xil xarakterdagi insonlarni, ularning hayot tarzini, dunyoqarashini anglashga intiladi. Ba'zida esa hayotning murakkabligini, shafqatsizligini ich-ichidan his qiladi. Uning sabablarini anglashga intiladi. Uning "Alkimyogar" romanida cho'pon yigit Santiyagoning sayohatlari, o'z orzu –umidlarini yuzaga chiqarish uchun harakat qilgan shaxs obrazini kuzatamiz. Bu asar tarjimoni Aziz Said roman haqida shunday yozadi: "U tiriklik tashvishlari qirqib tashlagan ruhning qanotlarini yana parvozga yo'llagandek, g'amboda ko'ngillarga qayta hayot ufurgandek bo'ladi. Dunyoga, o'zingizga boshqacha nazar tashlashga majbur qiladi: Dunyo-sirli va oddiy, O'zingiz-noyob bir mo'jiza va qudratli ekanligingizni anglaysiz".¹⁹ Asar sujetidan o'rin olgan voqealar inson tafakkur tarzini, uning o'ziga xos botiniy olamidagi mulohazalarini yuzaga chiqaradi: "Jun sotmoqchiman", -degan edi o'shanda u savdogarga. Peshtaxta yonida odam tirband bo'lgani uchun xo'jayin cho'pondan tushgacha kutib turishini so'radi. Santiyago rozi bo'ldi va yo'lakka o'tirib, yelkasidagi qopchig'idan kitobini chiqarib o'qishga tutindi. –Voy cho'ponlar ham o'qishni biladi deb sira o'ylamagan ekanman, -nogohon yonginasidan qiz bolaning ovozi jarangladi. Santiyago boshini ko'tarib qizni ko'rdi-u haqiqiy andulisiyalik edi: qop-qora, mayin sochlari taqimiga tushgan, ko'zlari bir zamonlar Ispaniyani zabt etgan mavrlarniki kabi charos ko'zlar edi... qiz shu do'kondorning qizi ekanligini va hayoti nihoyatda

¹⁹ Aziz Said. Paulo Koelo va "Alkimyogar". Qarang: Paulo Koelo. Alkimyogar. Roman. –T., "Yangi asr avlodi", 2004. 179-bet.

zerikarliligini, kunlari go'yo ikki tomchi suvday bir-biriga o'xshashligini aytib xasrat qildi".²⁰

Bu iqtiboslardan anglash mumkinki, moddiy boylik emas, ma'naviy boylik insonni yuksaklik sari olib chiqadi. Santiyago bilan do'kondorning qizi o'rtasidagi suhbatda ularning o'ziga xos qarashlari namoyon bo'ladi. Santiyago suhbat qilar ekan, bu suhbatni hech qachon tugamasligini, do'kondor xaridorlardan bo'shamasligini juda-juda istardi. U hech qachon mana shunday maroqli suhbatni, hayotning go'zalligi bejiz emasligini his qiladi. Qora soch qiz bilan o'tkazgan kunlari esa ikki tomchi suvday o'xshash bo'lmas edi. U do'kondor chiqqandan so'ng to'rtta qo'yning junini qirgish uchun tanlab oladi va bir yildan so'ng kelsang yana olaman deb haqqini to'laydi. Bu bir yilni Santiyago orzuqib kutadi. Ana shunday o'y xayollar zahirida shakllangan Santiyago hayotni, insonni anglash naqadar mushkulligini his etadi.

Adabiyotlar:

1. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. –T., "O'zbekiston", 1997. -416bet.
2. Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti. Maqollar to'plami. –T., "Mumtoz so'z", 2012. -308 bet.
3. X. Do'stmuhammad Harakatdan to'xtagan jarayon qissasi. Qarang: Frans Kafka. Jarayon. Roman (tarj: Vafo Fayzullo). – Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. -288
4. Jo'rayev T. Ong oqimi modern. – Farg'ona, "Farg'ona" nashriyoti, 2009. -204 bet.
5. Jeyms Joys. Uylliss sarguzashtlari. Roman. Rus tilidan Ibrohim G'afurov tarjimasi. –T., "O'zbekiston", 2013. -840 bet.
6. Aziz Said. Paulo Koelo va "Alkimyogar". Qarang: Paulo Koelo. Alkimyogar. Roman. –T., "Yangi asr avlodi", 2004. 179-bet.
7. Paulo Koelo. Alkimyogar. Roman. –T., "Yangi asr avlodi", 2004. -185 bet.
8. Frans Kafka. Jarayon. Roman. (Tarj. Vafo Fayzullo). – Toshkent, 2006. -288 bet.

²⁰ Paulo Koelo. Alkimyogar. Roman. –T., "Yangi asr avlodi", 2004. 18-bet.

QISSACHILIKDAGI POETIK O'ZGARISHLAR

Reja:

1. Istiqlol davri qissachiligida poetik o'zgarishlar.
2. Odil Yoqubovning qissachilik taraqqiyotidagi o'rni.
3. U. Hamdamning "Yolg'izlik" qissasi tahlili.
4. Isojon Sultonning "Munojot" qissasida tasvir usuli.
5. Qissachilik va adabiy – tanqidiy mulohozalar.

Tayanch so'z va iboralar: *Qissachilik taraqqiyoti, ruhiyat talqini, ramziylik, adabiy mulohazalar.*

Istiqlol va arafasida yaratilgan bir qator qissalarda hayot va inson muammolari bilan uzviylikda shaxs ruhiyatidagi o'zgarishlar badiiy talqin etilgan. Turfa xil mavzudagi qissalarda inson ruhiyatini yoritishga e'tibor qaratilgan. Bu davr adabiyotida Odil Yoqubov, Tog'ay Murod, Erkin A'zam, Ahmad A'zam, Shoyim Bo'tayev, Abduqayum Yo'ldoshev, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam, Salomat Vafo kabi ijodkorlar yaratgan badiiy asarlarda muhit va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlar bilan inson botiniy olamidagi qarama-qarshiliklar talqin etilgan. Sh. Bo'tayevning "Sho'rodan qolgan odamlar" qissasida insoniylik, ma'naviy barkamollik yo'lidagi shafqatsizliklar ochib berilgan bo'lsa, Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasida esa milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos qirralari talqin etiladi. Bu qissada Ziyodilla chavandozning ichki kechinmalari, tuyg'ulari, hayotga bo'lgan munosabatlari teran tahlil qilinadi Normurod Norqobilov qissalarida esa inson va nabobod olami o'rtasidagi bog'liqlik majoziy obrazlar orqali insonning shafqatsizligi, tabiatga bo'lgan munoabati va inson ruhiyatidagi evrilishlar o'z ifodasini topgan. Adibning "Qoyalar ham yig'laydi" qissasidagi Ernazar polvonning ichki iztiroblarini asos qilib olish mumkin. Shu o'rinda adabiyotshunos H. Karimov ta'kidlaganidek: "Qissa qahramonlari jumrad odamlar. Ma'lumki jumradlikning mezoni mardlik, adolatlilik, poklik, vatanparvarlik. Ernazar polvon ham oddiy mehnatkash, katta amalga yuksak bilimga ham ega emas kishilar. Shunday bo'lsa-da, kishi ularga mehr qo'yadi, sevib qoladi, xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Sababi ularning qalblari poklik, hallolik, diyonatlilik bilan yo'g'rilgan".²¹ Asarda Ernazar polvon, Sami cho'loq kabi obrazlar asosida qishloq hayoti, qishloq odamlarning o'ziga xos mag'rurligi teran talqin etilgan. Bu holatni Ernazar polvon bilan o'g'li o'rtasidagi suhbatlarda haqqoniy tasvirlanganligini kuzatamiz.

²¹ Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. –T., "Yangi nashr", 2010. 208-bet.

O'zbek qissachiligining taraqqiyotida Odil Yoqubovning o'ziga xos o'rnini mavjud. Uzoq yillik ijodiy izlanishlar jarayonida turfa xil janrlarda ijod etgan adibning qissachilik taraqqiyotiga "Tengdoshlar", "Larza", "Bir feleton qissasi", "Muqaddas", "Qanot juft bo'ladi", "Izlayman", "Qaydasan Moriko" kabi asarlari haqida turfa xil mulohozalar bildirilgan. Ilk asarlari haqida so'z yuritgan adabiyotshunos M. Qo'shjonov shunday yozadi: "Odil Yoqubov ham mazmunan, ham shakl borasida baravar izlandi. Bolalik taassurotlari asosida bitilgan asarlar endi uni qanoatlantirmas edi. U asta – sekin katta hayot yo'liga qadam qo'ydi. Hayotning muhim muammolari bilan qiziqdi. Odamlarning o'zaro munosabatlari, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi ziddiyat, insonning Vatan, jamiyat oldidagi burchi singari masalalar adib xayolini band qildi".²²

Darhaqiqat, yuqorida qayd qilinganidek, Odil Yoqubov oltmishinchi yillarga kelib, yuksak badiiy mukammal asarlar yaratishga krishdi. Bu davrdagi ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan ziddiyatlarni aks ettirish an'anasini yuksak darajaga ko'tardi. Shuning uchun ham adibning bu davrda yaratilgan asarlarida asosan ijtimoiy illatlardan bezgan inson iztiroblari o'z aksini topa boshladi. Yozuvchiga ilhomni o'z hayoti beradi, boshqalar hayotini tasvirlayotganda yozuvchi xayolining quvvatini o'z hayotidan oladi. Uning hayotida ko'rganlari, boshdan kechirganlari, ko'nglidan o'tkazganlari, fikr etganlari boshqalarda kuzatganlariga o'xshamas, buning natijasida turfa xil badiiy obrazlarni o'ziga xos tarzda aks ettirish an'anasini shakllantiradi. Yozuvchi Turkistonning go'zal o'lkalaridan biri bo'lgan Qarno qishlog'ida dunyoga keladi. Ana shu qishloq tasviri barcha asarlarda u yoki bu darajada o'z aksini topgan. Shuning uchun adabiyotshunos Ibrohim G'afurov adib ijodi haqida so'z yurtib shunday yozadi: "Adabiyotimizni talay qissalar, hikoyalar bilan boyitgan, uning rivojiga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shib kelayotgan Odil Yoqubov mana shu qishloqda tug'ildi. Bolaligim muzdek buloqlarning ko'zida, bepoyon bug'doyzorlar bag'rida, olmazor, o'rikzor, jiydazor bog'lar quchog'ida kechdi. Shular uni shoir etdi, shulardan u birinchi ilhomni oldi, shular uni umr bo'yi o'ziga oshiq qild, shulardan uyg'ongan muhabbat uning qalbida oliyjanob tuyg'ularni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Odil Yoqubovning biron asari yo'qki, unda shu go'zal qishloqning ta'siri, ta'biri sezilmasa. Uning roman, hikoya, qissalarida tasvirlangan ko'p dilbar manzaralar, ajoyib odamlar, munosabatlar Odil

²² M. Qo'shjonov. Saylanma. Ikki jildlik. Birinchi jild. Adabiy portretlar. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. 296-297-betlar.

Yoqubovning qishloqda ko'rgan manzaralari, yaqindan bilgan odamlarni eslatib turadi".²³

Yozuvchining „Qaydasan Moriko“ asarida inson ruhiyatidagi ziddiyatlar haqqoniy yoritilgan. Asardagi voqealar silsilasi asosan, rus-yapon urushi zamirida shakllangan bo'lib, adibning o'zi bu fojealarning guvohi va ishtirokchisi sifatida, inson qismatini, ziddiyatlarini muhitning biryoqlama tomonlarini teran anglagan holda obrazlarning xarakter va ruhiyatini asosli talqin etadi.

Adabiyotshunos I.G'afurov adib ijodi haqida shunday yozadi: „Bu katta sarbaland tog'. Uning qarida buyuk vulqon o'chog'i bor. O'choqda tinimsiz olov qaynaydi. Yetilgan lavhalarni o'z ichiga saqlab turolmaydi, dam-badam ularni yer yuziga oshkor qiladi. Odamlar vulqonning qaynoq nafasini his qilib turadilar. Bu vulqon jo'sh urganda uning qudrati O'zbekistondagina emas, Moskvadan tortib Yaponiyagacha sezilib turadi. O'quvchi, muxlis, adabiy jamoatchilikning sezgir seysmik apparatlari uning bezovta qalb tebranishlarini qayd etib boradilar“.²⁴

Adabiyotshunos qayd etganidek, adibning asarlari jug'rofiy kenglikdagi voqealar tizimini o'zida mujassamlashtirgan. Shu jihatdan Yapon o'lkasidagi hayot voqeligini asar sujetiga singdiradi.

„Inson hayoti tasodiflarga, goho yetti uxlab tushiga kirmagan voqealarga to'la. Shu yil G'alaba kuni urushda halok bo'lgan shahidlar xotirasiga bag'ishlangan muazzam majmuaning ochilish tantanasidan uyga qaytib, endi dam olaman deb turgandim, telefon jiringlab qoldi. Trubkadan qiz bolaning jarangdor ovozi keldi.

– Siz palonchi yozuvchimisiz? Men O'zbek turizmidan telefon qilyapman. Bizga Yaponiyadan bir guruh turistlar kelishgan. Bir xonim sizni tanir ekan, yo'qlayapti. Iloji bo'lsa ko'rishsam, deyapti. Hayratlandim.

– Qayoqdan tanirkan?

– Bilmasam, – dedi qizcha. – Yapon urushida qatnashgan ekansizmi? Port-Artur degan shaharda bo'lganmisiz? Battar ajablandim.

– Ha, bo'lganman. Lekin...

Qizcha gapimni bo'ldi:

– O'shanda ko'rishgan ekansizlarmi-yey. Qaysi bir kitobingizni o'qigan ekanmi-yey. «Ulug'bek» degan asaringiz bormi? O'sha kitobingizni o'qigan ekan. U ruscha bilarkan... Port-Artur! Ruscha biladigan yapon xotin! Allaqachon yodimdan chiqqan, biroq chamasi

²³ I. G'afurov. Mangu latofat. Badiyalar, risolalar. 2-kitob. – Toshkent, „Sharq“, 2008. 247-bet.

²⁴ I.G'afurov. Mangu latofat. Badiyalar, risolalar. Ikkinchi kitob. –Toshkent, „Sharq“, 2008. 255-bet.

ko'nglimning bir chekkasida mudrab yotgan ham ma'yus, ham kuz oftobiday tiniq esdaliklar selday yopirilib keldi-yu, xayolimni olib qochdi.

– Allo, – dedi qizcha. – Nega indamay qoldingiz? Yo uchrashishni xohlamaysizmi?

– Yo'-yo'q, xohlayman, xohlayman...

– Bo'lmasa telefonimni yozib oling. Istagan vaqtingizni aytasiz. Qolganini o'zim tashkil qilaman.

– Ming to'qqiz yuz qirq beshinchi yilning iliq kuz oylari, Yapon ofitserlari uchun qurilgan shinam shaharcha – Port-Artur. Yam-yashil archazorlar orasiga yashiringan bir qavatli ozoda, ko'rkam uycharlar. Rus so'zlarini allaqanday yoqimli bidirlab gapiradigan yapon qizchasi Moriko!"²⁵

Asar voqealari shu tarzda boshlanadi. Ammo asar sujetidagi voqealar tizimini yuzaga chiqarishda hayotiy ziddiyatlar, inson qalbidagi iztiroblar yetakchilik qiladi. Chunki urush hech qachon biror millat yoki xalqqa faqat yaxshilik olib kelgan emas. Uning asoratlari asrlar davomida inson qalbidagi jarohatlarni yangilab turgan va o'chmas iz qoldirgan. Shuning uchun yozuvchi o'z xayollariga berilar ekan, uning jarohatlari, qoldirgan izlari yangidan xotiralarni qayta jonlantiradi. O'sha davrlardagi hayot ziddiyatlari millati, elatidan qat'iy nazar insonni iztirobga solgan: "Salkam ikki ming chaqirimga cho'zilgan mashhur Gobi sahrosini yayov o'tganda chekkan uqubatlarimiz, ortda qolgan Gobi sahrosidan keyin yo'limizni to'sgan Xingan tog'lari ham orqaga chekingan. Oldinda esa cheksiz-chegarasiz, yam-yashil vodiy yastanib yotadi. Bu – shimoliy Manjuriyaning boshlanishi edi. Bizlarni, ust-boshimiz chok-chokidan ketgan, kiyimlarimiz Gobi sahrosi changalzorlarida dabdala bo'lib, faqat paytavada qolgan, soch-soqollarimiz tikanday g'ovlab ketgan sho'r peshona soldatlarni shu vodiy bo'ylab yana podaday haydab ketishdi. Bir hafta deganda temir yo'l o'tgan qandaydir shaharga yetib bordik. Bu yerda xuddi konservaga tiqilgan selyodka baliqday qizil vagonlarga tiqishib olib ketishdi. Odam xuddi g'imirlagan pashshaday, ularni qandaydir shaharlardan (keyin bilsak bu – Mukdsi va Xarbin degan shaharlar ekan) olib o'tgach, bir hafta deganda haligi qizcha aytgan Port-Artur shahri atrofida yapasqi qirlarga olib borib, xuddi gugurt qutisidagi gugurt

²⁵ O.Yoqubov. Qaydasan Moriko. Qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar, maqolalar. –Toshkent, „Sharq“, 2012. 169-170-betlar.

cho'plariday to'kib tashlashdi".²⁶

Bu xotiralarning jonlanishiga asosiy sabab telefon qo'ng'irog'idir. Asardagi voqealar shu tarzda rivojlanib boradi: "Qissalarda qahramon qismati, taqdiri, hayotidagi tub burilishlar, qaltis vaziyatlar izchil yoritib boriladi. Shu ma'noda asarlarda badiiy obraz masalasiga ham e'tibor qaratiladi. Qissalarda qahramonini chuqur va yorqin, badiiy mukammal tasvirlashda uning individual xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Qahramon va jamiyat munosabati, falsafiy-axloqiy masalalar yechimi asardagi bir-biri bilan uzviy bog'liq obrazlar tizimi vositasida amalga oshiriladi".²⁷

Haqiqatdan ham, yozuvchining bu qissasida voqealar izchillik bilan rivojlanib boradi. Asardagi obrazlar esa mantiqiy tarzda ijtimoiy muhit ziddiyatlarini ochib beradi. Asar sujetidan o'rin olgan obrazlar tizimida yapon generali, uning ikki qizi taqdiri bilan bog'liq voqealar silsilasi o'z ifodasini topgan. Yozuvchi Port – Artur shahrining go'zalliklarini peyzaj tasviriga singdiradi. Shu bilan birlikda uning go'zalliklari sobiq yapon generalining kichik, ammo ko'rkam bog'lari tasviri orqali inson xarakterini, uning botiniy olamidagi qarama-qarshiliklarni talqin etadi. "Biz kemalar mo'risidan eshilib chiqayotgan ko'kimtir tutunlarga entikib tikilamiz. "Biz ham bir kun shunday kemalarga tushib ona yurt tomon yo'l olarmikanmiz yo suyaklarimiz bu go'zal, lekin bizga yot tuproqlarda qolib ketarmikan", – degan o'y yuraklarimizni zirqiratadi..."²⁸

Bu talqinlar zahirida Ona – Vatan sog'inchi, yashashga bo'lgan ishtiyoq, muhabbat kabi tushunchalar inson qalbini larzaga soladi. Shuning uchun "O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l" maqollari ko'z oldimizda qayta jonlanadi. Yozuvchi inson ruhiyatini hayotga bo'lgan mehr-muhabbat orqali yanada go'zalroq tasvirlaydi. Buning sababi bir necha yillardan buyon vatandan yiroqda jangu-jadallarda umrini o'tkazgan, hali hayotning go'zalligini to'liq tatib ulgurmagan shaxs fojelarai o'z ifodasini topgan. "Qoniqmaslik tug'ib berayotgan adabiyot bizda mavjud va u inson qalbiga ochilgan mo'jaz darchaga o'xshaydi. Unga boqa olgan kishi o'z-o'zini, demakki, insoniy tomosha qiladi, biladi, hayratlanadi... Dunyoda anglashdek, tushunishdek, nihoyat, his etib yashashdek katta quvonchlar kam. Har qanday qonun-qoida insonning

²⁶ O.Yoqubov. Qaydasan Moriko. Qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar, maqolalar. –Toshkent, „Sharq“, 2012. 170-bet.

²⁷ U.Rasulova. XX asr o'zbek qissalari tadriji. –Toshkent, "Fan", 2012. 31-bet.

²⁸ O.Yoqubov. Qaydasan Moriko. Qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar, maqolalar. –Toshkent, „Sharq“, 2012. 171-bet.

xatti-harakatlarini o'z qolipiga solib baholashga harakat qilsa, adabiyot, ha-ha, aynan adabiyotning o'zi insonning bag'riga sig'ishga intiladi".²⁹

Bu fikrlarga asoslangan holda inson tafakkuridagi evrilishlarni, hayotiy ziddiyatlarni badiiy asar o'z tarkibiga singdirar ekan, uning qismatidagi fojealarni ham asar sujetida talqin etadi. Bu qissa tarkibidagi voqealar xuddi yuqorida qayd qilingan tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi. Urush dahshatlarini o'z boshidan kechirgan yozuvchi hayotning faqat go'zalligini emas, uning ziddiyatlarini ham talqin etadi. Bu esa kitobxonni inson va jamiyat tushunchalari bilan birlikda his qilishga majbur qiladi. Ana shunday tasvirlar inson ruhiyatini o'ziga xos tarzda taqin etishga olib keladi: "Bu takasaltang, daydi hayot o'n kunga cho'zildi. So'ngra tevarak-atrofdagi qismlardan bizga "sovchi"lar kela boshladi. Ular o'zlariga kerak soldatlarni tanlab olishadi. Birovga merganlar, birovga pulemyotchi, birovga avtomatchilar kerak, yana birovga esa oshpaz kerak, hatto sartarosh, tikuvchilarni ham qidirib kelishadi. Shunday kunlardan birida nomiga rota deyilgan, aslida intizom qolmagan bizning qismimizga ko'ksi jarang-jurung orden-medallarga to'la yosh, xushsurat bir mayor ikkita ofitser bilan "sovchi" bo'lib keldi. Ularga o'n-o'n beshta avtomatchilardan tashqari shtabda xizmat qiladigan, xati chiroyli, savodi yaxshi bir soldat ham kerak ekan".³⁰

Asardagi voqealar rivoji xuddi shu tasvirdan so'ng badiiy konfliktni yuzaga chiqara boshlaydi: "Rota komandirimiz jangovor, ammo bor-yo'g'i yettinchi sinfni bitirgan ofitser bu masalada mendan «foydalanib» turar, yuqoriga yuboriladigan har xil axborotlarni menga yozdirib yurardi. U meni mayorga tavsiya qilgan ekan, chaqirib qolishdi. Mayor xuddi xarid qilgani ot bozoriga kelgan odamday, yelkamdan ushlab, uyoq-buyoqqa o'girib ko'rdi-da, to'satdan.

Istiqlol davr adabiy jarayonning yetakchi ijodkorlardan biri Ulug'bek Hamdamdir. Adibning "Yolg'izlik" qissasida inson botiniy olamidagi qarama-qarshiliklar bilan birga o'zlikni anglashga intilayotgan shaxs timsoli yetakchilik qiladi. Adabiyotshunos Bahodir Karim qayd qilgandek: "Yolg'izlik muayyan bir qiziq voqea-hodisaning badiiy talqiniga bag'ishlangan emas, unda an'anaviy obrazlar, tasvirlar, manzaralar, dialoglar yo'q; u –monolog qissa. Shu ma'noda "Yolg'izlik" inson ruhiyatidagi jo'shqin va tushkun, o'ychan va o'ysiz kayfiyatlar, isimsiz iztiroblar mahsuli sifatida paydo bo'lgan... "Yolg'izlik"-yangicha yozish

²⁹ U.Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. –Toshkent, "Fan", 2007. 15-bet.

³⁰ O.Yoqubov. Qaydasan Moriko. Qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar, maqolalar. –Toshkent, „Sharq“, 2012. 171-bet.

yo'lidagi tajriba, ko'ngil izhori. Unda ijtimoiy muammolarni bayroq qilish yo'q; davrni izohlashga berilish sezilmaydi. Ammo unda davr – zamon tasviri qahramonining mushohadalariga o'z asoratini qoldirgan”.³¹ Qayd qilingan tushunchalarga asoslanadigan bo'lsak asar qahramoni o'z tuyg'ulari bilan kurashadi. Buning sababi olam va odamga bo'lgan munosabatlarning mahsuli sifatida yuzaga chiqadi: “Ko'nglim vaqti-vaqti bilan qahramoninii xuddi o'pqqon kabi o'z qariga tortadi. Qahramonini ilonning joduli ko'zlari qarshisida serryayib qolgan qurbaqadek harakatsiz qotaman. U esa qahramoninii yutaveradi, yutaveradi... To'g'risi, jarayon qahramoniniga xush yoqadi. Ba'zan hatto ko'ngilni tark etib, moddiy o'lchovlar olamiga –tashqariga chiqqim kelmaydi. Lekin na iloj, tirikligim tirikchilik g'amini yeyishimni taqozo qiladi. Chor nochor, kayfsizu behol... ko'ngilni qoldirib, ko'pchilik yelib – yugurib yurgan makonga – dunyoga qaytaman”.³² Bu o'rinda inson ruhiyatidagi ziddiyatlar bilan kurashadi. Asarda monolog nutq yetakchilik qiladi. Bu esa asar qahramonini turfa xil holatlarga bog'liq holda uning xarakterini shakllantiradi. Asar haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Rahimjon Rahmat: Men “Yolg'izlik” asari qahramoni xarakterida Freyd ta'rifini keltirgan ong va ongsizlik o'rtasidagi hamishalik jang yaqqol ifoda etilganligini payqadim”,- deb yozadi.

Xullas, qissada ong oqimi yetakchilik qiladi. Xuddi shu asnoda inson tafakkuridagi evirilishlarni haqqoniy yoritadi.

Isajon Sultonning “Munojot” qissasida asar qahramoni G'aribning o'z qarashlari tafakkur dunyosi, ruhiy qiynoqlari mahorat bilan yoritilgan. Asardagi quyidagi tasvirga e'tibor qarataylik: “Yangi inson dunyoga kelgan chog'da yomg'ir o'rik gullarini to'kib, loyga qorishtirib sharros quya ketdi. Doya – qo'shni Malika xola shosha – pisha eshik – derazalarni mahkamladi va yomg'irning sovuq shabadasidan eti junjikib, yana Adol opaning yoniga qaytib bordi. Ko'p o'tmay ayolning ko'zi yoridi, xola chaqaloqning kindigini qirqib, yo'rgakka urayotganida, u ko'zlarni ochdi va big'illab yig'lab yubordi... uning ismini, Doyaning xoshidan farqlio'laroq G'arib qo'ydilar ism tanlashning o'zi bir g'alvo bo'ldi, jiyanlik bo'lganidan terisiga sig'may bir qo'y yetaklab kelgan tog'a “Yodgorbek bo'lsin, pochchamdan yodgor”, deb turib oldi, Adol opa esa qorinda yig'laganlarda Mashrab deb nom qo'yilishini aytib oyoq tiradi, nihoyat, bir yuzu yetti yoshga kirgan Fotima ena hassasini bir do'qqillatib,

³¹ Bahodir Karim. Ulug'bekning dil izhori. Qarang: Ulug'bek Hamdam. Uzoqdagi dil nuri. Qissa, hikoyalar va she'rlar. –T., ”Akademnashr”, 2010. 4–bet.

³² Ulug'bek Hamdam. Uzoqdagi dil nuri. Qissa, hikoyalar va she'rlar. –T., ”Akademnashr”, 2010. 12–bet.

“Ekoviyjammash, G’ayib bo’sin”, dedi. Bu kampirning so’zini ikki qiladigan kishi qishloqda yo’q edi, noiloj ko’ndilar”.³³

Asarda G’aribning dunyoga kelishi, uning yillar o’tishi bilan hayotga borliqqa teranroq nazar solishi va o’z olami bilan ma’lum bir davrlarni o’tkazishi juda yorqin lavhalarda ifodalangan. G’arib ko’proq o’z xayollariga berilar, bu bilan inson xarakteridagi turfa xil holatlarni yoritilganligini kuzatamiz. U voqealar silsilasida olam va odam haqidagi qarashlarni boyitishga intilayotgan, uni anglashga, his qilishga harakat qilayotgan shaxs qismatini kuzatamiz.

Adabiyotlar:

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T., “Ma’naviyat”, 2000. -112 bet.
2. Bahodir Karim. Ulug’bekning dil izohori. Qarang: Ulug’bek Hamdam. Uzoqdagi dilnura. Qissa, hikoyalar va she’rlar. –T., ”Akademnashr”, 2010. 4–bet.
3. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Darslik. –T., “Yangi nashr”, 2010. - 364 bet.
4. M. Qo’shjonov. Saylanma. Ikki jildlik. Birinchi jild. Adabiiy portretlar. – Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982. - 320 betlar.
5. O.Yoqubov. Qaydasan Moriko. Qissalar, dramalar, hikoyalar, etyudlar, maqolalar. –Toshkent, „Sharq“, 2012. -432 bet.
6. U. Rasulova. XX asr o’zbek qissalari tadriji. –Toshkent, “Fan”, 2012.-60 bet.
7. U. Hamdam. Yangilanish ehtiyoji. –Toshkent, “Fan”, 2007.
8. Ulug’bek Hamdam. Uzoqdagi dilnura. Qissa, hikoyalar va she’rlar. –T., ”Akademnashr”, 2010. –232 bet.
9. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. Roman. –T., ”O’zbekiston”, 2011. -280 bet.
10. G’afurov I. Mangu latofat. Badiyalar, risolalar. 2-kitob. – Toshkent, “Sharq”, 2008. -298 bet.

HIKOYACHILIK TARAQQIYOTI VA USLUBIY IZLANISHLAR

Reja:

1. Istiqlol davri hikoyachiligidagi poetik o’zgarishlar.
2. Istiqlol davri hikoyachiligi va adabiy – tanqidiy qarashlar.
3. Ulug’bek Hamdamning “Unutilgan nay navosi”, “So’z”, “Tosh”, “Lola” hikoyalari tahlili.

³³ Isajon Sulton. Boqiy darbadar. Roman. –T., ”O’zbekiston”, 2011. 98-99-betlar.

4. Isajon Sultonning “Sog’inch”, “Do’st”, “Qismat”, “Oydin buloq” hikoyalari haqida mulohazalar.
5. Normurod Norqobilov hikoyalari tahlili.

Tayanch so’z va iboralar: *Hikoyachilik taraqqiyoti, noan’anaviy talqin, ramzlar orqali ma’no ifodalash, xarakter yaratish.*

Istiqlol davr adabiy jarayoni turfa xil janrlarni tarkibdagi o’ziga xos badiiy talqinlarni tom ma’noda yuzaga chiqardi. Shu jihatdan hikoyachilik taraqqiyotida ham bunday holatlarni kuzatish mumkin. O’zbek adabiyotida hikoya janri o’z tari va taraqqiyotiga ega. Keyingi yillarda bu janrning rivojiga sezilarli hissa qo’shib kelayotgan adiblardan biri Xurshid Do’stmuhammaddir. Uning hikoyalarida inson qalbidagi iztiroblar, ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar kabi muammolar o’zining badiiy talqinini topgan. Bu davr adabiyotida Nazar Eshonqul, Xurshid Do’stmuhammad, Ulug’bek Hamdam, Isajon Sulton, N. Norqobilov, S. O’nar, A. Yo’ldoshev kabi bir qator ijodkorlarning turli xarakterdagi hikoyalarni kuzatishimiz mumkin. Biz bu o’rinda ramziylik, majoziylik kabi xususiyatlarni o’zida mujassamlashtirgan hikoyalarga to’xtalib o’tamiz.

Adabiyotshunos U. Normatov qayd qilganidek: “So’nggi yillardagi bizdagi adabiy jarayonga xos eng muhim xususiyatlardan biri shundaki, adabiyotimiz chinakkamga xilma xil bo’lib boriyabti... bizda ham falsafiy asosi jihatidan xilma xil yo’nalishga mansub asarlar paydo bo’la boshladi”.³⁴ Shu nuqtai nazardan Xurshid Do’stmuhammad ijodida ham bu xususiyatni bevosita kuzatishimiz mumkin. Yozuvchining “Jajman” hikoyasida o’ziga xos xarakterini yoritib beradi. Agarda “bozor”, “bozor hayoti”, “insonning kunlik tashvishi” tasvirlangandek, ammo “bozor”-bu kunlik hayotimiz, unda ramziylik mavjud bo’lsa, “Jajman”da majoziylikni ko’ramiz: “Hademay, tong otadi, olam nurga to’ladi ... Odamlar uyg’onadi, bozor uyg’onadi .. til darvozasi lang ochiladi, g’ala-g’ovur boshlanadi .. tumonat toshib-shoshib oqib kiradi, oqib chiqadi ... sotuvchi keladi, xaridor keladi, bekorchi keladi ... oyoqlar tinmaydi, qullar tinmaydi, og’izlar tinmaydi ... kiraveradi-chiqaveradi, kiraveradi-chiqaveradi ... olayotgan pulim deydi, sotayotgan molim deydi ... trikchilik bilan basharning tumshug’idan jilov o’tkazib yetovga soladi ... “bozor” deya atalmish tovacha solib aylantiraveradi”. Hikoya qahramoni Zardo’sht bobo tilidan aytilgan bu fikrlarda ramziylik, yashirin mano, chuqur falsafiy

³⁴ Normatov U. Umiddaxsh tamoyillar. –T., “Ma’naviyat”, 2000. 4-5-betlar.

tushunchalar o'z ifodasini topganligini guvohi bo'lamiz. Kitobxon yuqoridagi talqinlarni o'qir ekan, bozor-bu hayot demakdir,-degan tushunchaga boradi. Nima uchun inson tongdan to kechgacha qadar tinimsiz izg'iydi, bozorda esa turfa xil xarakter egalarini uchratamiz, ular qayergadir shoshar, sotuvchi esa o'z molini o'tkazishga urinar, o'z foydasini o'ylar, shu orqali kun o'tkazishi tabiiy. Ammo bu o'rinlarda insonning hayotini o'zi bozor jonligini, bozorda turli xarakter egalari bo'lgani kabi, inson hayoti xam bir tekis emas, u bazan adolatsizlikdan iztirob chekadi. Hayotdagi ziddiyatlarga emas, uning o'z ruhiyatidagi ziddiyatlari xam mavjud bo'lganidek, jamiyat ham inson tafakkuri orqali o'zgarib boradi. Bu o'rinlarda asardagi falsafiy talqinning mushoxadaning mahorat bilan asar sujetiga singdirilganligini anglaymiz. Nafs quliga aylanib borayotgan inson qiyofasi "Jajman" orqali tasvirlayotgandek tassurot qoldiradi. Chunki u yeb to'ymas, butun bozorni kichik bir qorniga joylashtirmoqchi bo'lardi: "Uni men to'ydiraman! Yo'q, qorni yorilib ketguncha men boqaman uni!", deb bahs boylaydiganlar chiqdi, lekin har safar "To'ydiraman!" deb katta ketganlar guv tushaverdi, Jajmaning yeb-to'ymasligi siripiga qolaverdi".

Asar haqida so'z yuritgan N. Davrboyeva yozadi: "Jajman bu o'rinda poraxo'rlar, tovlamachilar, umuman aytganda millat ichidagi mitti-mitti yuhalar sifatida ko'rinadi. Bu yuhalarni biz istagan nom bilan atashimiz mumkin".³⁵ Shu o'rinda, nafs balosiga giriftor bo'lgan inson va insonlar qiyofasi haqida so'z ketayotganini his etamiz. Asar sujetidan o'rin olgan Zardo'sht bobo obrazi alohida ajraltib turadi. Yozuvchi uni asar voqealari silsilasiga bevosita aralashtirmaydi, ammo u orqali manaviy yetuk inson qiyofasini, yaxshilik, ezgulik va yomonlik, adolatsizlik o'rtasidagi ziddiyatni ham mavjudligini teranroq anglab olamiz. Chunki insoniyat yaralibtiki, ezgulik va yovuzlik o'rtasida kurash abadiy mavjud bo'lib kelmoqda. Ammo ezgulik asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, g'alaba qozonadi, haqiqat yuzaga chiqadi: "Haroringni darig' tutma, Ahuramazda!... Ko'ngillarni o'zing munavvar qilgaysan..." dedi Zardo'sht bobo ichida iltijo qilib".

Hikoyada Ahuramazda ezgulikni yuzaga chiqarishda yomonlikni, yani Jajmanlar olami esa Axriman ustidan g'alaba undovchi asosiy tushunchadir. Shuning uchun ham Zardo'sht bobo goho-goho "-Ogoh bo'l,

³⁵ N. Davrboyeva, "Jajman"ning Jilvalari// Yoshlik, 1991-yil, №5-son, 43-bet.

ogoh, Ahuramazda!... –Axriman o'lmagan, Ahuramazda!... Ogoh bo'lgaysizlar, yaxshilar, ogoh!... deya murojaat etadi.

Xullas, yozuvchining “Jajman” hikoyasini keyingi yillar hikoyachiligining eng yaxshi namunalaridan biri sifatida baholash mumkin.

Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi ramzlar orqali murakkab hayotning turfa xil qirralarini o'ziga xos talqin etadi. Adabiyotshunos U. Normatov qayd qilganidek: “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi paydo bo'lgan, unda asrda tengdosh umri asrning alg'ov – dalg'ovlari, bema'ni maqsadlar yo'lida o'tgan, adashgan odamning fojeaviy qimmati betakror tarzda ifoda etgan”.³⁶ Asarda rassom chol obrazi orqali umrning asosiy qismini jamiyat taraqqiyoti uchun baxsida etgan shaxslarning fojeaviy qismatini talqin etadi butun hayoti davomida e'tiqod qo'ygan jamiyatning parokandalikka yuz tutishi haqqoniy yoritilgan. Umrning so'nggi damlarida butun e'tiqodi sarobga aylangan shaxsninig ayanchli qismati asosli talqin etiladi.

Rassom chin ma'lum bir davrda maxsus sohalarda xizmat qilgan, ammo davrlar o'tishi bilan besamar o'tgan hayotiga achinish bilan qaraydi. Bu faqat bir shaxs fojeasi emas, ma'lum bir tizimni jamiyatni fojealarni o'zida umumlashtirgan timsoldir. U o'zligini anglashga intilgan bir davrda taqdir uni beshavqat jazolaydi. U chizgan sur'atlarda ham ijtimoiy muhitning og'ir va ayanchli fojealari mujassamlashgan edi. “Cholning ko'zlari hissiz va ifodasiz, uni ko'rgan odamning yuragi g'ash tortadi, ko'ngli behuzur bo'ladi, kayfiyati buziladi. Yashab turgan uyidan faqat chirkin va shaltoq is aniqydi. Hikoyada ruhiy holatni kuchaytiruvchi timsollar ko'p, ularning hech biri bevaj ishlatilmaydi, balki muallif ko'zda tutgan bosh maqsad – rassom chol fojeasini chuqurroq va bo'rtiribroq ifoda etishga xizmat qiladi. Badiiy ishora va timsollarga e'tibor qaratilsa, chol qismatida yetmish yillik sho'ro mafkurasi, e'tiqodining ayanchli qismati mujassam topgani ko'rinadi”.³⁷ Hikoyada norg'ul va baqquvat bir yigitning quyuq o'rmonzordan qalin bir zanjirda maymunni yetaklab chiqayotgani tasvirlangan bo'lsa, asarning ma'lum bir nuqtasiga borganda keksa, mung'ayib qolgan cholni maymun yetaklab o'rmon sari ketayotgan tasviri inson umrining ifodasi yoki ma'lum bir jamiyat taraqqiyotiga butun kuch quvvatini sarflagan inson qismati o'z aksini topgan. Asar talaba yigit tilidan bayon etilgan bo'lib, rassom cholning og'ir hayotini ko'z

³⁶ Normatov U. Umidxbaxsh tamoyillar. –T., “Ma'naviyat”, 2000. 39-bet.

³⁷ Do'smuhammad X. Nazarning umidxbaxsh kemalari. Qarang: Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. Qissalar va hikoyalar. –T., “Yangi asr avlodi”, 2004. 3-4-betlar.

o'ngimizda gavdalantiradi: "Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshikdan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda savat kursida o'tirgancha oldidagi suratromga egilib olgandi. Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday quvillab yotardi. Ustin va romlar chirigan, umuman hovildan chirkin va badbo'y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid asta axlat solinadigan unduqdan kelardi. Hiddan ko'nglim ayniganday bo'lib chol o'tirgan ayvonga yo'l oldim".³⁸ Bu tasvirlardan cholning og'ir hayoti bilan bir qatorda, e'tiborsizligi, o'z iztiroblari iskanjasida hayot kechirayotganligi ko'rinadi. Ammo uy ustunlarning chirishi ramziy ma'noda bo'lib, o'sha davr muhiti, yoki jamiyatning o'zgarishi haqidagi turfa xil qarashlarni ilgari surishga imkon beradi. Uning aksariyat rasmlarida qora rang yetakchilik qilar, buning sababini esa anglab yetolmasdi. Rassom chol dunyo san'atidan xabardor, xuddi uzoq yillar ijod bilan shug'ullangandek taassurot uyg'otadi: "Ayvon uzun bo'lib, suratlar chizilgan yillariga qarab ko'rgazmaga qo'yilgandek terib qo'yilgan, to'g'rirog'i, bor-yo'g'i qirqqa yaqin surat va eskizlar "1957", "1937", "1928", "1926" va hakazo tartibda terib qo'yilgan edi". Surtatlarni ramziy ma'noda nomlanishni o'zidayoq rassom cholning hayoti, umr lahzalarining ma'lum bir davri mujassamlashgandek taassurot uyg'otadi. Bu asar ham istiqlol arafasida yaratilgan bo'lsa-da, badiiyatimizdagi ilk o'zgarishlarni bu hikoya misolida isbotlash mumkin.

Yozuvchining "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi ham realistik tasvirda yaratilgan bo'lsa-da, relizmning turfa xil ko'rinishlari mavjud ekanligini namoyon qila olgan. Asarda oddiy o'zbek ayoli Bayna momoning fojeali hayoti bilan bir qatorda, jasur, matonatli hayoti haqqoniy yoritilgan. Asar qahramoni turmush o'rtog'i va farzandidan ayrilgandan so'ng, ularning o'limiga sababchi bo'lgan shaxsdan o'ch oladi. Lekin bu xususiyatni asarning eng so'ngida Bayna momo vafotidan so'ng tugun yechiladi. Asarda Bayna momo obrazi orqali o'z g'ururiga ega bo'lgan inson obrazi ifodalangan. U eri Rayim palvon va o'g'lining vafotidan so'ng o'z iztiroblarga burkanib hayot kechiradi. Hatto ularning o'limiga sababchi bo'lgan Zamon otboqarning o'limi ham uning qalbidagi iztiroblarni yo'qota olmaydi: "Barcha ayollar quvonchdan hammani bir bir quchib chiqadi deb o'ylashgandi. Ammo Bayna momo xabarni malikalardek xotirjam qabul qildi... Faqat uning barmoqlari qaltirab turar, xonada qon hididay noxush hid o'tirib qolgandi. Ayollar undan javob

³⁸ Yuqoridagi asar, 121-bet.

kutib, uzoq o'tirishdi. Oradan ancha vaqt o'tgach, Bayna momo ularga o'girilib ham qaramay, go'yo ularni ko'rishdan ijirg'anganday, jirkangandek alfozda "boringlar, o'liklaringga yig'langlar" dedi. Uning qahr to'la tovushi ko'pdan buyon odam qadami yetmagan hujralar ichiga singib ketdi: u yerdan yigirma yetti yillik chahu g'ubor go'yo zardali ovozdan qaltirab ketgandek joylardan bir qimirlab qo'ydi, so'ng yana hujralarga bu xonadon boshiga tushgan g'am – anduhday abadiy cho'kdi".³⁹ Bu tasvirlarda Bayna momoning yolg'izlikda o'tgan umrigina emas, uning qalbida Zamon otboqarga, atrofdagi loqayd odamlarga bo'lgan nafrati ham mavjud edi. Asar so'ngida Bayna momo vafotidan so'ng o'limlikka atalgan narsalarni olar ekan, narsalari orasidan chirisining yirtig'iga palapartish o'rab tashlagan o'nta odam barmog'i ham topiladi. Bu tasvirdan Bayna momoning o'zi kulfatu nafratga burkanib yashagan bo'lsa-da, eri va o'g'li uchun ularning xuni uchun Zamon otboqardan o'ch olganligi ma'lum bo'ladi. Asarda realistik tasvir yetakchilik qilib, bu tasvirning ham hali adabiyotimizda unumli foydalanmagan qirralari mavjudligini kuzatamiz.

Ulug'bek Hamdam yaratgan hikoyalarda ham o'ziga xos badiiy talqinlarni kuzatamiz. Adibning "Vatan haqida qo'shiq", "Unutilgan nay navosi", "So'z", "Musulmon", "Bir payola suv", "Lola", "Tosh" hikoyalarida xayolat bilan reallik, tush va o'ngda kechgan voqea – hodisalarga badiiy falsafiy jihatdan yondashish holati kuzatiladi. Bu hikoyalar tarkibida turfa xil poetik ma'no mujassamlashgan bo'lib, inson tafakkuridagi, botiniy olamidagi o'y – xayollar asosida obraz yaratish an'anasi kuzatiladi. Adabiyotshunos U. Normatov qayd qilganidek: "Eng muhimi ularda so'nggi yillar adabiyotimizda, qolaversa, jahon adabiyotida ham tansiq bo'lib turgan o'zda yuksak ideallarni tashuvchi, idealga intiluvchi qahramonlar birin-ketin bo'y ko'rsatayotir".⁴⁰

"Unutilgan nay navosi" hikoyasida Vatanning aziz va muqaddas ekanligini, bu zaminning go'zalligi bilan bir qatorda Vatandan uzoqda hayot kechirgan shaxs qismati, uning ortirgan boyliklari-yu, mol-mulki Vatan oldida arziyas bir holat ekanligiga urg'u berilgan. Asarda Alisher obrazi orqali biz bu holatlarni teranroq his etamiz: "Yigitning rizqi ko'chada bo'larkan, o'qishni Moskvada davom ettirdi, ta'lim poyoniga yetgach esa, megapolisda qoldi, tirishqoqligidan yo'llar ham sekin-asta ochila bordi. Endi qarasangiz zavqingiz keladi, kechagina chekka bir

³⁹ Eshonqul N. Shamolni tutib bo'lmaydi. Qissa va hikoyalar. –T., 2005. 8-9–betlar.

⁴⁰ Normatov U. Kichik janrning katta imkoniyatlari. Qarang: Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq. –T., "Akademnashr", 2014. 424-bet.

qishloqda qo'y-mol boqib, shimi tushib yurgan o'spirin bugun kurrayi zaminning eng uzuvqara shaharlardan birida kattakon idora rahbari... Faqat... faqat shu nay balosi qaydan chiqib qoldi?.. Chiqqani bir go'r, nega u Alisherning botinida ha deb chalingani-chalingan? Nima uchun u chalinganda Alisherning butun o'tmishi, tug'ilib o'sgan yurti, o'sha yerning yaxshi-yomon, katta-kichik odamlari yodiga qalqib chiqaveradi, chiqaveradi?"⁴¹ Bu tasvirlarda Alisherning o'z olamidagi ziddiyatlar bilan uzviy bog'liq holda, Vatan sog'inchi, o'zi tug'ilib o'sgan beg'ubor bolalik damlari o'tgan oddiy qishloqni, uning sodda va beg'ubor odamlarini ko'z oldida jonlanishi ham bejiz emas. Bu esa o'quvchini Vatanga bo'lgan muhabbatini teranroq his etishga, uning har bir giyohu, changu g'uborini e'zozlash bejiz emasligini anglashga qaratilgan.

Adibning "So'z" hikoyasida bir og'iz so'z tufayli inson ko'nglining inja nozikliklari teranroq his etiladi: "-hoy, ko'zingiz ochiq uxlab qoldingizmi? – turtidi erini. – U yoqda osh tagi olib ketagandir – deb ham o'ylamaysiz – a?! – Sen oshni aytasan, bu yoqda mening hayotim tagiga olib ketmoqchi-ku! Osh tagiga olgan bo'lsa olgandir, uni qaytadan boshlash mumkin, lekin umrni-chi?"⁴² Bu satrlarda o'tkinchi hayotning murakkab tomonlari, inson botinidagi olam va odam haqidagi qarashlarni o'z aksini topgan.

"Tush" va "Lola" hikoyalarida ramziy tasvirlar bilan uzviy bog'liq holda, xayolat va hayot haqidagi qarashlar, inson qalbidagi anglab bo'lmas tushunchalar mahorat bilan talqin etiladi. Inson qalbi o'ta nozik bo'lishi bilan birga uning turli xil holatlarga tushishi, tushkun kayfiyatdagi xarakter qirralari talqin qilingan. "O'sha kun kechasi mijja qoqmay to'lg'onib chiqdim. Tongga yaqin esa ko'zim ilinibdi. Keyin tush... Unda men qo'limda tosh bilan ko'chalarni kezar, duch kelgan odamning boshiga u bilan urar, qonatar ekanman". Aslida bu tosh uning ko'nglida edi, lekin yillar o'tib qo'liga tushishi ham bejiz emas, uning qalbida toshdek qotgan yovuzlik yillar o'tgan sayin ezgulik sari intilayotgan inson qiyofasini kuzatamiz. "Lola" hikoyasida ham inson botinidagi tuyg'ular va yaxshilik, ezgulik, nafs tushunchalari o'rtasidagi ziddiyatlarni kuzatamiz. Asardagi voqealar silsilasi shaxs qalbida mujassamlashgan xislatlarni anglashga xizmat qiladi.

⁴¹ Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq. –T., "Akademnashr", 2014. 445-bet.

⁴² Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq. –T., "Akademnashr", 2014. 496-bet.

Isajon Sultoninig "Sog'inch", "Do'st", "Qismat", "Oydin buloq" hikoyalarida ham istiqlool davr adabiy jarayonning tarkibidan o'rin olgan hikoya janridagi poetik o'zgarishlarni kuzatamiz. "Sog'inch" hikoyasida tabiat tasviri bilan bog'liq holda inson ruhiyatidagi evrilishlarni tasvirlaydi. Adibning yuqorida qayd qilgan hikoyalarida polifonik tasvir xususiyatari ham mujassamlashgan. Uning hikoyalarida shamolning esishida ham o'zgacha bir ma'no mavjuddir. Hikoyadagi musicha obrazida ham ma'lum bir ma'no mavjud bo'lib, insonning beg'uborligi hayot yo'lidagi ziddiyatlarni ko'rishimiz mumkin. "Oydin buloq" hikoyasida esa bolalik xotiralarining beg'uborligi, inson qalbidan chuqur iz olgan yoshlik hayotining go'zalliklari haqidagi tuyg'ular insonni hech qachon tark etmasligiga ishonch hosil qiladi.

Adabiyotlar:

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T., "Ma'naviyat", 2000. -112 bet.
2. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. Adabiy-tanqidiy maqola va risolalar. –T., "Akademnashr", 2013. -336 bet.
3. N. Davurboyeva, "Jajman"ning Jilvalari// Yoshlik, 1991-yil, №5-son, 43-bet.
4. Do'smuhammad X. Nazarning umidbaxsh kemalari. Qarang: Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. Qissalar va hikoyalar. –T., "Yangi asr avlodi", 2004. -212 bet.
5. Eshonqul N. Shamolni tutib bo'lmaydi. Qissa va hikoyalar. –T., 2005. -204bet.
6. Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq. –T., "Akademnashr", 2014. -544 bet.

ZULFIYA QUROLBOY QIZI IJODI

Reja:


1. Adiba ijodi va bugungi adabiy jarayondagi o'rni.
2. Adiba ijodi haqidagi adabiy tanqidiy qarashlar.
3. Hikoya janridagi asarlarida shaxs konsepsiyasi.
4. "Iztirob", "Muhabbat va nafrat", "Gunoh" hikoyalari haqida.
5. Roman janri va adiba ijodi.
6. Adibaning "Mashaqqatlar girdobi", "Armon asirasi" romanlarida obrazlar tizimi.

Tayanch so'z va iboralar: *Adiba ijodi, obraz yaratish, ruhiyat talqini, badiiy xarakter, hayot voqeyligi, tasvir usuli.*


Zulfiya Qurolboy qizi yaratgan badiiy asarlarda hayot voqealarini sinchiklab kuzatish an'anasi bilan bog'liq holda ularni o'z tuyg'ulari, tafakkur tarzida qayta sintezlab qog'ozga tushirish holatini kuzatamiz. Adiba yaratgan badiiy asarlarda har bir qahramon betakror, o'z dunyo qarashiga ega bo'lgan shaxslar sifatida namoyon bo'ladi. Adiba ijodi haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Q. Yo'ldoshev bu haqida yozadi: "Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti janrlar borasida shakllangan tasavvurlarni buzishi, yaratilayotgan asarlarning nazariy qoliplarga tushmasligi bilan xarakterlanadi. Zero, ijod erkinligi faqat "nimani yozish"ga emas, balki "qanday yozish"ga ham tegishlidir. Istaganday yozish erki ijodiy tajribalar o'tkazish imkonini beradi".⁴³ Darhaqiqat, murakkab hayotning so'qmoqlari insonni qay yo'llarga boshlamaydi. Shu bilan birga turfa xil quvonchu iztiroblarni o'z boshidan kechiradi. Ba'zan o'z qismatidan xafa bo'lib, turfa xil yo'llarga kirib chiqadi. Bu esa turfa xil xarakterlarni shakllantirishdan dalolat beradi.

Zulfiya Qurolboy qizi 1966 – yili Jizzax viloyatining Jizzax tumanida tug'ilgan. 1989 - yili Jizzax pedagogika institutining o'zbek filologiyasi fakultetini bitirgan. "Turmush", "Yovuzlik farishtasi", "Qadimiy qo'shiq" "O'lim hech narsa emas" hikoyalar to'plamlari hamda "Armon asirasi", "Mashaqqatlar girdobi" romanlari muallifi. Ayni kunlarda "O'zbekfilm" kinostudiyasida ishlaydi. Hikoyasi asosida "Chaqmoq chaqqan tunda" badiiy filmi suratga olingan. "Yozsiz yil" badiiy filmining, "Fidoyilar" serialining senariy muallifi. Hikoyalari asosida O'zbek davlat drama teatrida "Ayol" spektakli sahnalashtirildi.

⁴³ Yo'ldoshev Q. Azobda toblangan odamlar tasviri. Qarang: Zulfiya Qurolboy qizi. Armon asirasi. Roman. –T., "Yangi asr avlodi", 2009. 3–bet.



Adiba asosan epik turdagi asarlar yaratgan bo'lib, uning asarlarida siz-u bizga hamohang yashayotgan insonlar qismatini kuzatamiz. Ularning barchasida oddiy insonlar taqdiri, qismati asos qilib olingan bo'lsa-da, ammo ularning turfa xil qarashlari hayot so'qmoqidagi iztiroblari o'quvchini mulohaza yuritishga undaydi.



Adabiyotshunos Umarali Normatov istiqlol davri adabiy jarayon va tanqidchiligi haqida so'z yuritib quyidagi fikrlarni qayd etgan edi: "Chop etilgan son-sanoqsiz asarlar orasida aynan shu "Ey, odamzod, ko'zingni och, sen nima uchun yashayapsan, inson degan nomga munosib bo'lish uchun nima qilyapsan?" degan savollarni qat'iy qilib qo'yadigan, ularga baholi qudrat javob izlaydigan, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etadigan yalt etib ko'zga tashlanadigan, o'quvchini larzaga soladigan, o'y-mushohadalarga undaydigan hikoya, qissa, romanlarga ham duch kelamiz".

Zulfiya Qurolboy qizining "Yozsiz yil" "Muhabbat va nafrat", "Rashk" kabi hikoyalari, "Armon asirasi", "Mashaqqatlar girdobi" romanlari shu xil asarlar sirasidan. Bu hikoya va romanlarning barchasi bugungi kunimiz, hozirgi globallashuv davri, bozor iqtisodiga o'tish pallasida odamlar qismati va ruhiyatida kechayotgan evrilishlar haqida bahs etadi. Mualliflar ayni shu evrilishlar chog'i chin insoniy qiyofasini – qalbdagi noyob xazina – imon-e'tiqod, mehr-muruvvat, muhabbat tuyg'ularini saqlab qololgan asl insonlar, ayni paytda, nafs balosi tufayli yuz tuban ketgan kimsalar, bundan ham yomoni, turmush chigalliklari girdobida najot yo'lini, o'zligini topolmay, arosatda sarsari kezib yurgan noshud-notavonlar qismati ustida ehtiros bilan qalam tebratadilar.

Adabiyotshunos Hakimjon Karimov Istiqlol davri adabiyoti haqida soʻz yuritib: “Har bir davr oʻz muammosi, konsepsiyasi, poyeziyasi va qiyofasiga ega boʻladi. Bu hol nafaqat odam, balki jamiyat faoliyatiga ham taʼsir qilib, uning yoʻnalishini ham belgilaydi... inson tafakkuridagi oʻzgarish davr va jamiyatdagi oʻzgarish taʼsirida boʻlishi tabiiy hol, oʻz

navbatida, jamiyatning toʻgʻri yoʻnalishini belgiash bilan birga, oʻzining hayotdagi oʻrni va mavqeini ham namoyon hamda insoniyat diqqatini jalb qiladi. Bu narsa oʻzbek romanlarida oʻz ifodasini topayapti. Demak, ularda voqea – hodisalar emas, insonning oʻzi, uning oʻy – fikrlari, alamlari, iztiroblari, ruhiyati, ruhiy olami yetakchilik qilyapti, tasvirlanayapti, ochib beriliyapti”.

Adabiyotshunos N. Rahimjonov bugungi davr adabiyoti haqida shunday yozadi: “XX asr oxiri – XXI asr boshlari mustaqillik davri badiiy – estetik tafakkuri siyosiy lashmagan, bashariy qadriyatlarga tayangan azaliy va abadiy oʻzanlariga qaytishida shoir – yozuvchilarimiz faoliyati ham salmoqli mavqefa ega... adabiyotning har bir taraqqiyot bosqichida estetik konsepsiyalarning ishlab chiqilishida soʻz sanʼatkorlarining badiiy ijod falsafasi va adabiy jarayon psixologiyasiga doir fikr – mulohazalari, shaxs va jamiyat ruhiyatini tozartirishda badiiy asarning ijtimoiy – estetik ahamiyatiga oid nuqtai nazarlari hamisha diqqat – eʼtiborda boʻlib kelgan”.

Adabiyot – soʻz sanʼati, u Inson ruhining inʼikosi, insonni insonday tasvirlash, insonligini koʻrsatishga xizmat qiladi. Buning uchun Shaxs muammosini, ijodda ijodkor Shaxsi muammosi muhimligini anglab yetish lozim. Bu Shaxs – kim? U – erkinmi? Oʻz-oʻzini anglab etganmi? Komillikka intiluvchimi? Unda har tafakkurga boʻlgan ehtiyoj kuchlimi? U Inson taqdirini oʻzining qalb koʻzgusiga solib koʻra oladimi? Xalq taqdirini-chi? U Shaxs sifatida shu xalqning farzandi hisoblanadi.

Chinakkamiga ozod Vatan odami ekanligimizni toʻla his etgan holda qalam tebratishga undamoqda.

Adib oʻz asarida voqelikni aks ettirganida – xoh u tarixiy boʻlsin, xoh zamonaviy mavzuda, - faqat haqiqatni yozmogʻI, yolgʻondan oʻzini tiymogʻI shart. Xullas, adabiyot koʻngil ishiga aylanishi kerak. Yuqoridagi talablar barchasi oxir – oqibat qoʻshilganda, ziyolilar hamisha ham maʼsul boʻlgan insoniy burch kelib chiqadi: bu burch – elga maʼrifat tarqatish, maʼrifat – ziyo yoyish, el maʼnaviyatini yuksaltirishdan iborat.

“Iztirob” hikoyasida Abdumoʻmin, Fazlat, yaʼni bir oila misolida inson ruhiyatidagi iztiroblarni, quvonchni badiiy talqin qiladi. Asarda oʻzbek ayolining fojiali qismatini Fazilat obrazi misolida koʻrsatib beradi: “Oktabr oyining oʻn sakkizinchisida tugʻilgan yettinchi farzand ham qiz

bo'ldi. Qizchani ona qorindan operatsiya qilib olishdi duxturlar". Shu satrlar bilan boshlangan asar Fazilatning ruhiy iztiroblari voqealar rivoji natijasida fojialar girdobida qolgan hayoti talqin etiladi.

Fazilatning nogiron bo'lib qolishi uni qattiq iztirobga soladi. Erta-yu kech, har soat, har daqiqa, har soniya jonsiz oyoqlariga tikilib o'tirish oson emas edi. Boshida: "Nima bo'lsa, peshonamdan ko'raman!" deb taqdirga tan bergan ayolning vaqt o'tgan sari asablari yemirila boshlaydi. Xira yog'du taralib turgan, bir cheti atay qilgandek qiya ochib qo'yilgan pardaga ko'zi tushib, ayolning birdan shashti susaydi. Bu vaqtda u kelinlik uy yaqiniga kelib qolgandi. Supadan o'rmalab chiqsa, bas, marra uniki! Ammo... Beg'ubor orzulari allaqachon so'ngan, umidlari bexosdan qo'ldan tushib ketgan shaffof billur singari chil-chil bo'lgan, o'zini og'ir tog' ko'chkisi ostida qolgandek his qilayotgan ayol... supadan emaklab chiqishga olmadi, jur'ati yetmadi.

Yozuvchining "Muhabbat va nafrat" hikoyasida ham inson qismati oddiy qishloq hayotining murakkab qirralari mahorat bilan talqin etiladi. Asarda oddiy qishloq qizi Dildorani shaharga kelishi, bu yerda ta'lim olishi, qishloqqa ketishdan bosh tortib shaharda yashab qolishi, murakkab hayot tarzi haqqoniy talqin etiladi. Asarda Dildora obrazi bilan bir qatorda uning xarakter qirralarini yoritishda Mavjuda, Abdulla va ular o'rtasidagi munosabatlar voqea rivojiga singdiriladi.

Hikoyada hayot turmushlarga o'ralib qolgan oddiy shaxslar obrazi orqali ularning murakkab va og'ir hayot tarzini talqin etadi. Masalan, "Mening taqdirim senikidan ham chigil va ma'nisiz, deya gap boshladi Po'lat. Tun yarmidan oqqan, ular hamon o'sha stol atrofida o'tirishardi. Yigirma yoshimda otam ammamning qiziga o'ylantirib qo'ydi. Hamma ko'rgilik shundan keyin boshlandi". Voqealar silsilasida Po'lat bilan Dildora tanishadi birga ma'nisiz hayot kechira boshaydi. Asar sujetiga diqqat qilinsa oddiy voqealar orqali turmushdagi mavjud illatlarni, qarama – qarshiliklarni, insonning og'ir va ayanchli hayot tarzini mahorat bilan talqin etadi.

"Gumon" hikoyada erta tongdan kech tushgunga qadar, tinimsiz mehnat qilib, og'ir hayot kechirayotgan oddiygina qishloq hayoti qalamga olinadi. Asarda Davron, Abdurasul, Bahoroy obrazlari orqali inson xarakteri va ruhiy dunyosidagi o'zgarishlar qalamga olingan.

Asarda mehr va mehrsizlik aldov va xiyonat kabi tushunchalarni qay darajada ma'no ifodalashini teranroq his qilamiz. Masalan: "Qolaversa, bug'doy o'rimi nihoyasiga yetib qolgan, uzog'i bilan hafta-o'n kundan keyin xirmonjoyni qorovullash kerak bo'lmay qoladi. Brigadir uni yana

qayerga ishga yuboradi, noma'lum". Davron bilan Bahoroy o'rtasidagi mehr asta – sekin muhabbatga aylanadi. Ammo xiyonat yo'liga kirgan har ikki shaxsning fojalarai haqqoniy yoritiladi. Erta bahordan dalaga chiqib ketganlari bois hovli-yu uy ichlari ivirisib yotar, yumushlar tiqilib ketgan, biroq Bahoroyning egilib oyoq ostida to'ntarilib yotgan chelakni olib qo'yishga ham hushi kelmasdi. Ko'z oldida erining og'ir, horg'in, iztirob ifodasi balqqan pajmurda chehrasi, tik qarashga, ichini kuydirayotgan g'azabini sochishga botinolmayotgan nigohlari bir soniya bo'lsa ham nari ketmasdi. Zulfiya Qurolboy qizining "Mashaqatlar girdobi", "Armon asirasi" nomli romanlari chop etilgan. Bu romanlarda asar qahramonlarini favqulotda va ayovsiz sinovlar fonida tasvirlash yetakchilik qiladi. Adiba hikoya va qissalarida narsalashayotgan yurtdoshlarimiz ruhiyatini aks ettirgan bo'lsa bozor iqtisodiyoti tufayli narsaga evirilayotgan odamlarning bu jarayondagi urinishi, iztirob va fojalarai jonli obrazlar misolida ko'rsatilgan. Roman haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev shunday yozadi: "Armon asirasi" da o'zligini saqlash, o'z qiyofasiga ega bo'lish imkoniga ega bo'lolmagan odam, uni hamisha turlanib – tuslanish, eshilishga majbur etadigan vaziyat va shu holatda tirikchilik o'tkazishga mahkum shaxslarning mavjudligidagi fojaviylik va ularning sezimlaridagi titrama jihatlar ulkan xayrixohlik bilan tasvirlangan. Ayni vaqtda asarda har qanday battol sharoit ham chinakam odamning shaxsiyatidagi o'zak sifatlarni o'zgartira olmasligi aks etgan. Adiba ijodida ojiz, kuchsiz azoblarga mahkum shaxslar obrazini yaratish an'anasini kuzatar ekanmiz asar voqealari kitobiylikdan hayot voqeligiga yaqinlashib borayotganligidan dalolat beradi.

"Armon asirasi" romani haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Q. Yo'ldoshev shunday yozadi: "asarda yo'qchilik tufayli o'zbek ayolining o'zidagi ezgu sifatlardan ayrilib borish jarayoni ta'sirli aks ettirilgan. Ma'naviyat juda yuksak tushuncha, lekin u o'zgarmas va turg'un hodisa emas. Odamdagi ma'naviy sifatlari hayotning o'zida, uning ta'sirida shakllanadi, o'zgaradi, yuksaladi va ... patorop topishi ham mumkin. Romanda to'g'ri yo'lga qo'yilmagan hayot odamning moddiy holatigagina emas, balki ma'naviy-axloqiy sifatlari ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi bilgichlik bilan ko'rsatilgan".⁴⁴

Asardagi obrazlar tizimiga nazar solar ekanmiz ularning ma'naviy dunyosi, hayotiy ziddiyatlar zahirida shakllangan xarakter xususiyatlari

⁴⁴ Yo'ldoshev Q. Azobda toblangan odamlar tasviri. Qarang: Zulfiya Qurolboy qizi. Armon asirasi. Roman. –T., "Yangi asr avlodi", 2009. 5–bet.

namoyon bo'ladi. Asarda Donish, Nasiba, Lola, Samandar, Hakim, Hulkar va Rashid kabi obrazlar voqealar silsilasiga harakat qiladi. Donishning moddiy jihatdan qiyinchilikka duch kelishi, Nasibani ham ishga chiqishga majbur bo'lishi ammo maosh o'rniga uni qiymatini qoplovchi narsalar berishi, natijada bir oilaning og'ir hayot tarzi ko'z o'ngimizda jonlanadi. Aksiga olib Donishning o'g'li Farruxni ketma-ket operatsiya qildirsh holatlari ularning murakkab hayot tarzidan dalolat beradi: "Natijada uch xonali uyni ikki xonalikka almashtirishga to'g'ri keldi. Undan sal avvalroq Donish bir amallab yengil mashinalar uchun ehtiyot qismlar chiqaradigan zavodga ishga kirib olgan edi. Ammo u yerda ham ko'p ishlay olmadi. Uch oy ishlab, endi sal o'zini o'nglayman deganda, shtat qisqarishiga uchrab qoldi".⁴⁵

Oddiylilik tuyulgan bu tasvirlarda inson qismati, taqdiri haqida so'z ketayotganligini his qilamiz. Donish bir oz muddat mardikorlik qilishga majbur bo'ladi. Undan topilgan pulning bir qismini bozorning "bo'ri" siga berish uni qattiq iztirobga soladi. Shunda Donish o'zicha "bo'ri" egallamagan joy qolmabdid, -deb afsus chekadi. Asardagi bu kabi voqealar hayotning murakkabligi bozor sharoitining insoniyatga ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi: "Uyda sotishga arzigulik hech vaqo qolmaganda. Ortiqcha idish-tavoq, palos-gilamga o'xshagan narsalar allaqachon sotilib ketgan. Donish erta-kech tinim bilmagani bilan hech qachon kunlik rejani bajara olmasdi. To'rt – besh so'mlik kunlik tushumi ro'zg'orga va benzin sotib olishga zo'rg'a yetardi. Har oyda to'lanadigan badalni vaqtidan o'tkazib, uydagi anjomlarni, sotib, shunda ham to'liq qilolmay, ming istihola-andishadan yerga kirib ketgudek bo'lib "xo'jayin"ga ro'para bo'lardi. Xo'jayin avval obdon siqib suvini ichib, keyin bag'oyat karam ko'rsatayotgandek pulni olar, qolgan qismini keyingi oyning ulushiga qo'shib qo'yardi. Keyingi oy yana shu ahvol ... qarz tog'ining paydo bo'lishiga xuddi shu narsa zamin bo'lgandi".⁴⁶

Tasvirda Donishning bu ahvolga tushish sabablari, shu o'rtada qo'shnisi Hulkar Armon orqali uning tanishidan to'rt oy muddatga olingan yigirma foizli qarz uni og'ir ahvolga solib qo'yadi. Oddiygina hayot voqeligini yozuvchi go'zal tasvirlar orqali inson xarakterida mujassamlashgan xislat va tuyg'ularni mahorat bilan yoritgan.

Adibaning "Mashaqatlar girdobi" romanida ham oddiy hayot voqeligini, hayot va inson uzviy birligini yuksak darajada talqin etadi. Romanga "Birgina aybi – yonidagi hujjatini yo'qotib qo'ygani uchun o'zga yurtda

⁴⁵ Zulfiya Qurolboy qizi. Armon asirasi. Roman. –T., "Yangi asr avlodi", 2009. 36–bet.

⁴⁶ Zulfiya Qurolboy qizi. Armon asirasi. Roman. –T., "Yangi asr avlodi", 2009. 42–bet.

g'aroyib uqubatlarni boshidan kechirgan yigitning sevgi qissasi", -deb qayd etilishining o'zidayoq katta ma'no mujassamlashgan. Romanda Po'lat Damirovich, Hakim Nazarovich, Matjonov, Nurali, Husan, Fayzi, Toshpo'lat kabi obrazlar galereyasini kuzatamiz: "Sho'rliklarning ko'pchiligi tirikchilik vajidan o'ylaridan chiqib ketganlariga bir ikki yil bo'lgan, shuncha vaqtdan buyon bola chaqasining mehridan, ro'y bergan yangilik o'zgarishlardan bebahra edilar", - deb yozadi. Asarda o'zga yurtda hayot kechirib, og'r mehnatlar zahirida iztirob chekkan shaxslar qismati o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Asarda tasvirlangan quyidagi fikrlarga e'tibor qarataylik: "Axir, bu yerda hatto qamoqxona ham afzalku. Har qalay, u yerda nima uchun jazolanayotganing yoki majburiy mehnatga jalb etilganing sababini bilasan. Qisqasi, sen u yerda qayta tarbiyalanayabsan! Bu yerda-chi? Mahbuz emassan, biroq mahbuzdek kun kechirasan. Hatto eng kuchli tartib-qoidaga asoslangan qamoqxonada ham insonning inson sifatidagi huquqlari bu qadar poymol etilmagan. Kasal bo'lsang, kasalxonaga yuborishadi, har qalay! Bu yerda-chi?"⁴⁷

Vatandan yiroqda og'ir mashaqqatli hayot tarzini boshidan kechirayotgan shaxslar fojeasi haqqoniy tarzda yoritilgan bo'lib, uarning dardu alamlari, iztiroblari ruhiy kechinmalar orqali go'zal tasvirlarda namoyon bo'ladi.

ADIBA ASARLARINING XRONIKASI

- 1 [**Ayol \(hikoya\)**](#)
- 2 [**Mashaqqatlar girdobi \(roman\)**](#)
- 3 [**Xoliq amaki \(hikoya\)**](#)
- 4 [**Kuygan shahar \(hikoya\)**](#)
- 5 [**Ikki manzil \(hikoya\)**](#)
- 6 [**Qadimiy qo'shiq \(hikoya\)**](#)
- 7 [**Yolg'izlik qurboni \(hikoya\)**](#)
- 8 [**Quyosh nega chiqaveradi? \(hikoya\)**](#)
- 9 [**Yozsiz yil \(hikoya\)**](#)
- 1 [**Armon asirasi \(roman\)**](#)

0

⁴⁷ Zulfiya Qurolboy qizi. Armon asirasi. Roman. –T., "Yangi asr avlodi", 2009. 77–bet.

ADABIYOTLAR:

1. U. Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. –T.: “Ma’naviyat”, 1999. - 112 bet.
2. A. Rasulov. Badiylik – bezavol yangilik. –T.: “Sharq”, 2007. -366 bet.
3. N. Rahimjonov. Istiqlol va bugungi adabiyot. –T.: “O’qituvchi”, 2012. -328 bet.
4. H. Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. –T.: “Yangi nashr”, 2010. - 364 bet.
5. Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo’shiq. Hikoyalar. –T.: “O’zbekiston”, 2011. -360 bet.
6. Zulfiya Qurolboy qizi. Mashaqqatlar girdobi. Roman. –T.: -150 bet. www.ziyouz.com.
7. Zulfiya Qurolboy qizi. Armon asirasi. Roman. –T., ”Yangi asr avlodi”, 2009. -302 bet.

№	ISTIQLOL DAVRI ADABIY JARAYONI VA TANQIDCHILIK FANIDAN O’TILADIGAN AMALIY MAVZULARI
1	Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik
2	Adabiy jarayonda tanqidchilik
3	Mavzu.Sheriyatdagi o’ziga xosliklar
4	Adabiy dramalar taraqqiyoti.
5	Jahon adabiyotida poetik talqin
6	O’zbek nasridagi o’zgarishlar
7	Dediktiv asarlarda shaxs fojeasi talqini

1-Mavzu Istiqlol davri adabiy jarayoni va tanqidchilik

Reja

- 1.Istiqlol davri adabiyotining o’ziga xos xususiyatlari .
- 2.Adabiy jarayondagi poetik o’zgarishlar

3. Adabiy tanqidchilik taraqqiyoti va adabiy jarayon

4. Tahlil talqin va ijodiy individuallik

Adabiyotlar

1. N. Rahimjonov . Istiqlol davri adabiyot–T.;2012

2 U.Hamdam.Yangi o'zbek shariyati .-T. 2014

3.A.Rasulov.badiiylik-bezavol yangilik.-T. «Sharq» 2007

4U.Normatov.Ijod sehri .T.;SHarq 2007

5.H.Karimov. i Istiqlol davri adabiyoti.Yangi nashr,nashriyoti,2010

2-Mavzu.Adabiy jarayonda tanqidchilik

Reja

1. H.Karimov. i Istiqlol davri adabiyoti. «Yangi nashr»,nashriyoti,2010
174-176-betlar

2. N.Rahimjonov.Istiqlol va bugungi adabiyot.-
Toshkent.«O'qituvchi»2012,41- 87;236-249-betla

3. U.Hamdam.Yangi o'zbek shariyati .-T.;2014«Adib»
nashriyoti,2012,195-276-betlar

4.D.Quronov.Mutolaa va idrok mashqlari.-Toshkent,
«Akademnashr»,2013,190-213-betlar

5Q.Yo'ldoshev.Yoniq so'z.-Toshkent Yangi asr avlodi» 2006.88-139;368-
402-betlar.

6.M.Xolbekov.XX asr modern adabiyoti manzaralari.wwwXurshed
Davron

3-Mavzu.Sheriyatdagi o'ziga xosliklar

Reja

1.Sheriyatdagi lirik kechinma va tuyg'u birligi

2 Faxriyor shariyati va noananaviy talqin

3.Asqar Maxkam shariyati

4.Yoshlar shariyati va uning o'ziga xosliklar(Yoshlar kitobi misolida)

Adabiyotlar

1.. H.Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. «Yangi nashr,nashriyoti»,2010

2. N.Rahimjonov.Istiqlol va bugungi adabiyot.-Toshkent,
«O'qituvchi»,2012

3. U.Hamdam.Yangi o'zbek shariyati .-T.;2014«Adib» nashriyoti 2012

4 D. Quronov.Mutolaa va idrok mashqlari.-Toshkent,
«Akademnashr»,2013

5.Q.Yo'ldoshev.Yoniq so'z.-Toshkent Yangi asr avlodi 2006.

4-Mavzu Adabiy dramalar taraqqiyoti.

Reja

- 1 H.Karimov. Istiqlol davri oti. «Yangi nashr»,nashriyoti,2010
2. D.Quronov.Mutolaa va idrok mashqlari.-Toshkent, «Akademnashr»,2013 107-115-betlar
3. A.Soliev

5-Mavzu Jahon adabiyotida poetik talqin

Reja

- 1'Frans Kafka ijodi va « Jarayon» asari haqida mulohazalar
 - 2Asarda obrazlar tizimi
 - 3Majoziylik va ramziylik
 - 4.Talqin va yozuvchi uslubi
 - 5.Jems Joys ijodi
 - 6.J.Joysning « Musavvirning yo'lakdagi shamoyili» asari haqida
- Adabiyotlar

- 1.D.Quronov .Roman haqida ayrim mulohazalar .Qarang.Mutolaa va idrok mashqlari.-Toshkent, «Akademnashr»,2013;172-189-betlar
- 2.Q.Yo'ldoshev .Frans Kafka.Qarang Yoniq so'z –T.; «Yangi asr avlodi» 2006,286-401-betlar
- 3M.M.Xolbekov.XX asr modern adabiyoti manzaralari.wwwXurshed Davron(internet sayti)
4. J.Joysning Musavvirning yo'lakdagi shamoyili Roman.(A.Otaboev tarjimasi)-T.; «Akademnashr» 2014

6-Mavzu O'zbek nasridagi o'zgarishlar

Reja

- 1.Nasr taraqqiyoti va adabiy jarayon
- 2.Isojon Sultonning « Boqiy arbadar» asarida tasvir usuli
- 3.Romanda ramziylik va majoziylik
- 4.Asardagi obrazlar tuzilishi va yozuvchi emotsionalligi
- 5.Shovqin romanida o'ziga xos talqin
- 6.Ruhiyat talqini xarakter yaratish

Adabiyotlar

- 1 H.Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. «Yangi nashr»,nashriyoti,2010 128-164-betlar
- 2 D.Quronov.Mutolaa va idrok mashqlari.-Toshkent, «Akademnashr»,2013 157-171-betlar
3. Q.Yo'ldoshev.Yoniq so'z.-Toshkent, «Yangi asr avlodi» 2006 68-73-betlar
- 4.U.Normatov Romanning yangi umri .Qarang.Ijod sehri –T.; «SHarq», 2007,204-233-betlar

7-Mavzu Dediktiv asarlarda shaxs fojeasi talqini

Reja

- 1Dediktiv asarlar taraqqiyoti va adabiy jarayon
- 2.Inson tabiat ,xarakter birligi va yozuvchi talqini
- 3.xarakterlararo ziddiyat va konfilikt talqini
- 4N.Ismoilov asarlarida shaxs fojiasi va muhit talqini

Adabiyotlar

- 1.A.Rasulov.Badiiylik.-bezavol yangilik .-T.; «Sharq» ;2007
2. 1 H.Karimov. i Istiqlol davri oti. «Yangi nashr»,nashriyoti,2010 212-224-betlar
- 3 O.Sharafiddinov.Hojiakbarning sirli olami .Qarang ;Ijodni anglash baxti .-T.; «Sharq» 2004 566-572-betlar

